5. Актуальные проблемы туризма, 99: Ежегодный сборник научных трудов // Российская международная академия туризма. М.: Советский спорт, 2000. - Вып.3. -232 с.

6. Гальскова Н.Д. Программа общеобразовательных учреждений по иностранному языку. М.: Просвещение, 1994. - 46 с.

7. Аршавская Е.А. Речевой этикет современного американца США (на материале приветствий) // Национально-культурная специфика речевого поведения. М.: Наука, 1997. - С.268 - 277.

8. Артюнова С.А. Взаимодействие культур Запад и Восток в современном мире. М.: Наука, 1987. - 160 с.

9. Бабий Г.И. Формирование коммуникативной культуры у студентов туристского вуза.: Автореф. дис. . канд. пед. наук. М., 1999. - 21 с.

10. Баженова Н.Г. Невербальные средства общения в обучении французскому языку // Иностр. яз. в школе. 1998. - № 3. - С.8 -11.

11. Балуян С.Р. Тестирование коммуникативной компетенции в устной речи. Таганрог, 1989. -120 с.

12. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М., 1979. - 312 с.

13. Белухин Д.А. Основы личностно ориентированной педагогики: Курс лекций. М.: Изд-во Институт практической психологии, 1996.- 318 с.

14. Бердяев Н.А. Смысл творчества. М., 1989. - С.254-535.

15. Березницкая Н.Л. Туризм как фактор межкультурной коммуникации. - СПб., 1999. - 154 с.

16. Бим И.Л. Методика обучения иностранному языку и принципы школьного учебника. М.: Рус.яз, 1977. - 288 с.

17. Бондаренко О.Р. Характеристики текстов для обучения межнациональной специфике общения на иностранном языке // Текст в учебном процессе. Сб. научных трудов МГПИИЯ им. М. Тереза. М.,1982. -вып. 282-С. 96-103.

18. Волкова Е. И. Русская и английская понятийно -терминологические системы современной высшей школы в аспекте межкультурной коммуникации.: Автореф. дис.. канд. философ, наук. М., 2000.- 140 с.

19. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. 3-е изд. -М., 1983.-250 с.

20. Володарская А.И., Митина А.М. Проблема целей обучения в современной педагогике: учеб.-метод. пособие. -М., 1989. 112 с.

21. Ворошилова Т.В. Формирование профессиональных знаний и умений студентов вузов туристского профиля методами творческих проектов.: Автореф. дис. . канд. пед. наук. М., 2000. - 20 с.

22. Горбачев В.Г. Основы философии: Курс лекций. М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 1998. - 352 с.

23. Горский В.А., Чепик В.Д. Туризм как образовательное пространство. // Дополнительное образование. 2000. - № 7 - 8. - С. 19 - 25.

24. Гуревич П.С. Философия культуры: пособие для студентов гуманитарных вузов. М.: АО «Аспект Пресс», 1994. - 317 с.

25. Гурьянова О.В. Информационно коммуникативная функция общения в контексте диалога культур.-М.,1998. - 82 с.

26. Дейк Т. Язык. Познание. Коммуникация. М.: Прогресс, 1998. - 312с.

27. Диювий етикет. К.: Альтерпрес, 1998. - 320 с.

28. Дружинина М.В. Реализация коммуникативного подхода в обучении немецкому языку // Иностр. язык в школе. 1999. - № 2. - С.67 - 69.

29. Ерасов Б.С. Социология культуры.- М., 1997.- 650 с.

30. Зимняя И.А. Психология обучения неродному языку. М.: Русский язык.- 1989. - 219 с.

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN PILGRIMAGE TOURISM MANAGEMENT: TRADITIONS AND INNOVATIONS

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ ПАЛОМНИЧЕСКИМ ТУРИЗМОМ: ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ

ZIYORAT TURIZMI BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBASI: AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR

ICHKI TURIZM MASALALARI

Sodiqova Gulhayo Ibrohimjon qizi
Qarshi davlat universitetining Pedagogika Instituti
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
Norqobilov Akbarali Baxtiyorovich
Qarshi Davlat Universitetining Pedagogika Instituti
Xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo'nalishining 3- bosqich talabasi

Annotatsiya: O'zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, O'zbekistonning turizm salohiyati, turizmdagi muammolar va ularga samarali yechim topish.

Kalit so'zlar: Turizm, Buyuk ipak yo'li, iqtisodiyot, investitsiya, videoselektor, jahongashtalik, YUNESKO, ziyoratgoh.

Abstract: Reforms in the field of tourism in Uzbekistan, tourism potential of Uzbekistan, problems in tourism and finding effective solutions to them.

Keywords: Tourism, Great Silk Road, economy, investment, video selector, globalization, UNESCO, shrine.

Аннотация: Реформы в сфере туризма в Узбекистане, туристический потенциал Узбекистана, проблемы в сфере туризма и поиск их эффективных решений.

Ключевые слова: туризм, Великий шелковый путь, экономика, инвестиции, видеоселектор, глобализация, ЮНЕСКО, святыня.

Buyuk Ipak yo'li qadimda sharq bilan g'arbni bo'g'lab turgan savdo yo'li bo'lganligi barchamizga ma'lum. Buyuk Ipak yo'li – insoniyat rivojlanishi tarixining, uning birlashuvga hamda madaniy qadriyatlari bilan almashishga, hayotiy zarur mahsulotlarni sotish uchun bozorlarga erishishga intilishining o'ziga xos bo'lgan

hodisasidir. Bizning yurtimiz ham Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan. Misol tariqasida, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Toshkent, Termiz, Shahrisabz, G'uzor va boshqa ko'plab qadimiy shaharlar ushbu savdo yo'lidagi manzilgohlardan hisoblangan. Demak, azaldan yurtimiz savdo-sotiq, madaniyatlar almashinuvi beshigi bo'lgan.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Buyuk ipak yo'li jahon tarixidagi eng muhim madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan noyob hodisadir. Asrlar davomida olis mamlakatlar va xalqlarni bir-biri bilan bog'lagan bu yo'l hozirgi davrda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda u Sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy va ma'rifiy hamkorlikning rivojlanishiga xizmat qilmoqda" - degan so'zlari bejizga aytilmagan.

Bugungi kunda turizm yuqori daromadli soha, shuningdek jadal rivojlanayotganligi sababli hududiy iqtisodiyotda ushbu sohaning rivojiga katta ahamiyat berilmoqda. Jahon sayyohlik sanoatida turizmdan tushayotgan daromad ulushi avtomobil ishlab chiqarish, neft va gaz sanoatidan keyin uchinchi o'rinda turadi. So'nggi yillarda turizm jahon eksportida o'zining ulkan hissasiga ega bo'ldi va butunjahon yalpi ichki mahsulotining 11% ini tashkil qilmoqda. So'nggi 40 yil davomida jahonda boshqa mamlakatlarga tashrif buyuruvchi turistlar soni 20 martaga, turizmdan keluvchi daromad 60 martaga oshdi va xalqaro turizmdan olinuvchi daromad 400 mlrd dollarga yetdi.

O'zbekistonda ham turizm sohasiga juda katta va alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2016-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'grisidagi farmoniga muvofiq, sayyohlik mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida belgilandi. Prezidentning 2017-yil 16-avgustdagi qarori bilan 2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 22-fevral kuni videoselektor yig'ilishida xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish va ichki turizmni yanada rivojlantirish, sayyohlik xizmatlarini yaxshilash va turlarini kengaytirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijadorligi tanqidiy tahlil qilindi. "Mamlakatimiz turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'la turib, uzoq yillar bu imkoniyatdan to'liq va samarali foydalanilmadi. Turizm rivoji uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilmadi, hamma o'z bilganicha faoliyat yuritib keldi", deb tanqid qildilar.

Shuningdek, 2019-yilda bo'lib o'tgan videoselektorda ham turizm sohasi bo'yicha bir qator masalalar ko'rib chiqildi. Unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yilda turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish, sayyohlar oqimini 7.5 mlnga yetkazish, katta salohiyatga ega bo'lgan ziyorat va tibbiyot turizmni jadal rivojlantirish lozimligi, hukumatga 3 oy ichida turizm marshrutiga kiritilgan obyektlar sonini 500 tadan sonini 800 taga yetkazish bo'yicha chora-tadbirlar belgilash kerakligini, YUNESKOning umumjahon moddiy va nomoddiy madaniy me'rosi ro'yxatiga O'zbekistondagi yangidan-yangi ziyoratgohlarni kiritishni tezlashtirish lozimligini, joriy yilda yangi, zamonaviy mehmonxonalarni qurish uchun 200 milliard

so’m subsidiyalar ajratib, turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo’yicha alohida farmoyish berdilar.

Bundan ko’rinib turibdiki, yurtimizda turizmni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Yurtimizda 8200 dan ortiq turistik zonalar va muqaddas qadamjolar, ya’ni ziyoratgohlar mavjud, lekin hamma ham bunday joylarnining qayerda joylashganligini, unga olib boruvchi marshrutlar yo’nalishidan xabardor emas.

Ichki va tashqi turizmni rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Butunjahon turizm maskanlari ro’yxatiga kiritilmagan muqaddas qadamjolarni aniqlab, ularni mavjud talablar asosida turistlar tashrifi uchun qulay holatga keltirish;
- Mamlakatimiz va butunjahon miqiyosida ushbu obyektlar targ‘ibot kampaniyalarini uyushtirish;
- Yurtimiz hududida mavjud turistik maskanlarning aynan qaysi turizm turiga kiritiluvchi maskan ekanligi bo’yicha kartotekasini ishlab chiqish va ushbu kartoteka asosida xaritalar tuzish, xaritalarning elektron ilovalar shaklini ishlab chiqish;
- Turizm obyektlariga olib borish uchun transport qatnovini yo’lga qo’yish;
- Yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini boshqarish, ularni turizm obyektlarida vaqtini samarali o’tkazishini to’g’ri tashkil etish maqsadida hududlarda mahalliy malakali gid-ekskursovodlar maktablarini tashkil etish va unga ko’ngilli tilmochlarni ham jalb etish.

Ushbu borada aynan ma’lum hudud uchun ushbu hududda mavjud otmlarda gid-ekskursovod mutaxassislarga ta’lim beruvchi o’qituvchilar yetishtirishni optimallashtirish zarur. Aynan biz faoliyat olib borayotgan Qarshi Davlat Universitetining Pedagogika Instituti ham tarixiy obidalarga boy ko’hna va navqiron Shahrisabz shahrida joylashgan, har ikki yilda bir marotaba o’tkazilishi yo’lga qo’yilgan Maqom festivali 75 davlatdan 300dan ortiq san’atkorlar tashrifi kuzatilgan bo’lsa, Kitob tumani Varganza qishlog’ida o’tkazilib kelinayotgan Anor festivaliga 15 xorijiy mamlakatdan mehmonlarni vohamizga boshlaydi. Bu holatda ushbu sayyohlar oqimini to’g’ri taqsimlash, ularning vaqtini mazmunli tashkil etish uchun mavjud gid-ekskursovodlar yetarli emas. Bu muammoning yechimi sifatida Qarshi Davlat Universitetining Pedagogika Institutida aynan gid-ekskursovodlarni tayyorlovchi ta’lim muassasasi bo’lmish kollej uchun mutaxassis o’qituvchilarni yetishtirish yo’nalishini sinov tarzida yo’lga qo’yilsa, kelajakda ushbu taklif o’zini to‘laqonli oqlaydi degan umiddamiz.

ADABIYOTLAR

1. Бектурдиев, Ж. К. Turizmni mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o’rni.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 22-fevral kuni videoselektor yig’ilishidagi nutqlari.
3. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov BMT Assembleyasida so’zlagan nutqi.

O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILLARI

Nargiza Khojaqulova Xosiyatqulovna
Katta o'qituvchi, Madaniyatlararo muloqot va turizm kafedrasi, ToshDO'TAU
E-mail: nargizakhodjakulova@gmail.com
Shonazarova Dilnoza Dilshod kizi
4-kurs talabasi, ToshDO'TAU
E-*mail:* dilnozafsi29@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistondagi ziyorat turizmi haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, maqolada O'zbekistondagi tashrif buyurish mumkin bo'lgan ziyoratgohlar ro'yxati ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: turizm, ziyorat turizmi, ziyoratgoh, qadamjo, missionerlik, masjid, madrasa, cherkov, infratuzilma, islom sivilizatsiyasi, O'zbekiston musulmonlar idorasi, tur agentlik, maqbara, xonaqoh, turistik firma, sayyoh, rekonstruksiya, reklama, Wikipedia, transport, internet sayti, elektron dastur.

Abstract: This article provides information about pilgrimage tourism in Uzbekistan. The list of possible pilgrimage sites in Uzbekistan also given in the article.

Key words: tourism, pilgrimage tourism, shrine, missionary, mosque, madrasa, church, infrastructure, Islamic civilization, The Muslim board od Uzbekistan, tour agency, mausoleum, khanaqah, travel agency, tourists, reconstruction, advertising, Wikipedia, transport, internet site, electronic app.

Аннотация: В данной статье представлена информация о паломническом туризме в Узбекистане. В статье также перечислены возможные места паломничества в Узбекистане.

Ключевые слова: туризм, паломнический туризм, святыня, миссионерство, мечеть, медресе, церковь, инфраструктура, исламская цивилизация, Управление мусульман Узбекистана, турфирма, мавзолей, гостиница, туристическая фирма, турист, реконструкция, реклама, Википедия, транспорт, интернет-сайт, электронное приложение.

Bugungi kunda turizm sohasi jadal o'sib, rivojlanib bormoqda.Turizm haqida so'z yuritishimizdan oldin, turizm o'zi nima ekanligini batafsil bilib olishimiz lozim. Turizm jismoniy shaxsning doimiy istiqomat qilayotgan joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda ma'lum muddatga boshqa joyga jo'nab ketishidir.Turizm shaklan sayr (excursion), sarguzasht (journey, expedition) va piyoda yurish (walking) kabi turlarni o'z ichiga olib, mazmunan esa insonlarning bilim doirasini kengaytirish, aql-idrokini rivojlantirish hamda jismoniy barkamollikni tarbiyalash kabi eng muhim vazifalarni hal qilishni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda turizmning juda ko'plab turlari mavjud. Masalan, sarguzasht turizmi, biznes turizmi, oziq-ovqat turizmi, madaniyat turizmi, ekoturizm, meditsina turizmi, ziyorat turizmi, sport turizmi, sog'lom turmush tarzi turizmi, dengiz turizmi, tug'ilish turizmi, fan

turizmi, gen turizmi, urush turizmi, falokat turizmi va hattoki virtual turizm turlari ham mavjud. Ushbu turizm turlari orasida ziyorat turizmi o‘zining alohida o‘rni va ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Yurtimizda juda ko‘plab ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar mavjud. Bu esa yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun va O‘zbekistonni kelajakda turistlar eng ko‘p tashrif buyuradigan mamlakatlardan biriga aylantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ziyorat turizmi – ma’lum bir shaxs yoki guruhlarning sayohat qilish yoki missionerlik maqsadida muqaddas qadamjolar, masjidlar, madrasalar, cherkovlar yoki diniy ahamiyatga ega bo‘lgan hududlarga tashrif buyurishidir. Bugungi kunda yurtimizda turizm sohasida juda ko‘plab islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi “O‘zbekistonda sayohat qilishni yengillashtirish, turizm infratuzilmalarini rivojlantirish va yangi turizm obyektlarini tashkil etish”ga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi [1] tasdiqlandi. O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan fuqarolarga viza tartibini soddalashtirish hamda maxsus ziyorat turizmi dasturlari taklif etiladigan davlatlar ro‘yxati shakllantirildi. Ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi, “O‘zbekturizm” tashkiloti bilan hamkorlikda tashkiliy ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6165-sonli farmoni [2] qabul qilindi. Unga ko‘ra ziyorat turizmi madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, ziyoratgohlar va allomalar haqida ularni yanada kengroq yoyish va dunyoga tanitish maqsadida filmlar tayyorlash, chiptalar, aviareyslar, temiryo‘l qatnovlari va mehmonxona xizmatlariga o‘zgartirishlar kiritish va bir qator boshqa vazifalar qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo‘yicha qo‘mitada Ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘limi ochildi. Bo‘limning asosiy maqsadi xorijiy sayyohlarni ziyorat turizmi doirasida tashriflarini olib borishdir [3]. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, 2021-yil 3-fevraldagi “Harakatlar strategiyasi”ning PF-6155-son farmoniga muvofiq O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilish uchun xarajatlarning bir qismini qaytarish tartibi joriy qilindi [4]. Bu esa vatandoshlarimizning O‘zbekiston hududida yanada qulayroq sayohat qilish va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng zamin yaratdi. Yana bir ziyorat turizmi sohasidagi katta yangiliklardan biri, 2019-yili Buxoroda “Birinchi xalqaro ziyorat turizmi forumi” bo‘lib o‘tdi va forum doirasida Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi huzuridagi Milliy PR-markaz hamda Malayziya tur agentliklari assotsiatsiyasi o‘rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi [5]. Bundan tashqari har yili O’zbekistonda Ziyorat turizmi haftaligi bo’lib o’tishi ham e’lon qilindi [6]. O‘zbekiston hududida juda ko‘p ziyoratgohlar: masjid, maqbara, madrasa, xonaqohlar mavjud.Quyidagi jadvalda ziyoratchilar tashrif buyurishi mumkin bo‘lgan ziyoratgohlar ro‘yxati keltirilgan [7]:

TOSHKENT	1. Shayx Zayniddin buva masjidi 2. Shayx Xovandi Taxur maqbarasi 3. Yunusxon maqbarasi 4. Muhammad Qaffol Shoshiy maqbarasi 5. Baroqxon madrasasi	6. Xo'ja Alambardor maqbarasi 7.Tillo shayx masjidi 8.Xo'ja Ahror Valiy majidi 9.Anvar bibi maqbarasi 10. O'zbekiston musulmonlar idorasi.
BUXORO	1. Ismoil Somoniy maqbarasi 2.Mag'oki Attor masjidi 3.Namozgoh masjidi 4.Chashmayi Ayyub maqbarasi 5.Bo'yonqulixon maqbarasi 6.Ulug'bek maqbarasi 7.Mir Arab madrasasi	8.Baland masjid 9.Xo'ja Zayniddin masjidi 10.Ko'kaldosh madrasasi 11.Nodir Devonbegi xonaqohi 12.Abdulazizxon madrasasi 13.Abduxoliq G'ijduvoniy maqbarasi
SAMARQAND	1.Xo'ja Doniyor maqbarasi 2.Hazrati xizr masjidi 3.Amir Temur maqbarasi 4. Dovud alayhissalom ziyoratgohi 5.Imom Moturidiy maqbarasi	
XORAZM	1.Juma masjidi 2.Shayx Muxtor Valiy maqbarasi 3.Said Alovuddin maqbarasi 4.Sheg'ozixon madrasasi 5.Olloqulixon madrasasi	6. Muhammad Aminxon madrasasi 7. Muhammad Rahimxon madrasasi 8. Islomxo'ja madrasasi va minorasi 9. Yusuf Hamadoniy maqbarasi
NAMANGAN	1. Xo'ja Amin maqbarasi 2.Mulla Bozor Oxund maqbarasi 3.Mulla Qirg'iz madrasasi	
ANDIJON	1. Ponsod masjidi 2. Devonaboy jome' masjidi 3. Yunus Payg'ambar ota ziyoratgohi 4. Otaqo'zi madrasasi	5. Bibi Seshanba ziyoratgohi 6. Fozil ota ziyoratgohi 7. Qutayba ibn Muslim maqbarasi
FARG' ONA	1. Burxoniddin Marg'inoniy maqbarasi	

QASHQADARYO	1.Hazrati Imom maqbarasi 2.Gumbazi Sayyidon maqbarasi
SURXONDARYO	1.Abu Iso at-Termiziy maqbarasi
NAVOIY	1. Mirsaid Bahrom maqbarasi 2. Qosim Shayx Azizon maqbarasi

Quyidagi jadvaldan ko‘rinib turganingizdek, Toshkent, Buxoro, Samarqand va Xorazm hududlari turistlar eng ko‘p tashrif buyuradigan markazlardan hisoblanadi. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlab o‘tish kerakki, ba’zi bir hududlar ziyoratgohlarga boy bo‘lishiga qaramay, birorta ham turistik firmalarga ega emas. Bunga Xorazm yaqqol misol bo‘la oladi. Bunday hududlarga tashrif buyurish uchun sayyohlar Toshkent yoki boshqa hudud firmalaridan foydalanishadi. Bu holatda esa davlatimizni dunyodagi eng ko‘p turistlar tashrif buyuradigan hududga aylantirish qiyin-ku? Shunday davlatlar borki, muqaddas qadamjolari juda kam bo‘lishiga qaramay eng ko‘p turistlar tashrif buyuradigan hududlarga hisoblanadi, nega? Chunki, ushbu davlatlar o‘zlarida mavjud yodgorliklarni yaxshi reklama qilishadi. Bizning yurtimizda ham turizm, jumladan, ziyorat turizm taraqqiy etishi, gullab-yashnashi uchun quyidagi omillarga e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq bo‘lardi:

Ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida:

- Turistlar tashrif buyuradigan ziyoratgohlarda xizmat ko‘rsatish sifatini kuchaytirish hamda yaroqsiz holga kelgan, ta’mirtalab hududlarni qayta rekonstruksiya qilish;
- Yurtimizda shunday ziyoratgohlar borki, ular haqida kam ma’lumotlar mavjud va aynan o‘sha hududda yashovchi mahalliy aholigagina ma’lum. Ushbu hududlarni ham, yurtimizdagi boshqa mashhur ziyoratgohlar haqidagi qisqacha ma’lumotlarni ham turli tillardagi broshyuralar va kitobchalar shaklida chop etish orqali reklamani kuchaytirish, chet elda ko‘rgazmalar tashkil etish;
- Hozirgi kunda ingliz tili eng ommaviy jahon tillaridan biri hisoblanadi, shu sababli, eng ko‘p ma’lumot manbai sifatida foydalaniladigan internet tarmoqlarida, masalan, Wikipedia tarmog‘ida ingliz va boshqa jahon tillarida ziyoratgohlarimiz

haqida ma’lumotlar berib o‘tish, chunki faqatgina o‘zbek tilida berilgan ma’lumotlar ichki turizmni rivojlantirishgagina xizmat qiladi, xolos;

- Ko‘pchilik turistlar biror hududga ziyorat uchun bormoqchi bo‘lganda ularda ushbu hududga qanday borish, qancha miqdordagi mablag‘ zarurligini bilishda yoki mehmonxona bilan bog‘liq ko‘plab muammolar kuzatiladi. Ushbu holatlarni bartaraf etish maqsadida ziyoratgohlarning xaritasini, ushbu hududga eltuvchi transport turlarni, taxminan qancha miqdorda pul sarflanishi va ushbu hududda mavjud xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxonalar ro‘yxatini o‘zida aks ettiruvchi elektron dasturlar yoki qo‘llanmalar ishlab chiqish;
- Eng ko‘p aholi foydalanadigan mahalliy va jahon internet saytlarida mahsulot reklamalarini birmuncha qisqartirgan holda, ziyoratgohlar ro‘yxatini ham ilova qilib o‘tish;
- Turistlarga yaxshi xizmat ko‘rsatish maqsadida esa maxsus gidlar tayyorlaydigan markazlar yoki universitetlarda maxsus fakultetlar ochish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yoki mutaxassisligi turizmga yaqin bo‘lgan sohalarda turizmga oid fanlarni kiritish;

Bundan tashqari, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida, mahalliy telekanallarda ziyoratgohlarimiz haqidagi ma’lumotlarni ham reklama roligi shaklida efirga uzatish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Bir kunda qanchadan qancha insonlar televizor tomosha qiladi, ushbu reklamaga ko‘zi tushgan insonni bizning ajoyib va betakror ziyoratgohlarimizga bir bora bo‘lsa ham tashrif buyurish hissi chulg‘ab olsa ajab emas. Shukrki, bugungi kunda ushbu yo‘lda bir-qator qarorlar qabul qilindi va sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M.“O‘zbekistonda sayohat qilishni yengillashtirish, turizm infratuzilmalarini rivojlantirish va yangi turizm obyektlarini tashkil etish” haqidagi qaror, 2017-yil 16-avgust
2. www.lex.uz
3. https://cityeconomy.uz/uz/news/Meyoriy_hujjatlar/farmonlar/ozbekiston-respublikasi-prezidentining-farmoni-10
4. https://religions.uz/uz/pages/...;
5. https://www.gazeta.uz/oz/2017/08/17/turizm/
6. https://en.wikipedia.org/wiki/...
7. tarix.uz/de/buxorodagi-obidalar
8. Goeldner., Charlese.Tourism.–2014.
9. Reisinger.International tourism.– Y,2015.
10. Tulenova.X., Xoldarov.T.Turizm. –Toshkent:Iqtisodiyot-moliya,2013.
11. https://science-education.ru/e...
12. https://vacayholics.com/types-of-tourism

INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL TOURISM IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION
МЕЖКУЛЬТУРНАЯ КОММУНИКАЦИЯ В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ
GLOBALLASHUV SHAROITIDA XALQARO TURIZM TIZIMIDAGI MADANIYATLARARO ALOQALAR

TURIZM SOHASIDA PIKTOGRAFIK YOZUVLARNING AHAMIYATI

Quraqova Shoxida Dagar qizi
ToshDO‘TAU mustaqil izlanuvchisi
shquraqova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada piktogrammaga asoslangan aloqa tizimlari mavzusi, ayniqsa turizm sohasida sayyohlar duch keladigan lingvistik qiyinchiliklarni piktogrammalar orqali hal etish masalasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mavjud piktogrammalar ko‘rib chiqilib, manbalar va piktogrammaga asoslangan axborotni loyihalash jarayoni uchun xulosalar chiqarish, aloqa tizimini yanada samarali tashkil qilish usullari haqida fikr bildiriladi.

Kalit so‘zlar. Turizm, piktogramma, ekoturizm, tabiat, lingvistik muommo, belgi, tasvir.

Abstract. In this article, the topic of pictogram-based communication systems, in particular, the issue of solving linguistic difficulties encountered by tourists in the field of tourism through pictograms, will be considered. Also, existing pictograms are considered, opinions are made about the methods of drawing conclusions for the process of designing information based on sources and pictograms, more effective organization of the communication system.

Keywords. Tourism, icons, ecotourism, nature, linguistic manners, character, image.

Аннотация. В данной статье будет рассмотрена тема пиктограммно-ориентированных систем общения, особенно в сфере туризма, для решения языковых трудностей, с которыми сталкиваются туристы, с помощью пиктограмм. Также будут рассмотрены существующие иконки, сделаны выводы о процессе информационного проектирования на основе исходников и иконок, высказаны мнения о способах более эффективной организации системы связи.

Ключевые слова. Туризм, пиктограммы, экотуризм, природа, языковая ладонь, знак, образ.

O‘zbekiston o‘zining ko‘plab tarixiy-me’moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur’atlarda rivojlanishi, afsonaviy o‘tmishi, Buyuk Ipak Yo‘lining tarixiy-muhandislik merosi, tabiatining ajoyib manzaralari, avloddan-avlodga o‘tib keluvchi mahalliy hunarmandchilik, xalqning mehmondo‘stligi va insoniy qadriyatlari bilan sayyohlarni hayratga soluvchi, mahliyo qiluvchi shu bilan birga ularni hursand etuvchi O‘zbekiston dunyoning barcha burchaklaridan kishilarni o‘ziga jalb etib kelmoqda.

Keyingi yillarda yurtimizda turizmni rivojlantirish borasidagi islohotlar tufayli yurtimizga keladigan sayyohlar oqimi sezilarli darajada oshdi. Mamlakatimizning sayyohlik salohiyatini yanada oshirish, turistlar uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida turli chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sayyohlikni to‘liq ifoda etish uchun unda ishtirok etadigan subyektlarni aniqlab olish maqsadga muvofiq. Bu borada olimlardan V.A. Kvartalnov sayyohlik obyektlariga to’rtta subyektni kiritadi[1,21].

- Sayyohlar
- Sayyohlik va xizmat tovarlarini beruvchi tashkilotlar
- Mahalliy hukumat organlari
- Qabul qiluvchi mamlakatlar

Bu sayyohlik subyektlariga yana bir guruhni, ya’ni sayyohlar borib ko‘radigan sayyohlik obyektlarini qo‘shishimiz mumkin. Chunki sayyohlar hamma joyga yoki mamlakatlarga boravermaydi. Ular shunday joylarni tanlaydiki, qaysiki u yerda sayyohlarni qiziqtiradigan obyektlar mavjud bo‘lishi lozim. Masalan, O‘zbekistonga sayyohlar xorijiy mamlakatlardan tarixiy obidalarni ko‘rish maqsadida tashrif buyursa ko‘proq Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga boradi. Demak, qaysi maqsad bilan sayohatga chiqsa, sayyohlar uchun o‘sha maqsadga javob beradigan sayyohlik obyektlari bo‘lishi lozim. [2, 13].

Shunday ekan, xorijiy sayyohlarning yurtimizga kirib kelishi va sayohat qilishi uchun biz ularga samarali va qulay xizmatlarni amalga oshirishimiz hamda sayyohlik obyektlarini yanada rivojlantirishimiz kerak. To‘g‘ri, bu maqsadda masullar yetarlicha ishlarni amalga oshirib kelmoqda, ammo shunga qaramasdan kamchiliklar yo‘q deb ayta olmaymiz. Masalan, yurtimizning ko‘plab mitaqalarida sayyohlar uchun tushunarli va zamonaviy piktogrammalar deyarli uchramaydi. To‘g‘ri, turli turistik yo‘l ko‘rsatkichlari asta sekinlik bilan o‘rnatilib kelinayapti. Ammo bu piktografik yo‘l belgilari bilan muommo hal bo‘lib qolmaydi.

Bizga ma’lumki, piktogrammalar hozirgi kunda axborotni uzatishning muhim vositalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Tushunish qobiliyatiga ega bo‘lmagan odamlarga kerakli axborotni yozma matn ko‘rinishida emas, balki piktogrammalar orqali ma’lumot berish maqsadga muvofiq. Bu nafaqat savodga ega bo‘lmagan aholi qatlamini, balki mahalliy tilda gapirishni bilmagan chet ellik sayyohlarni ham o‘z ichiga oladi. Ya’ni biz maishiy xizmat ko‘rsatishning barcha sohalarida xorijiy til vakilarining barchasi birdek tushuna oladigan zamonaviy piktogrammalardan foydalansak, maqsadga muvofiq bo‘lardi.. Ayniqsa, sayyohlar ko‘p tashrif buyuradigan hududlarda bu loyihani amalga oshirish juda katta samara beradi.

Shuningdek, turizm sohasida tog‘li hududlarga ekskursiya maqsadida chiqqan sayyohlar uchun yo‘ldagi xavf xatarlarni bildiruvchi piktografik belgilar yetishmaydi. Zero, sayyohlarni favqulodda vaziyatlardan erta ogohlantirish, odamlarning hayoti xavf ostida ekanligi tushuntirish va xabarning to‘g‘ri uzatilishi juda muhimdir.

Hozirgi kunda ko‘pgina mahalliy sayyohlik tashkilotlari ekologik bilimlarni o‘rganish va ta'lim funktsiyalari uchun yetarli operatsion bilimlarga ega emaslar, bu esa ularga turistlarni himoya qilish va xavf xatardan ogohlantirishni qiyinlashtiradi. To‘g‘ri so‘ngi yillarda O‘zbekistonda ekoturizmning ilmiy hamda metodologik asoslarinini ochib berishga qaratilgan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, ammo bu boradagi tahlillar ekoturizm yo‘nalishida tabiatni, geotizmlarni yaxshi biladigan, tabiatda va tabiatning ekstremal sharoitlarida guruhni boshqara oladigan malakali kadrlar tayyorlash dolzarb masala ekanligini yaqqol ko‘rastib turibdi.

Tabiat manzaralari haqida gap ketganda, piktografik belgilarini quyidagi to‘rtta toifaga bo‘lish mumkin: yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgichlari, sahnalashtiruvchi belgilar, ogohlantirish tavsiyalari va xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichlari.

Quyida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatkichlari tarkibiga kiruvchi bir nechta piktografik belgilarni ko‘rsatib o‘tamiz.

Bu piktografik belgilarni ishlab chiqish kerakligining ikkita asosiy sababi bor.

Birinchidan, tabiat manzarasi piktografik belgisini loyihalashda, joriy sayohatlar aks etgan tizimining yoritilgan belgilarining moddiy tanlanishi, uslubi, rangi va

mazmunida ekologik atrof-muhit muhofazasiga zid keladigan ko‘plab omillar mavjud. Mintaqaning ko‘plab belgilari mishyak yoki mis bilan ishlangan yog‘ochni o‘zida ifloslantiruvchi moddalarni saqlab turuvchi material sifatida foydalanishi mumkin; piktografik stilining bir qismi va tabiiy manzara va ekologik muhofaza qilish uslubi muvofiqlashtirilmagan; turli xil belgilar va ranglar va boshqalar.

Ikkinchidan, har qanday tavsiflovchi belgilar matn, grafika va grammatik jihatdan insoniylashmaganligini ko‘rsatadi. Hozirgi kunda mamlakatimizning ko‘pgina tabiiy joylarida belgilar talqin qilinishi ko‘p tilli matnlar bilan berilgan. Chet tilidagi grammatika va so‘zlarni noto‘g‘ri ishlatish yanada keng tarqalgan. Yo‘llarning grafik ilovalari normalarga mos kelmaydi. Ma’lum bir axborotni tushuntirishlari juda jo‘n yoki turistlar tomonidan o‘qilishi juda murakkab.

Hushyorlik bo‘yicha tavsiyalar juda tushunarsiz ifodalangan, bu esa psixologik noqulayliklarga olib keladi; xizmat ko‘rsatish kartasi yetarlicha aniq emas. Ushbu muammo sayyohlarning sayohatdan manfaatdorligiga katta ta'sir ko‘rsatdi, bu esa sayyohlar ekologik muhofazasi va ta'lim funktsiyalarini rivojlantirish uchun yanada yomon tasir ko‘rsatadi. Joriy turist markazidagi ko‘p sayyohlik, turizm tarqatish, qabul qilish va boshqa funktsiyalarga e'tibor beradi va global sharh funksiyasi sifatida piktografik belgilar e'tiborsiz bo‘lib qoladi.

To‘g‘ri, tanlangan til va belgilar turli madaniyatlar va tillarda birdek tushunilishi juda muhim, shu jumladan populyatsiyalar ichida mavjud bo‘lgan submadaniyatlarga xos bo‘lgan o‘xshashliklarni ham inobatga olish ahamiyatlidir.

Optimal ravishda, translyatsiya qilingan piktogrammalar hammaga tushunarli bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, turizm sohasida piktogrammalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Agar biz piktografik yozuvlardan turizm sohasida ko‘plab qo‘llasak, yurtimizga kelayotgan sayyohlarga yetarlicha qulaylik tug‘dirib bera olamiz. Madaniy farqlar tufayli butun dunyo uchun universal ramziylik ishlamaydi. Ammo, tanlangan piktografik ramzlar va tasvirlar milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lmasligi kerak, ehtimol, sub-mamlakat darajasida va ishlab chiqilgan maqsadli auditoriya bilan hamkorlikda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Кварталнов В. А. Туризм-М. : “Финансы и статистики” 2010.- 21 бет.

2. Rahimov Z.M. Tashqi iqtisodiy faolyatda sayyohlikni tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari. Diss. 2013. – 13 bet.

3. uz.wikepediya.org.wiki\ O‘zbekiston ekoturizmi

4. http: \\www.uzbekiston-geneva.ch

GLOBALLASHUV SHAROITIDA XALQARO TURIZM TIZIMIDAGI MADANIYATLARARO ALOQALARDA TIL, MADANIYAT VA INGLIZ TILI O'RGANISHNING O‘RNI

Nuraliyeva Shahnozabonu Elmurod qizi
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo‘nalishining
3 – bosqich talabasi
Niyazova Feride Sayful qizi
Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi O’qituvchisi
E-mail: @shaxnozanuraliyeva28@gmail.com

Annotatsiya: Globallashuv jarayonida madaniyatlararo aloqalarda madaniyat va tilning o'zaro bog'liqligini o'raganish va ingliz tili o'rganishning bu sohadagi yordami. Turizm tizimida madaniyat, til va til o'rganishning o'zaro o'rni.

Kalit so'z : Madaniyat, madaniyatlararo muloqot, turizm, til va til o'rganish, mentalitet.

Аннотация: Изучение взаимозависимости культуры и языка в межкультурной коммуникации в условиях глобализации и поддержка изучения английского языка в этой сфере. Взаимодействие культуры, языка и изучения языка в системе туризма.

Ключевые слова: Культура, межкультурная коммуникация, туризм, язык и изучение языков, менталитет.

Abstract: The study of the interdependence of culture and language in intercultural communication in the process of globalization and the support of English language learning in this area. The interplay of culture, language and language learning in the tourism system.

Keywords: Culture, intercultural communication, tourism, language and language learning, mentality.

Madaniyat, bu so'zni har bir inson o'z ongosti bilimidan kelib chiqib tushunadi, har bir insonning o'z fikri bo'lgani kabi olimlarimiz ham unga turlicha ta'riflar berib o'tganlar. Edvard Xollning fikricha, "odamlarning hayot tarzi, ular tomonidan o'rganilgan xulq, munosabatlar va moddiy buyumlar namunalari yig'indisi" dir degan [E.Xoll, 1971: 235]

"Madaniyat insonlarga hayot va o'zlarini tushunishga yordam berish maqsadida umumiy odatlarga ega bo'lgan insonlar guruhining bilim va e'tiqodini o'z ichiga oladi. Barcha insonlarga shunga o'xshash ongosti bilimi mavjud, shu bilan birga, insonlar o'z tili haqida bilim sohiblari hisoblanadi" [S.Shuls, 2003: 32] deya ta'rif berib o'tgan S.Shuls.

Shunday qilib, "madaniyat insonlarni tarix, an'analar va qadriyatlarga muvofiq farqlovchi har qanday mamlakatning yagona ramzi yoki xususiyatlarning majmuasidir. Madaniyat inson hayotida hamda jamiyat taraqqiyotida ahamiyatli rolni o'taydi" .

Madaniyat va til uzviy bir- biriga bog'liqdir. O'rgangan tarix, an'ana, urf-odatlarimiz va madaniyatimizni barchasini o'rgatish, uni yanada sayqallab, mukammal holga keltirishimiz uchun bizga albatta til bevosita kerak bo'ladi.

Til madaniyat xaritasidir. U bizga millatning tarixi va kelajagi haqida so'zlaydi. (R.M. Braun)

Til - bu muloqotning asosiy va tayanch vositasidir. Insonlar bir -birlari bilan erkin muloqot qilishlari mumkin, lekin aynan ularga ma'lum bir tilda. Ammo yer yuzida turli xil til, millat, elat vakillari borki, ularning so'zlashuv birligi bo'lgan tillari turli xildir. Insonlarni, balki davlatlarni ham o'zaro yaqinlashtiradigan vosita ham bu tildir. Turli tillarni bilish bu bizga keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Hoh u iqtisodiy, ijtimoiy hayotimizda, hoh ma'naviy va aqliy qobiliyatimizda buning aslo farqi yo'q. Ko'p tillilik bu dunyoviy bilimlarimizni ham oshirib, bizni dunyo yangiliklaridan boxabar qilib turadi. Masalan, ingliz tili - bu xalqaro tildir va u juda keng foydalaniladigan tillar qatorida va bu tilni o'rganishga yildan yilga talab ham oshib bormoqda. Hozirgi kunda turizm sohasi jadal suratlarda rivojlanib bormoqda. Insonlar ichki turizm bilan birga tashqi turizmda ham juda faoldirlar. Bu insonlarni dunyoni ko'rib o'rganishlariga, aylanib ko'ngil ochishlariga va qolaversa yangidan yangi investitsiyalar olib kirib biznes qilishlariga, o'z ona yurtlarini ham yanada rivojlantirishlariga zamin yaratmoqda.

Turizm - bu davlatimizni, insonlarimizni va o'z madaniyatimizni yanada boyitish uchun katta foyda keltiradigan sohadir. Uning quyidagi foydali jihatlari mavjud:

"BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotida 2015 yilda dunyo bo‘yicha 1 milliard 184 million sayyoh qayd etilgan bo‘lsa, 2016 yil yakuni

bo‘yicha bu ko‘rsatkich 1 milliard 235 millionga ya'ni, 3.9 foizga oshgan. Sayohatchilarga ko‘rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015 yilda qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. 2016–2017 yillarda ham bu raqamlarda katta tafovutni ko‘rish mumkin". Bundan bilishimiz mumkinki, turizm sohasini yanada rivojlantirish kerak. Chunki u bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohasidir. Uning rivojlanishi uchun esa biz yanada ko'p tillarni o'rganishimiz va sayyohlar agentlik kompaniyalarini ochishimiz kerak.

Hozirgi globallashuv sharoitida hamma narsalar rivojlanib yanada yangilanib bormoqda. Uyali aloqa vositalari, kompyuterlar, turli xil elektron qurilmalar, televizor, smartfon, gadjetlar va hokazo. To'g'ri hamma yangiliklar biz insonlar uchundir. Ammo biz ulardan keng foydalanishimiz uchun ham til bilishimiz, tushunishimiz kerak va ularni ishlata olishimiz kerak.

Turli xil madaniyalararo muloqotlarni rivojlantirish uchun ham til bilish zarur. O'z madaniyatimizni dunyoga tanitishimiz, turli davlatlardan do'stlar orttirishimiz, ular bilan yangidan yangi innovatsion g'oyalar yaratib, biznes shartnomalari ham tuzishimiz mumkin. Ko'rinib turibdiki, bularning hammasi davlatimiz rivojlanib gullab yashnashiga zamindir.

Turli xil tillarni o'rganish inson sog'lig'i uchun ham juda foydali. U inson miyasini yaxshi rivojlanishiga va Altsgemir kasalligini oldini olishda eng samarali omildir.

O'zga tilni bilgan har bir inson o'sha yod davlatning madaniyatini ham o'rganadi, qarabsizki kerakli, bizning milliy mentalitetimizga to'g'ri keladigan jihatlarini o'rganib o'zaro madaniyatimizni yangilab, tom ma'noda esa sayqallab boraveradi.

Til o'rganishning yana bir eng yaxshi jihati shuki, insonlar bir- birlarini to'g'ri tushunishni, hamjihat va ahil, kelishib murosa qilib yashashi yanada tez va osonlashadi. Bu esa davlatlararo tushunarsiz kelishmovchiliklarini oldini ham oladi. Natija biz turizm sohasini o'zimizning azaliy odatimiz bo'lgan mehmondorchilik so'zi bilan bemalol almashtira olamiz ham.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://kun.uz/uz/news/2018/01/02/uzbekistonda-turizm-kaj-avolda-va-uni-rivozlantiris-ucun-nimalar-kilis-kerak-mutahassis-takliflari

2. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. “CHET TILINI O’QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

3. M.Jumanova *"Til o'rganish va madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy ahamiyati" VOLUME 2| SPECIAL ISSUE 20 | ISSN 2181- 1784 | SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor =1.7*

https://cyberleninka.ru/article/n/tillarni-o-rganish-va-madaniyatlararo-muloqotning-ijtimoiy-ahamiyati/viewer

4. Муминова, Ф.М. Ingliz tilini o’qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish / Ф. М. Муминова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020.

5. Ibrohimova M. *"Xorijiy tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish ahamiyati"*. VOLUME 2| SPECIAL ISSUE 20 | ISSN 2181- 1784 | SJIF 2022: 5.947 | ASI Factor =1.7

LEGAL ASPECTS OF DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Berdikulov Mashrab Alikulovich
Head of Business Management faculty
Yeoju Technical Institute in Tashkent
E-mail: M.Berdikulov@ytit.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikrlar bildirilgan. Muallif tomonidan turizmni rivojlantirish va O‘zbekistonga ko‘proq xorijiy investorlarni jalb etish maqsadida mamlakatda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan asosiy islohotlar va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni yoritib berilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda turizm xizmatlari sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha ayrim taklif va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: turizm, tadbirkorlik, globalizatsiya, sivilizatsiya, yagona darcha markaz.

Abstract: This article is about ongoing reforms in the sphere of tourism in Uzbekistan. The author tries to outline the main legal bases and adopted normative legal documents in recent years in the country in order to develop tourism and attract more foreign investors to Uzbekistan. Also given some proposals for further development of tourism bases in Uzbekistan.

Keywords: tourism, entrepreneurship, globalization, civilization, one stop center.

Аннотация: Данная статья посвящена проводимым реформам в сфере туризма в Узбекистане. Автор пытается изложить основные правовые основы и принятые в последние годы в стране нормативно-правовые документы с целью развития туризма и привлечения большего числа иностранных инвесторов в Узбекистан. Также даны некоторые предложения по дальнейшему развитию туристических услуг в Узбекистане.

Ключевые слова: туризм, предпринимательство, глобализация, цивилизация, центр единое окно.

As the economy of Uzbekistan is closely connected with the world economy, the sphere of service occupies a special place in the development of the world economy. It is no secret that special attention is paid to the rapid development, promotion and support of small business and private entrepreneurship, which in recent years has become increasingly important in ensuring rapid economic growth in the Republic, the organization of new jobs, solving the problem of employment, increasing the incomes and welfare of the population. It is important that the adoption of several government programs and the plan for their implementation are given special attention to small business and private entrepreneurship. In particular, the allocation of microcredit loans, including loans to small businesses and private businesses, was improved and further simplified. Measures to increase the legal culture and financial and economic literacy of the population, as well as to form a system of educating citizens in the spirit of respect for the law are also included in the state program.

The program provides for measures to reduce the role of the state in the management of the economy. Measures were also taken to ensure the development of the country's economy, to reform and liberalize the economy, and to improve the system of rendering public services in great demand to the population through an institution on the principle of "single window". In addition, the program includes measures to support and encourage small business and private entrepreneurship, create favorable conditions for entrepreneurial activity.

These are the same terms for those who, in turn, want to engage in small business and private entrepreneurship activities, as well as for those who want to further develop their entrepreneurial activities in the future, including those who want to engage in tourism activities.

One of the cases where attention is required to small businesses, which are rapidly adaptable in every new environment, is also manifested in the formation of 57 percent of the gross domestic product of the products produced by small business entities per day. However, in 2000, this figure was 30 percent. Such a result is primarily the result of the fact that small business and private entrepreneurship are constantly supported by

the state. Along with the implementation of a number of reforms in the field of development of private entrepreneurship in the whole territory of the Republic, positive works are carried out in the field of Service and tourism. The decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to ensure the rapid development of the tourism sector”, adopted on December 2, 2016, has taken the development of the tourism sector to a new level.

Uzbekistan is a unique country and has a huge tourism potential on its territory, where the oldest civilizations and cultures have emerged, developed, which in terms of its attractiveness does not remain one of the best places for recreation and travel around the world. Today in our country, there are more than 7 thousand unique historical monuments and examples of magnificent and unique architecture.

Nevertheless, the tourism infrastructure of Uzbekistan, the quality of tourism services and its level, as well as the system of network management do not meet modern requirements in the conditions of globalization and fierce competition. The contribution of tourism to the economy of the country, the development of the service sector and the employment of its population are lagging behind the world average. However, tourism is the main strategic branch of the country's economy. The tourism industry is one of the most dynamically developing sectors of the world economy, the share of tourism in the world gross domestic product is more than 10 per cent, about 8 per cent of the world's labor-intensive population is employed in the network, tourism services account for more than 7 per cent of world exports.

In this regard, the decree adopted by the President of the Republic of Uzbekistan is aimed at ensuring the rapid development of the tourism network, giving tourism the status of a strategic sector of the economy, turning it into a powerful means of sustainable development of the country's economy, effective use of tourism potential in the regions, strengthening the role of tourism in the country and in international arena. Also, the decree provides for unprecedented measures to radically reform this network, which will determine the transition of the state policy in the field of tourism to a qualitatively new level, the following main target tasks and priority directions will be established.

Tourism as a private state of travel has its own specific limitations, characteristics and many definitions. Different from travel, the category of tourism is more influenced by the economy and has two facets in terms of origin. Tourism is a specific type of mass travel and at the same time it is an area that carries out and organizes trips. Come to the general definition of tourism, we give a broad description of the elements that make up it.

Tourism is the act in which people travel in their leisure time from their permanent residence to another country or within their home country for the purpose of impression and relaxation, health restoration, hospitality, knowledge acquisition or professional practical purposes, but are not engaged in work where they are motivated by money. In addition, tourism is approached differently at different times. We see that it is worthwhile to bring a number of concepts in this regard.

The word “Tour”, which is considered the negation of the word tourism, comes from the Latin word “Tornare”, which means a circular form. This word has also

penetrated into other Western languages without changing its meaning. For example, in french, the words "tourner" and "tour", which correspond to the meaning of "turn", are now also used. In English, the tourism question arose in 1811 year after the word tourist. And in German, only the question" auslander " (alien or foreign) was used. In 1958, with special attention to the German language, “fremdenverkehr”, or “tourismus”, the equivalent of tourism, began to be used as a tourist word “tourist”. [1] In the dictionary of the international Webster, the meaning of the Tour (tour) is expressed as follows: work, pleasure, travel to be done for reading, and the process that occurs during these trips from visiting different places and from the planned travel program is called the tour. The traveler returns to his homeland after a certain period of time.[2]

According to the Encyclopaedia *Britannica, “*tourism” is the act and process of spending time away from home in pursuit of recreation, relaxation, and pleasure, while making use of the commercial provision of services. As such, tourism is a product of modern social arrangements, beginning in western Europe in the 17th century, although it has antecedents in Classical antiquity. [3]

In order not to make an etymological mistake and establish the boundaries of this phenomenon, the word tourism has been tried to accurately describe, because:

- in research and analysis;
- when collecting statistical data;
- in the development of legal and administrative normative documents, as well as working with them;
- tourism is an important profession in determining economic and social impact.

The first time European scientists tried to prove that tourism is an economic activity. After the years of 1930s, economists in England took a deeper approach to the economic aspects of Tourism. Norval and Ogilvie conducted research on the impact of actions taken by tourists on the balance of trade. [4]

In addition to this, scientists from some areas of tourism were also praised. The most famous of these are Mathiot, Glucksmann and Krapfs. [5] According to the definitions of these scientists, the consumer function also includes temporary accommodation, travel and overnight stays. A simple definition given to tourism by scientists, in particular Walter Hunziger, is that it is considered the scientific foundation of the industry that "a set of relationships that consist of the trips that foreigners make to a place and that result from the temporary stay of living, not the purpose of making money, is tourism." But the scientist also said that this definition is not so complete. [6]

Proceeding from the scientific views of the above scientists, we can describe tourism as follows:

Tourism is a journey that goes beyond places where people live, work and meet important needs. Sleep is a temporary necessary need. A person who has traveled and spent the night, after a certain time, returns to the place where he lives.

Those who travel and temporarily spend the night, mostly require products and services that are offered by tourism enterprises. During this activity, various events occurrences and relationships occur.

Currently, consumers have the opportunity to choose goods and services in all spheres. The impact of this can also be seen in the tourism industry. Because the demand of consumers is constantly changing; they are looking for new impressions, and the change of fashion and everyday life is easily changing their minds, so knowing what the consumer is interested in, what they prefer and their relationship is an incredibly complex process. The difficulty of consuming tourist products has its effect on the tourism trade. Because in the demand for Tourism, new segments began to appear, including new appearance and forms of Tourism found content.

There was a decrease in the pace of demand for high-level tourist services. For example, the number of tourist destinations in Germany between the years 1960-1980 increased 1,9 times, if in 1960 27 percent of the population participated in tourist trips, in 1980 this figure was 57,7 percent, in 1987 64,6 percent. This can be explained as follows, because in tourism, not only the rich, but also the general part of the population began to participate. By the 1980s, the growth rate has decreased, but with a high level of production capacity, the balance has been maintained. [7] Germany recorded a total of 12 million tourists in 2020, ranking 20th in the world in absolute terms. The fact that larger countries regularly perform better in a comparison of the absolute number of guests is obvious. By putting the tourist numbers in relation to the population of Germany, the result is much more comparable picture: With 0.15 tourists per resident, Germany ranked 104th in the world. In Western Europe, it ranked 9th. Germany generated around 58.37 billion US Dollar in the tourism sector alone. This corresponds to 1.5 percent of its the gross domestic product and approximately 27 percent of all international tourism receipts in Western Europe. [8]

While the regulation of demand was on the one hand a guarantee of the reliability of tourism trade, on the other hand, it became difficult for firms to find their "share" in the market of services. Especially difficult conditions have arisen for newly established tourist firms. Because they had to position their products in the market.

CONCLUSION

As a conclusion, one can say that, the deepening of the requirements of specialization and diversification in the world tourism industry has put small and medium tourism firms in a difficult position for some time. In the future, the impact of competition on the organizational tourism market can be explained by the increase in the number of tour operators, the rise in the market of foreign competing firms, the increase in the number of other entities offering products in the form of tourist services.

The prosperity of market relations, the increasing demand for tourism among all sectors in the conditions of the creation of an environment of free competition, is a natural process. A significant contribution of income in the economy of all developed countries falls on tourism. The construction of hotels to suit the tastes of tourists, paying great attention to the advertising of historical monuments, improving the tourism service, perfectly studying all aspects of tourists in general, organizing events will lead to the development of tourism. With the development of international tourism, many populations are employed in some countries. Not only does international tourism benefit from a foreign exchange account, it can also transform the old but historical places where citizens live little by little into large and developed cities.

The contribution of tourism to the growth of Uzbekistan's prestige in the international arena should be significant. For this, there are opportunities in our country, increasing the number of new quality tourist facilities and, in this way, raising the economy of the country requires the implementation of a number of measures. Recommendations on this matter are as follows:

- Organization of marketing research in tourism system;
- Improvement of tourism service;
- Adaptation to the world standards;
- Development of the type and quality of tourist sourcing service;
- Promotion of historical monuments and monuments;
- Search and organize new tourist attractions;
- Increase and improve the range of additional services.

THE LIST OF USED LITERATURE

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Tourism
2. https://www.merriam-webster.com/dictionary/tour
3. https://www.britannica.com/topic/tourism
4. Erik Cohen. The Sociology of Tourism: Approaches, Issues, and Findings. Annual Review of Sociology. Vol. 10 (1984), pp. 373-392 (20 pages). Published By: Annual Reviews. Annual Review of Sociology. https://www.jstor.org/stable/2083181
5. https://konyvtar.uni-pannon.hu/doktori/2016/Madarasz_Eszter_ dissertation.pdf
6. Walter Hunziker – The Founder of Academic Tourism Studies. T. Akoglu. Published 2 April 2015. Education. Anatolia
7. Nikolaos Papadogiannis. 'Keeping with Contemporary Times': Social Tourism and West German Youth Hostel Organizations, 1950s–80s. Journal of Contemporary History. Vol. 51, No. 3 (JULY 2016), pp. 660-687 (28 pages). Published By: Sage Publications, Inc. https://www.jstor.org/stable/44504002
8. https://www.worlddata.info/europe/germany/tourism.php

THE ROLE OF IDIOMS IN INTERCULTURAL COMMUNICATION

Saydullayeva Munisa Boymurodovna
A student at TSUULL
Email: saydullayevamunisa4@gmail.com
A supervisor: Khakimova Surayyo, a teacher at TSUULL.

Abstract: This paper examines the link between culture and language, the role of cultural aspects on creating idioms, as well as, difficulties to understand idioms in intercultural communication with their reasons. It explores Uzbek and English idioms and their origin features which is related culture, custom and social life. In regards to the idioms, the research focus on the importance of the studying idioms in intercultural communication in order to achieve fluency and prevent on one of the language barriers.

Keywords: cultural aspects, phraseological units, language barrier, communication, communicative competence, linguacultureme

Аннотация: В статье исследуется связь между культурой и языком, роль культурных аспектов в создании идиом, а также трудности понимания идиом в межкультурном общении с их причинами. Он исследует узбекские и английские идиомы и особенности их происхождения, связанные с культурой, обычаями и общественной жизнью. Что касается идиом, то исследование сосредоточено на важности изучения идиом в межкультурной коммуникации для достижения беглости и предотвращения одного из языковых барьеров.

Ключевые слова: культурологические аспекты, фразеологизмы, языковой барьер, общение, коммуникативная компетенция, лингвокультурема.

Annotatsiya: Ushbu maqola madaniyat va til o'rtasidagi bog'liqlikni, idiomalarni yaratishda madaniy jihatlarning rolini, shuningdek, madaniyatlararo muloqotda idiomalarni ularning sabablari bilan tushunishdagi qiyinchiliklarni o'rganadi. Unda o‘zbek va ingliz idiomalari va ularning kelib chiqishi madaniyati, urf-odatlari va ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq xususiyatlar o‘rganiladi. Idiomalarga kelsak, tadqiqot ravonlikka erishish va til to'siqlaridan birini oldini olish uchun madaniyatlararo muloqotda idiomalarni o'rganish muhimligiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: madaniy jihatlar, frazeologik birliklar, muloqot, kommunikativ kompetensiya, lingvakultura.

Idioms are commonly used phraseological unit in the language to express some authentic ideas. These phrases are important to support the statement and convey unique thoughts. Moreover, it generates a deeper understanding of the language. Idioms, which are the colorful side of languages, are one of the symbols used while we are communicating our opinions and feelings. They give life and richness to the language by taking the existing words, combining them in a new sense, and creating new meanings, just like a work of art. " Lennon, 1998, Bulut; Qelik-Yazici, 2004: 105) So, Idioms reflect the environment, life, history and culture of the native speakers, closely associated with their innermost spirit and feelings. Idioms have so close relationship with historical background, economy, geographical environment, custom, etc. of the nation concerned that they more typically represent the cultural characteristics of a language than words. As you can see, the use of idioms brings cultural aspects to the language. When learning or improving a new language, idioms help you understand the culture behind the words. If you understand the context of use well, then you will be closer to speaking the language fluidly.

Literature review

Intercultural communication is the study and practice of communication across cultural groups. It applies equally to domestic cultural differences such as ethnicity and gender and to international differences such as those associated with nationality or world region. Intercultural communication is an approach to relations among members of these groups that focuses on the recognition and respect of cultural differences, seeks the goal of mutual adaptation leading to biculturalism rather than simple assimilation, and supports the development of intercultural sensitivity on the part of individuals and organizations to enable empathic understanding and competent coordination of action across cultural differences. As international communicating is developing and playing

a main role day by day all over the world to improve economic and political progress of nations, it requires knowing deeply all aspects of language to achieve consistence and perfection of a conversation. As I mentioned above, idiom is a complex phraseological unit depended with culture, as well as, it can be an expressive, emotional and widely used unit to express genuine ideas and give a perfect effective speech, especially, in international conference and meetings. So learning idioms well during learning every language is essential to talk and communicate with foreigners effectively and expressively in the international arena. This unit is used in whether diplomatic, political or scientific meetings, not only for them, but also formal and informal conversations, business agreement and another contract meeting productively. For instance, If you travel to London you will get to know the idiom, "*seeing through rose-tinted glasses*" which means "during bad times, put on a good face". The Uzbek equivalent would be "*kayfiyatingni ko'tar*". Another one is, "to be over the moon", which means "*blissfully happy".* The Uzbek equivalent would be "*yettinchi osmonda bo'lmoq*".

Idioms are useful in everyday life and in plenty of situations. The examples above shows you something about the playful nature of the people in both lands. Also, you can see these words which includes a few words, but mean unusual and expressive meanings in every nation's language. Knowing a foreign language is just part of the parcel – the other party's cultural background, values, and beliefs also need to be understood. This is where intercultural communication skills are indispensable. They are needed to successfully communicate with people from other cultures and social groups. And intercultural communication skills also include a willingness to be adaptable and accept that other cultures may communicate and do things differently. Byram and Risager‟ s (1999, cited in Al-Issa, 2005) argument that culture has a crucial role in encoding and decoding messages corroborates that culture is at the heart of communication. Culture as a body of knowledge of common beliefs, behaviors and values appear to be the factor to establish and interpret meaning in both verbal and nonverbal language. Language, as a special product of human society and an instrument of human thinking and communication, is a kind of institutional culture. Given the intermingled relationship between language and culture, the analysis of the ideological ground enriches the analysis of linguistic forms which show the language forms. Behind linguistic utterances there lies an ideological background which influences the linguistic preferences and ways. This connection occurs at lexical-semantic and grammatical-semantic levels, and at the textual level (Hatim & Mason, 1990; cited in Min, 2007, p.217). Peterson and Coltrane (2003, cited in Al-Issa, 2005) state that language and culture are interwoven and the students' success in achieving higher level of oral proficiency in target language relies on the consideration of culture in designing and developing course materials. If figurative language such as idioms, metaphors, metonymies is pervasive in real life as a part of the culture, then it is not surprising that language learners will be certainly encountered and exposed with idiomatic expressions as a part of language learning and they should attempt to build up their knowledge of idioms if they want to survive in real communication settings. (Boers et al., 2004, p.376) However, idioms in particular are widely recognized to be

a stumbling block (Buckingham, 2006) in the acquisition of a foreign language; though they are often recognized as incongruous, occasionally ungrammatical and difficult to figure out and resistant to translation for language learners and their contribution to communicative competence and intercultural awareness is both theoretically and empirically acknowledged.

Idioms appear to be the decoders of customs, cultural beliefs, religion and social conventions and events. Phraseological units like idioms keep national diversity and the meaning of them depends on the culture, history, geographical conditions and etc. For example:

Jump the shark

Meaning: the moment when a form of entertainment reaches a decline in quality by including gimmicks to maintain interest.

Origin: In the show Happy Days, the character Fonzie literally jumps over a shark while water skiing; afterward, radio personality Jon Hein popularized the phrase "jump the shark" to describe the decline of the show.

Under the weather

Meaning: Slightly unwell or in low spirits

Origin: This idiom is believed to be nautical in nature. When a sailor was feeling ill, he would go beneath the bow, which is the front part of the boat. This would hopefully protect him from adverse conditions, as he was literally under the bad weather that could further sicken him. Therefore, a sailor who was sick could be described as being "under the weather."

Igna bilan quduq qazimoq

Meaning: It means doing something with difficulties in order to achieve something.

Origin: Moreover, a needle is used to sew. It is a very tiny and thin tool. A well is a deep dug ground (deepth 80-150 m) to get water for drinking and watering especially, in dry and deserted lands that t is why there is not any water sources. It is dug with helping some specific machines and tools. If we imagine it digging with a help of a needle, it is quit hard and impossible work. So this idiom is used to do difficult work

Examples of idioms in English

- big mouth
- when pigs fly
- see red
- under the weather
- keep something under your mouth
- a piece of cake
- lose your bearings
- burning the midnight oil
- it's all Greek to me
- break leg

Examples of idioms in Uzbek

- tuyani dumi yerga tekkanda

- dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi
- og'zi qulog'ida
- tepa sochi tikka bo'ldi
- yuz ko'rmas bo'ldi
- kalavaning uchini topdi
- tuyaning dumi yerga tekkanda
- igna bilan quduq qazimoq
- tomdan tarasha tushganday
- tarvuzi qo'ltig'idan tushdi

Above these idioms in Uzbek and English includes a typical social and cultural origin, which depends on geographical locations and environmental events religion and custom. so that these appear language barriers which is related idioms during intercultural communicating. Language barriers are a common challenge of language use that result in miscomprehension. This could be because of a variety of factors like differences in educational background, level of literacy and country or area of the language user. Idioms cause problems and confusion. Because they are related intimately with culture. This appears the misunderstanding with native speakers in many conventions. Not knowing idioms and phrases that the person who does not acquire competence in using idioms will limits in conversation, will have difficulty comprehending a wide variety of printed matter, radio, television, songs will not understand parodies which presuppose familiarity with stock idioms and proverbs. In most cases, native speakers usually play with language of idioms to create expressiveness, humor, which could only be made sense of if the idioms is famous to the hearer or the reader. In rare case, learners can make use of their knowledge in their first language to comprehend an idiom resulting in positive transfer, but they are not always lucky enough to achieve this particularly with idioms that are both cultural different and synaptic different. So that communicators and language learners face some obstacles in learning idioms due to not knowing well about another countries' culture, custom and social life. I assume that learning and using phraseological units in the language, and idiomatic speech will help students to develop not only communicative competence, but also linguacultural competence and to improve fluency in a foreign language as well.

CONCLUSION

I think that it is a useful way to learn idioms, all in all, with culture. By the way, we can prevent one of the language barriers. The studying of idioms plays an important role in communicating fluently and without any misunderstanding with foreigners. Idioms help for the development of communicative and cultural competence on foreign learners. Most importantly, knowledge of idioms can enable us to have access to native speakers' culture and cognition, hence, help us approach language learning.

REFERENCES

1. Khursanov N.I. (2021) Linguo-cognitive Analysis of the Verbs of Behavior Expressing Human Personality (Behavior) (On The Basis of Uzbek and English Languages Materials) // Current Research Journal of Philological Sciences 2(5): 85-

90, May 2021 DOI: https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-05-19. ISSN 2767-3758.

2. Khursanov N.I. On the Theoretical and Practical Foundations of Language Corpora // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) DOI:10.5958/2278-4853.2021.00675.3. – pp. 311-318

3. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. 3-е изд. -М., 1983.-250 с.

4. Володарская А.И., Митина А.М. Проблема целей обучения в современной педагогике: учеб.-метод. пособие. -М., 1989. 112 с.

5. Ворошилова Т.В. Формирование профессиональных знаний и умений студентов вузов туристского профиля методами творческих проектов.: Автореф. дис. . канд. пед. наук. М., 2000. - 20 с.

BILINGUALISM AND INTERCULTURAL

COMMUNICATION
БИЛИНГВИЗМ И МЕЖКУЛЬТУРНОЕ ОБЩЕНИЕ

BILINGVIZM VA MADANIYATLARARO MULOQOT

TIL VA JAMIYAT ALOQALARIDA IKKI TILLILIK

Raupova Laylo Raximovna
A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
“Lingvodidaktika” kafedrasi
professori, filologiya fanlari doktori
Safarova Guzal Qudratovna
A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
“Lingvodidaktika” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: safarovaguzal@navoiy-uni.uz

Annotatsiya. Maqolada til va jamiyat aloqalarida kommunikatsiya jarayonida so‘zlovchining bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tishi, bir til va uning subkodlari, ikki tillilik, ko‘p tillilik hosisalari, ichki til (diglossiya) va adabiy til me’yorlari masalasi, adabiy til, sheva, lahjalar, argo, jargonlar aralashuvi, bilingvizmning kommunikativ vaziyatda qo‘llanish o‘rinlari haqida fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: kodlar aralashuvi, kod, subkod, sheva, lahja, argo, milliy til, bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish, so‘zlovchi rolining almashinuvi, muloqot mavzusi, diglossiya, bilingvizm, ikki tillilik, ko‘p tillilik, ichki til.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы перехода говорящего от одного кодового слова к другому в процессе коммуникации в языковых и общественных отношениях, вопрос о языке и его под кодах, двуязычии, многоязычии, о внутреннем языке (диглоссии) и нормах литературного языка, изложены соображения о смешении литературного языка, слогов, диалектов, Арго, жаргонов, о месте билингвизма в коммуникативной ситуации.

Ключевые слова: кодовое вмешательство, код, под код, диалект, Арго, национальный язык, переход от одного кодового подчинения к другому кодовому подчинению, смена роли говорящего, субъекта общения, диглоссия, билингвизм, двуязычие, многоязычие, внутренний язык.

Annotation. The article describes the transition of the speaker in the process of communication in the language and society relations from one code disposition to the second code disposition, views on the issue of one language and its subcodes, bilingualism, multilingualism, internal language (diglossia) and literary language norms, literary language, dialects, argot, jargon intervention, the place of bilingualism in the communicative situation.

Keywords: code intervention, code, subcode, dialect, dialect, argot, national language, transition from one code disposition to another code disposition, exchange of colloquial role, subject of communication, dictation, bilingualism, bilingualism, multilingualism, internal language.

Ma’lumki, kodlar o‘zgarishi (bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish) inglizcha “code-switching” (“переключение кодов”) atamasining tarjimasi bo‘lib, u XX asrning 70-yillarida ingliz tilshunosligida paydo bo‘lgan. [3. 9.]

Bunday nutq hodisalari ikki yoki undan ortiq til qo‘llaniladigan jamiyatlarda ko‘proq kuzatiladi. Ikki yoki undan ortiq tilda so‘zlashuvchilar (zullisonaynlar) odatda bu tillarni muloqot vaziyatiga ko‘ra qo‘llashadi, ya’ni rasmiy sharoitda idoralarda bilan bir tilda, kundalik hayotda, oilada, ko‘chada, bozorda va h.k. bilan ikkinchi tilda gaplashadilar. Mazkur holatda ham bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tiladi, faqat bu yerda birinchi misoldagidek kod tilning uslublari, subkodlari sifatida emas, balki turli tillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Kommunikatsiya almashinuvda so‘zlovchining muloqot vaziyatidan kelib chiqib, bir tildan (dialekt, lahja, uslubdan) boshqa bir til ko‘rinishiga o‘tishi kodlar o‘zgarishi, ya’ni bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish deyiladi.[1.336.]

Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tish deganda, so‘zlashuvchining bir tildan (yoki o‘sha til subkodlaridan) boshqa bir tilga to‘liq o‘tishi tushuniladi. Bir kod tasarrufidan ikkinchi kod tasarrufiga o‘tishning badiiy adabiyotdagi namunasi sifatida L.N.Tolstoyning “Urush va tinchlik” romanidagi rus zodagonlari nutqida rus tilining fransuz tiliga (yoki aksincha) almashtirilishini ko‘rsatish mumkin. Yoki taniqli yozuvchi Isoqjon Nishonovning “Afg'on shamoli” asarida sobiq rus zobitlarining iltimosiga ko‘ra Afg‘onistondagi urush paytida yashirilgan xazinani topish maqsadida borgan Bo‘ronning jangarilar qo‘liga tushib qolishini ham misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Jangarilar orasida qo‘liga qurol olib yerli aholini talayotgan, ayollar, qizlar nomusiga tajovuz qilayotgan, uylarni yoqib kulini ko‘kka sovurayotgan, umuman, bir inson boshqa insonni vahshiylarcha azoblayotgan o‘z vatandoshlarini ko‘radi. Ular orasida qishloqdoshlari, harbiyda birga xizmat qilgan do‘stlari, hatto ota-onadan yetim qolganda o‘z qaramog‘iga olgan Fathulloxon ham bor edi. Xuddi shu ondan boshlab Bo‘ron O‘zbekiston bilan aloqa bog‘lab, Vataniga xiyonat qilgan, odamlarning tinch hayotini parokanda qilishga urinayotgan jangarilarni fosh qila boshlaydi.

(Ichki til) diglossiyasi (yun. *di* – “ikki” va *gloss* “til”) deganda, bir milliy tilning turli subkodlarida gapira olish, sharoit va muloqot doirasiga bog‘liq holda, tilning bir subkodidan ikkinchi bir subkodiga ko‘chish, bir til doirasidagi turli uslublardan foydalana olish tushuniladi. [2. 325-340.]

Masalan, Xorazm shevasi aksariyat hollarda xorazmliklar orasida qo‘llaniladi. Xorazmliklar boshqa sheva vakillari bilan muomalada bo‘lganda yoki Toshkentda (yoki boshqa viloyatlarda) yashashganda adabiy tilda so‘zlashadilar.

Bundan tashqari, diglossiya termini turli tillarni bilish va ularni muloqot vaziyatiga ko‘ra galma-gal qo‘llay olishini ham anglatishi mumkin. Bunday hollarda “ichki til” aniqlovchisi chiqarib tashlanib, “diglossiya” terminining o‘zi qo‘llaniladi.

Aytayotgan har bir gapim hayotimni hal qilishi mumkin.

— Mayda tosh bo‘laklari har bir qabr tepasida bor...

— Lekin men toshlardan shartli belgi hosil qilganman.

Bu so‘zim bilan xatoga yo‘l qo‘yganimni birdan angladim.

— Qanday belgi qo‘ygansan?

— Oltmish besh raqamni.

G‘ofur birdan jim qoldi. So‘ng o‘rnidan turib, Odilovga yuzlandi.

— Оказиывается он прав, — dedi rus tilida.

— Что тогда будем делат?

— Надо уберат одного из них.

— Именно... [5. 104.]

“Diglossiya” termini ilmiy muomalaga amerikalik tadqiqotchi S. A. Fergyuson tomonidan 1959-yilda kiritilgan. Bungacha tilshunoslikda xalqaro “bilingvizm” va uning muqobili “ikki tillilik” (zullisonayn) terminlari qo‘llanilgan (hozir ham qo‘llanishda davom etmoqda). Uch va undan ortiq yoki ko‘p tillar mavjud bo‘lgan holatlarga nisbatan “ko‘p tillilik” (ingl. multilingualism, frans. plurilinguisme) terminidan foydalanish hodisasi ham kuzatiladi.

“Ikki tillilik” va “ko‘p tillilik” terminlarining nomlaridan ham ko‘rinib turibdiki, bu biron jamiyatda (odatda davlatda) ikki va undan ortiq tillarning faoliyat ko‘rsatishini bildiradi. Bugungi kunda dunyoning ko‘plab davlatlarida ikki yoki ko‘p tillilik hodisasi mavjud. Mazkur hodisalarni Rossiya (rus tili bilan birga, boshqird, tatar, yoqut, buryat, osetin va h.k. tillar qo‘llaniladi), Afrika mamlakatlari, Belgiya, Gana, Hindiston, Kanada, Paragvay (misollarni barcha mintaqalardan olinganini ko‘rish mumkin) davlatlarida kuzatish mumkin.

Ikki tillilik va ko‘p tillilik hodisasini bir nechta tillarni biladigan shaxslarga nisbatan ham ishlatish mumkin. Binobarin, ***bilingvizm*** **(ikki tillilik) deganda, ikki tilda bemalol fikrlasha olish, ikki tilni bir xilda egallaganlik tushuniladi.** [4.389.]

Ikki tillilik va ko‘p tillilikdan farqli o‘laroq, **diglossiya hodisasi ikkita mustaqil tilni yoki bir tilning boshqa-boshqa subkodlarini bilishni ifodalaydi**. Bu tillar va subkodlar vazifasiga ko‘ra taqsimlangan bo‘lib, ko‘p tilli jamiyatlarda rasmiy vaziyatlarda, jumladan, qonunchilik, ish yuritish, davlat tashkilotlari orasidagi yozishmalarda rasmiy til (yoki davlat tili)dan foydalaniladi; maishiy, kundalik hayot va oilaviy muloqot sharoitlarida esa rasmiy maqomga ega bo‘lmagan boshqa tillar va ularning subkodlaridan foydalaniladi.

So‘zlovchilarning ongli ravishda turli kommunikativ vositalardan birini tanlashi va uni muvaffaqiyatli muloqot uchun qo‘llay olishi diglossiyaning muhim sharti hisoblanadi. Masalan, muloqot vaziyatidan kelib chiqib, jinoyatchilarning turli kodli

so‘zlarni qo‘llab, faqat ulargina tushuna oladigan atamalardan foydalanishlari (argo, jargonlarni qo‘llash)

— Tashvishlanmang Ergashboy. Yaqin kunlarda sizga besh-olti kilogramm **toza dori** yuboraman. Bu **o‘ris do‘stingiz** bilan **aloqani tiklashingizga** yordam beradi.

— Ko‘nglimni tog‘dek ko‘tardingiz!

— Vadim Volfovich bilan kim **aloqaga chiqadi**?

— Ruslan ismli yigit. Ufada yashaydi. U G‘ofur orqali jo‘natgan **dorilarimizni o‘ris do‘stimizga yetkazadi.**

— Odamlaringiz ishonchlimi?

— Shunday, ular bizga vafodor.

— Demak, biz beradigan **dorilar o‘z egalarining qo‘liga yetib borishiga** ishonasiz?

— Tashvishlanishingizga o‘rin yo‘q,, Bashir og‘a!

— Ular **yuk**ni qayerda **qabul qilib oladi**?

— Qirg‘iziston bilan Afg‘oniston chegarasidagi «**Ajdar g‘or**»da.

Ergashboyning har bir gapi razvedka xodimining cho‘ntagidagi mitti magnitafonga yozilayotganidan laqma qo‘rboshi bexabar edi.

— O‘sha odamingizga biz ham ishonsak bo‘ladimi? — **qarmoq tashlashda** davom etdi Bashir.

— Qambarga ham, Hikmatga ham xuddi menga ishonganday ishonishingizni iltimos qilardim Bashir og‘a!

— Unda **sovg‘amizni** kuting!

Bashir o‘rnidan turdi. Xayrlashish oldidan bir gapni aytdi.

— G‘ofurni **o‘rtadan olib tashlang**. Odamlarim uning **qo‘li qinrirligini**, sizga **xiyonat qilayotganligini** aniqlashdi.

— Bugunoq **boshqa ishga o‘tkazaman!**

— Shoshilmang. Vaqti kelib **asqotib qolishi** mumkin!

— Tushundim og‘a!

— Darvoqe, yaqinda guruhning navbatdagi **kengashi o‘tkazildi.**

— Qayerda?

— Joyi noma’lum, bu haqda keyin **xabar qilamiz**. [5. 104.]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социолингвистика. – М., 1975. – С. 336.

2. Ferguson C.A. Diglossia // Word. –N. 15. 1959. – P 325-340.

3. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. – М., 2001. – С. 9.

4. Dittmar N. Soziolinguistik. Exemplarische und kritische Darstellung ihrer Theorie, Empiric und Anwendung. – Frankfurt: Main, 1973. – P. 389.

5. Isoqjon Nishonov. “Afg'on shamoli” 2-kitob.116-b

NEMIS TILIDA IDIOMALARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

Imyaminova Shuxratxon Salijanovna
O‘zMU professori
Karimova Ozoda Norbek qizi
O‘zMU, XFF, Lingvistika (nemis tili) 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nemis tilida idiomalarning lingvomadaniy xususiyati haqida so`z boradi. Shuningdek, nemis tilidagi lingvomadaniy idiomalar tahlil qilinib, ularning o`ziga xos semantik xususiyatlari ochib berilgan.*

Kalit so`zlar: *idioma, lingvomadaniy birlik, kompleks birlik, lingvokulturologiya, til, madaniyat, lingvokulturema*

Abstract: *This article discusses the linguocultural features of idioms in German. Also, the linguocultural idioms of the German language are analyzed and their specific semantic features are revealed.*

Keywords: *idiom, linguocultural unit, complex unit, lingvoculturology, language, culture, lingvokulturema*

Аннотация: *В этой статье обсуждаются лингвокультурные особенности идиом в немецком языке. Также анализируются лингвокультурные идиомы немецкого языка и раскрываются их специфические семантические особенности.*

Ключевые слова: *идиома, лингвокультурная единица, комплексная единица, лингвокультурология, язык, культура, лингвокультурема.*

KIRISH

Har bir tilning o’ziga xosligi va boy lingvistik imkoniyatlarini yaqqol ko’rsatib beradigan frazeologik birliklardan biri idiomalar hisoblanadi. Idiomalar yordamida fikr va tushunchalar to’g’ridan-to’g’ri emas, balki bir so’z birikmasi orqali chiroyliroq, lo’ndaroq qilib tushuntiriladi. Ularda ma’no kuchaytirilib beriladi. Idioma har bir tilda yillar davomida mavjud bo`lib, shakllanib, sayqal topib boradi [1]. Chunki idiomalar tillarda asliy turg`un birikmalar sifatida namoyon bo`ladi Bu frazeologik birlikka xos bo’lgan bir nechta xususiyatlar mavjud bo’lib, ularga *barqarorlik, obrazlilik, turg’unlik, yaxlitlik. takroriylik, lingvistik birlik, kontextlilik va leksik-semantik birlik* kabi belgi va sifatlar kiradi. Idiomalarning yana bir muhim xususiyati bu *lingvomadiy birlik* sifatida namoyon bo`lishidir. Bilamizki, til – madaniyatni o’rganishda yo’l ko’rsatuvchi vosita hisoblanadi. Bu ikki tushuncha bir-birini inkor qilmaydi, aksincha bir-birini to’ldiradi, shu bois ham til va madaniyat o’zaro aloqadordir.

Tilshunos olim A.M. Babkinning fikricha, madaniy o’ziga xoslik va umuminsoniylik o’rtasidagi frazeologizmlar frazeologiya tadqiqotlarida ikki nuqtai nazar o‘rinli bo‘ladi. Frazeologizmlar milliy va madaniyatga xos bo'lgan "idiomalarda" har bir xalqning ruhi va o’ziga xosligi namoyon bo’ladi [2]. Bu qarashning tarixiy asosini millatning til va madaniyatga o’xshashligi haqidagi milliy g’oyani tashkil etadi. Iboralar va ayniqsa idiomalarning madaniy o’ziga xosligi semiotik holati bilan bog’liq va shuning uchun madaniy hodisalar bilan yanada chambarchas bog’langan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shu o'rinda, idiomalarning lingvomadaniy birlik deb qaralishiga sabablarni tahlil qilishdan oldin zamonaviy tilshunoslikning maxsus sohalaridan bo'lgan linvokulturologiyaga to'xtatib o'tish kerak

Lingvokulturologiya o'tgan asrning oxirgi choragida, tilshunosdagi antropologik paradigma mahsuli sifatida paydo bo'lib, unga birinchilardan V. Fon Gumboldt asos solgan va u til xarakteri va xalq xarakterini bir-biriga bog'liqligini ifodalab bergan. V. Fon Gumboldtning fikricha, "Turli tillar o'z mohiyatiga, ong va sezgi ta'siriga ko'ra ham dunyoni turlicha his etishdir" va "tilning o'ziga xosligi" millatning mohiyatiga ta'sir etadi. Shu sababli ham tilni sinchiklab o'rganish uchun tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog'laydigan hamma narsani o'z ichiga olish kerak", degan fikrni bildiradi [3]. V. Gumboldtning til va madaniyatning o'zaro ta'siri haqidagi g'oyalari turli tadqiqotchilarning asarlarida yanada rivojlantirildi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi [4]. Bunday til birliklari *lingvomadaniy birliklar* termini ostida birlashadi.

Lingvokulturologiyaning predmeti - madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi. Bunda muayyan lingvokulturologik birlik bir paytning o'zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo'lishi mumkin. Ma'lum bir odat frazeologizmga, maqolga, matalga aylanishi mumkin.

E.I.Zinovyeva va E.E.Yurkovlar esa hozirgi vaqtda quyidagi birliklarni ajratib ko'rsatadilar: logo-epistema, lingvokulturema, konseptsiya, lingvomadaniy tushuncha, lingvosapnentemalar hisoblanadi [5]

Lingvokulturologiya maxsus fan sohasi sifatida zamonaviy tilshunoslikda ba'zi tushunchalarni keltirib chiqardi: lingvokulturema, madaniyat tili, madaniy matn, madaniyat konsepti, submadaniyat, lingvomadaniy paradigma, madaniy universaliya, madaniy salohiyat, madaniy meros, madaniy an'analar, madaniy jarayon, madaniy ko'rsatmalar va h.k.

Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot birligi sifatida lingvokulturema ko`rish mumkin. Avval tilni va madaniyatni o'rganishda lingvoo'lkashunoslik jihatdan yondashuv doirasida kulturema tushunchasi paydo bo'lgan. V.G.Gak madaniyatni ma'lum belgilar, ya'ni kulturemalar majmui deb hisoblaydi. "Tilga oid ifodaga ega bo'lgan kulturemalar ba'zi bir realiyalarni — predmetlarni, vaziyatni, vazifani, urf-odatni, fe'l-atvor faktini va hokazolarni ifodalash va belgilash uchun borliqning ma'lum dementi bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar [6]. Bu qarashlar natijasi o'laroq, lingvokulturema tushunchasini vujudga kelishiga zamin bo'ldi.

Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchasi lingvokulturema hisoblanib, bu atama ilmiy muomalaga V.V. Vorobev tomonidan kiritilgan. U atamaga quyidagi ta'rifni beradi: "Lingvokulturema bosqichlararo kompleks birlik sifatida lingvistik va

ekstralingvistik tushunchaga oid yoki predmetga oid mazmunlarning dialektik birligidan iborat"[7]. Demak, tilshunoslikda lingvokulturema tushunchasi til sathi birligi deb qaralib, unda lingvistik va ekstralingvistik dialektik yaxlitlik aks etgan bo`lib, bu yaxlitlik o'zichiga tushunchaga oid yoki predmetga oid mazmunni oladi.

Yuqorigi fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, lingvokulturema tarkibida madaniy-tushunchaga oid komponent so'zning tildan tashqari mazmunini va keyingi ya'ni tushunchaga oid, predmetga oid ma'nosi sifatida ishtirok etadi.

Demak, lingvokulteramalar deb madaniyatning ma`lum bir xususiyatini o'zida namoyon qiluvchi til birliklari hisoblangan so'zlar, so'z birikmalari, gaplar, frazeologik birliklar, paremiyalar va hatto matnlarni ham kiritishimiz mumkin. Albatta, til birliklari orqali tili o'rganilayotgan mamlakatning madaniyati, aholisining dunyoqarashi, hayot tarzi, urf-odatlari haqida bilish, tanishish mumkin. Ayniqsa, frazeologik birliklar orqali xalq madaniyatiga, mentalitetiga singib ketgan urf-odatlarni, xalqning o'y-fikrlari-yu, olam manzarasini qay tarzda mushohada qilishini ko'rish mumkin.

Frazeologik birlik bo'lgan idiomalar ham lingvomadaniy birlik sifatida madaniy fon va madaniy konnotatsiya kabi tushunchalarni o`zida mujassamlashtirganligini ko`rish mumkin. Agar madaniy fonni, u – ijtimoiy hayot va tarixiy hodisalarni ifodalaydigan nominativ birliklarning (so'zlar, frazeologizm va idiomalarning) tavsifi hisoblanadi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, butun dunyo xalqlari ichida buyuk tili va madaniyatiga ega bo`lgan xalqlardan biri – nemis xalqidir. Nemis xalqi qadim o'tmishdan bugungi kungacha o'zining boy tarixi, milliy urf-odatlariga ega bo'lib, zamonlar osha o`z madaniyatida saqlab kelib avloddan-avlodga meros qilib qoldirib kelmoqda. Unda xalqning qadimdan qon-qoniga singib ketgan urf-odatlari, u yashayotgan tabiiy geografik, ijtimoiy muhit, xalq malakasi, qobiliyati, etnik xususiyati hamda belgilari o'z ifodasini topgan. Frazeologik birliklar orqali ham nemis xalqi boy madaniyatini ko'rish mumkin.

Masalan: *"Der Sandmann (oder das Sandmännchen) kommt"* - der Schlaf kommt (zu kleinen Kindern gesagt) [8,S.402] iborasi, "Sandman" tushunchasi nemis xalqida afsonaviy timsol hisoblanib, u bolalarni uxlashga chorlaydigan va uyqudan oldin bolalarga ertak aytib beradigan qahramon tushuniladi. "Sandmann" tushunchasi paydo bo'lishida bir necha ehtimollar mavjud. Ehtimol, charchagan insonning ko`zini qum kirgandek ishqalashi yoki qadimgi yunon xudosi Gipnos, uyqu xudosi "Sandmann-qum odam" timsoliga namuna sifatida olingan bo'lishi mumkin deb qaraladi[9,1280]. Bu figura butun nemis xalqiga, ayniqsa bolajonlarga juda tanish va sevimli bo'lgan milliy qahramon. U bolalar telekanalida bolalar uxlashidan oldin har kuni turli ertaklar bilan paydo bo`ladi. Demak, Sandmann nemis bolalarining mashhur va sevimli qahramonidir.

Yana *"der Schelm im Nacken"* oder *"der Schalk im Nacken"* (Spaßvogel oder Er ist zu Späßen aufgelegt) [8, S.410] iborasi orqali nemis millatining hazil-mutoyiba boy kishi obrazini ko`rish mumkin. "Der Schalk" va der Schelm" so`zlari – shum, aldoqchi, mug'ombir degan ma`nolarni anglatib, bu so'zlar o'tgan asrlarda paydo bo`lgan. Dastlab bu so'z haqoratli so'z hisoblangan bo'lib, keyinchalik XVIII asr boshlarida

aksincha, lutf, xushomad so`ziga aylandi [8,S. 1317]. Hozirgi kunda bu so`zlar ifodalangan iboralar nemis xalqida o`zining g'ayrioddiy va ba'zida bema'ni hazillari bilan insonlarni kuldiradigan obraz sifatida qo'llaniladi.

Demak, shuni alohida ta'kidlash joizki, nemis xalqida ham boshqa millatlarda bo'lgani kabi o'zining avlodan-avlodga o'tib kelayotgan sevimli qahramonlari mavjud.

Ma'lumkiki, til odamlarning olam haqidagi bilimlarini shakllantiruvchi va saqlab keluvchi muhim quroldir. Inson o'z faoliyati jarayonida ob'yektiv borliqni aks ettirgan holda, so'zlar orqali bilish natijalarini qayd etadi. Bunday lisoniy shaklda mustahkamlangan bilimlar yig'indisi turli terminlar bilan, ya'ni "oraliqdagi lisoniy dunyo" (V.I. Abayev), "olamning qayta lisoniy aks etishi" (T.M. Dridze), "olamning lisoniy modeli" (V. Gumboldt), "olamning lisoniy manzarasi" (B.A. Serebrennikov) kabi tarzda ataladi [10].

"Olamning lisoniy manzarasi" atamasi keng tushuncha bo'lib, u voqelikda ma'lum bir kishilar jamoasining noyob ijtimoiy-tarixiy tajribasi qayd qilingan milliy tilning o`ziga xos xususiyatlaridir. U dunyoni til vositalari yordamida hosil qilingan tasvirlarini aks ettirishini bildiradi. Aynan shu narsa atrof borliqdagi predmetlar va hodisalar haqida aniq tasavvurlar hosil qiladi. Natijada olamning lisoniy manzarasi bu atrof borliqdagi predmet va hodisalarning til vositalari yordamida qayta ifodalanishini bildiradi. Lisoniy olam manzarasi insonning olamga (tabiat, hayvonlar, dunyo unsuri sifatidagi o'ziga) nisbatan turli munosabatlarni shakllantiradi. Aynan u odamning olamdagi xatti-harakatlari, xulq-atvori me'yorlarini, olam bilan o'zaro munosabatlarini belgilaydi. Shu fikrlardan kelib chiqib, nemis tilida hayvon nomlari bilan bog`liq idiomalar orqali ham lingvomadaniy xususiyatlarni kuzatish mumkin.

Masalan: *"Schwein haben"* (Glück haben) [8, S.434] iborasi "omadi chopgan, omadi kelgan, baxt kulib boqmoq" [11, 126] degan ma'nolarni anglatadi. Lekin bu so'z turli xalqlarda turlicha xususiyatlarda ifodalanadi. "Cho'chqa" jonzoti ko`p asrlardan buyon kishilik jamiyatida insonlarga hamroh bo'lib kelgan va ularning madaniyatini shakllantirishda muhim ro'l o'ynagan. U nemis xalqida asosan baxt va farovonlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, cho'chqa bilan bog`liq barcha idiomalar ham omad, muvaffaqiyatni anglatmaydi. Masalan: *„das kann kein Schwein lesen"* (das ist so miserabel geschrieben, dass man es nicht lesen kann) oder *"da wird kein Schwein draus klug"* (das versteht kein Mensch) [8, S.435] iboralarida „das Schwein"- cho'chqa so'zi savodsizlik ramzi ham hisoblanadi. Yoki *„(bei j-m) zeigt s. der innere Schweinehund"* (bei j-m kommt der schlechte Charakter (die Feigheit, die Gemeinheit usw.) zum Vorschein) [8, S.435] – „yomon fe'l-atvori yuzaga chiqarmoq" iborasida esa salbiy obraz gavdalanadi.

Ranglar ham bizning hayotimizda muhim rol o'ynaydi. Ular bizga joyni, yil faslini yoki sevimli urf-odatlarimizni eslatishi va his-tuyg'ularimizga ta'sir qilishi mumkin. Ammo butun dunyodagi madaniyatlarda qanday turli xil ranglar ramziy ma'noga ega ekanligi ko`rishimiz mumkin. Vaqt o'tishi bilan ranglar turli madaniyatlarning tarixi, his-tuyg'ulari va e'tiqodlarini qanday shakllanganini ko`rsatib beradi.

Masalan rangni ifodaluvchi *"blau"-ko`k* so`zini oladigan bo`lsak, u osmon va dengiz rangi, cheksiz masofa, kenglik va poklik ramzi sifatida qaraladi. Nemis xalqida bu rang qanday ramzlarni bildirishini idiomalar orqali tahlil qilish mumkin.

Masalan: *“den blauen Brief erhalten”* (1. die Kündigung erhalten. 2.einen Mahnbrief der Schule bekommen) [8, S.56] iborasi “1. ishdan bo’shatilganligi haqidagi xat, qog’oz. 2. Shikoyat xat (maktabdan ota-onasiga bolasining o`zlashtirmagani haqida xat, arznoma)” [11, 15] degan ma`nolarni anglatadi. Bu iboraning kelib chiqishi XIX asrlarga borib taqaladi. Bu asrlarda o‘z ishini to‘xtatishi kerak bo‘lgan ofitserlar Prussiya vazirlar mahkamasidan ko‘k konvertlarga solingan xatlarni olishgan. Ofitserlar ko'k maktubdan keyin o`z mansablari bilan xayrlashishlari kerak bo`lgan. Bu ibora hozirgacha keng qo`llanilib, ishdan bo`shatilgan xodimlarga taqdim etiladigan xat hisoblanadi. Bundan tashqari, bu ibora maktabdan ota-onasiga bolasining fanlarni o`zlashtirmaganligi to`g`risidagi xat hisoblanib, bu ota-onalarga farzandlarining o'quv yilini takrorlashi kerakligi haqida xabar beradi. Yoki *“blauer Montag”* (ein Montag, den man s.unberichtigterweise von der Arbeit freigemacht hat) va *“blau machen”* (nicht zur Arbeit gehen) [8, S.55] iboralari “sababsiz ishga chiqmaslik” [11, 16] degan ma’noni bildiradi. O'rta asrlarda turli kasb egalari dushanba kunlari dam olish va hech qanday ish qilmaslik huquqi uchun kurashadilar. Chunki ko'pchilik, yakshanba kuni ishlashga majbur bo'lgan yoki faqat kam ish haqi olgan. Biroq, ishni to'xtatish mutlaqo bo`lmagan. XX asrning boshlariga qadar bu harakat uchun bir necha bor jinoiy javobgarlik joriy etilgan [12]. Dastlab, ish bo'lmagan dushanba yaxshi yoki bepul dushanba deb atalar edi. Keyinchalik ko'k rang aralashdi va odamlar dushanba kuni "ko'k" haqida gapira boshlashadi. Yilning to'rtta maxsus dushanbasida hunarmandlarg ishlamaslikka aniq ruxsat berilgan. Ushbu dushanba kunlari hunarmandlar ustaxonalari marhumlarning ruhiga xizmat qilishadi. Ruhoniylar esa ko'k libos kiyishgan. Chunki ko'k-binafsha ranglar cherkovda motam va tavba ranglari hisoblangan. Olimlar "ishlamaslik" hunarmandlar orasida ko'k rang bilan bog'liqligi haqidagi tushuntirishni juda aniq deb hisoblashadi. XIX asrda dushanba kuni ishlashni to'xtatgan hunarmandlar va fabrika ishchilari endi "ko'k dushanba" haqida gapirishmagan, balki oddiygina “ich mache heute blau” yoki “ich mache einfach blauen Montag” deb aytganlar. Shu sababdan bora-bora bu frazeologizmga aylangan [13].

Rang ifodalovchi “blau” ko`k so`zi bilan bog`liq boshqa iboralarni ham ko`rib chiqadigan bo`lsak, *“blau sein”* yoki *“ blau sein wie ein Veilchen”* [8, S.55] iboralari “(sehr) betrunken sein” ya`ni “ mast bo`lib qolgan, ko`p ichgan” degan ma`nolarni anglatadi. Bu iborada ichuvchining qizil burni nazarda tutiladi. Kuchaytirilgan shaklda "binafsha kabi ko'k bo'lish" kabi o`xshatilmoqda, bu yerda "ko'k" ning to'g'ridan-to'g'ri va majoziy ma'nolarini anglatyapti. Yuqoridagi idiomalardan ko`rinib turibdiki, nemis xalqi madaniyatida “blau” ko`k so`zi bilan bog`liq iboralar ko`p hollarda salbiy xislatlarni bildirar ekan.

Yuqoridagi fikrlar shuni ko`rsatadiki, madaniyatning bir bo`lagini aks ettiruvchi birlik sifatida lingvomadaniy idiomalar nemis xalqning urf-odatlarini, an`analari, tarixi, madaniyati vaturmush tarzni o`zida mujassam etadi.

XULOSA

Xulosa o`rnida aytish mumkinki, frazeologik birliklar bo`lgan idiomalar nafaqat o`sha til imkoniyatlarini, balki shu tilda so`zlashuvchi xalqning urf-odatlarini, an`analari, tarixi va hayot tarzini o`zida namoyon etadigan til birligi hisoblanadi. Nemis tili frazeologik birlik bo`lgan idiomalarda nemis xalqining milliy qadriyatlariga

singib ketgan o`y-fikrlari, olamni lisoniy manzarasini qay tarzda qabul qilishi o`z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Имяминова Ш.С. Немис тили фразеологияси.Тошкент, “Мумтоз сўз”, 2011.
2. Бабкин А.М. Идиоматика (фразеология) в языке и словаре/ А. М.Бабкин//Современная русская лексикография. – Л.: Наука, 1979. – С.4
3. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – М. : 1985. с 370.
4. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 9-10.
5. Зиновьева Е. И., Юрков Е. Е., Лингвокультурология, учебник. – СПб.: Изд–во «Осипов», 2006. – 260 с.
6. Гак В.Г. Языковые преобразования. — М.: 1998
7. Воробьев В.В. Лингвокультурология (Теория и методы). — М.: 1997. 35 с.
8. Wolf Friederich. Moderne deutsche Idiomatik. 2., neuberarbeitete Aufl. München, Max Hueber Verlag, 1976.
9. Röhrich L. Lexikon der sprchwörtlichen Redensarten. Freiburg, Herder Verlag, 2001.
10. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. Toshkent, “Noshir”, 2019. 65-bet.
11. Умархўжаев М., Назаров К. Немисча-русча-ўзбекча фразеалогик луғат. -Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
12. https://www.redensarten-index.de
13. https://kinder.wdr.de/tv/wissen-macht-ah/bibliothek/kuriosah/blaumachen-100.html

MADANIYATLARARO MULOQOT VA IMO-ISHORALAR LUG‘ATI

Saidxonov Ma’murjon Muhammedovich
Andijon davlat universiteti dotsenti
Saidxonov54@mail.ru

Annotatsiya. Aloqa-aralashuv jarayonida verbal va noverbal vositalarning ishlatilishi muloqotning tabiiy ko‘rinishi sanaladi. Shuning uchun kishilar o‘rtasidagi fikr almashuvda ishlatiladigan ishoralarning lug‘atini tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Kommunikant, adresant, adresat, verbal, noverbal, kommunikativ akt, paralingvizm, etiket.

Аннотация. Использование вербальных и невербальных средств в процессе коммуникации считается естественным видом общения. Поэтому является целесообразным подготовка словаря жестов, используемых при обмене мнениями между людми.

Ключевые слова: коммуникант, адресант, адресат, вербальный, невербальный, коммуникативный акт, паралингвизм, этикет.

Annotation. The use of communication of the means of verbal and nonverbals in the prosses of relation intervention is considered natural appearance. That is why it is considered to the aim of preparing the dictionary of mimics which is used in the opinion exchange among people.

Key words: communicator, addresser, addresee, verbal, nonverbal, communicative act, pairlinguinism, ethics.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi, diplomatik, iqtisodiy va turistik muloqotlar chog‘ida madaniyatlararo farqlarning yuzaga kelishi bois, turli madaniyatlarning nutq etiketini qiyosiy o‘rganish, muloqotning shakllanishidagi “madaniy to‘siq”ni olib tashlash, har xil xalq va millatlarning muloqot xulqidagi o‘ziga xos jihatlarni aniqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu bilan birga, turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi aloqa-aralashuvning yuzaga chiqishida etiket shakllarining tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan imo-ishoralardan foydalanish, milliy koloritni ifoda etuvchi supersegment vositalar, kommunikatsiyada sukut va uning kommunikativ ma’nolarini o‘rganish e’tiborga loyiq. Zero, bularning barchasi olamni o‘zbekona idrok qilish, milliy muloqotni tashkillashtirish, o‘zbek adab qoidalarini (etiket shaklini) qo‘llash orqali namoyon bo‘ladi.

Kishilar o‘rtasidagi aloqa-aralashuvning ro‘yobga chiqishida nutqiy vosita bilan birga nonutqiy jihatning ham tadqiq etilishi keyingi yillar tilshunosligining dolzarb o‘rganuv obyektiga aylanib ulgurdi. Funksional-pragmatik nuqtayi nazar ustuvor tekshirish usuliga aylanib borgan sari fikr ifodalashda kommunikativ aktni to‘laligicha o‘rganishga e’tiborning kuchayishi sababli paralingvistik vositalarni tadqiq etishga e’tibor kuchayib bormoqda. Zero, adresatga uzatilayotgan axborotning 8 foizigina lisoniy vosita orqali, qolgan 92 foizi nolisoniy vositalar yordamida uzatilar ekan, paralingvizmlar tadqiqi o‘z-o‘zidan dolzarb ekani e’tirof etiladi.

Aloqa-aralashuvda qatnashuvchilar ma’lum tilni to‘la bilgan bo‘lsalar-da, milliy madaniyatlaridan, urf-odatlaridan, milliy shakllangan holatlardan bexabar bo‘lsalar, ular bir-birlarini tushunib yetolmaydilar. Suhbatdoshlar “madaniy to‘siq”qa duch keladilar [2, 80]. Ushbu fikrni e’tirof etgan holda A.Nurmonov: “Imo-ishoralr fikr ifodalashda nutq uchun yordamchi vosita bo‘lish bilan birga, o‘zbek xalqining o‘ziga xos mentalitetini ko‘rsatuvchi yorqin dalil hisoblanadi”, – deb yozadi [5, 212].

Muloqot jarayonida hali nutqiy aloqa-aralashuv boshlanmasidan, kommunikantlar uchrashganlaridayoq nonutqiy (noverbal) axborotni “o‘qiy boshlaydilar”. Suhbatlashuv joyiga kommunikantlardan birining kech kelishi uning prinsipsizligi (yoki vaqtini taqsimlay olmasligi, bee’tiborligi, suhbatdoshni hurmat qilmasligi, ishi ko‘p ekanligi...) haqida xabar bersa, yana sekin yurib kelishi loqaydligidan, mas’uliyatsizligidan dalolatdir. Shuningdek, uning bo‘yi-basti, kiyinishi, mimika va ishoralari, nigohlari va boshqa jihatlari ham suhbatdoshga u haqda ma’lumot uzatadi. Suhbat jarayonida esa ovoz sifati, gapirish manerasi, pozasi, yuz va ko‘zlardagi mimik jihatlar, qo‘l, bosh, gavda harakatlari aloqa-aralashuv akti tarkibida ahamiyat kasb etadi. Birgina ko‘rishuv jarayoni turlicha amalga oshiriladi va har biri o‘ziga xos ma’no ifodalab keladi: qo‘l berib ko‘rishish (qo‘l uchini berish, qo‘lni urishtirmoq, qo‘sh

qo‘llab, qo‘lni qisib ko‘rishish, uzoq vaqt qo‘l olishmoq...), ko‘rishishda yuzdagi mimika va gavda harakati (tabassum, nimtabassum, jiddiy qiyofada, kulib, xo‘mrayib, darg‘azab bo‘lib va b.), bosh qimirlatib salomlashuv, quchoq ochib ko‘rishish va b. Demak, suhbatdoshlar o‘zaro nutqiy fikr almashmaslaridan kommunikantlar aloqa-aralashuvga kirishadilar.

Kommunikantlarning kayfiyati nutqiy suhbatning borishiga bevosita ta’sir etadi. (Kayfiyati yomonligi uchun muayyan fikrni aytmasligi yoki aksincha holat yuz berishi mumkin). Italiyalik psixolingvist Mauro Kotsolino “Kommunikativ tahlil nafaqat kommunikativ aktni, balki suhbatdoshlarning munosabatlari va o‘zaro aloqadorliklarini ham e’tiborga olishi kerak”ligini ta’kidlaydi [3, 21].

Kishilik jamiyatida shaxsning etiketi, muloqotga kirishishi, muomala madaniyati an’ana va qadriyat sifatida tarkib topar ekan, demak, kommunikativ aktning yuzaga chiqishida ham o‘zaro farqli jihatlar bo‘lishi tabiiy sanaladi. O‘zbek, rus, hind millatiga mansub kishilarning ko‘rishuvidagi o‘zgachaliklar, o‘zaro qarashlaridagi farqli jihatlar, gapirish pozasi va boshqa holatlar har bir xalq (elat, millat) noverbal tilini alohida tadqiq etishni taqozo etadi.

Ruslar etiketiga ko‘ra suhbatdoshlar muloqotga kirishganlarida ko‘zlariga qarab turishi aytilayotgan fikrni e’tibor bilan eshitayotganini bildiradi. O‘zbeklarda esa muloqot etikasida yuzga qarash, so‘zlovchiga tikilib turish anormal etiket hisoblanadi. Yaponlarda esa hurmatsizlik, darg‘azablikni ifodalaydi. O‘zbek ayollari erkaklar bilan muloqotga kirishganlarida (hatto eri bilan ham) ko‘ziga qaramaslik, yerga qarab turish, fikrni ba’zan bosh bilan, ba’zan ovoz bilan tasdiqlash xarakterli jihat sanaladi. Shuningdek, ma’lum ishoraning turli xalqlarda turlicha ma’no ifodalashini ham kuzatish mumkin: bosh barmoqni yuqoriga qaratib, boshqa barmoqlarni bukish o‘zbeklarda “yaxshi”, “zo‘r”, “a’lo” kabi ma’nolarni bildirsa, Yevropa xalqlarida ushbu ishora mashina to‘xtatish maqsadida qo‘llaniladi. Mo‘g‘ullarda va Afrika xalqlarida esa o‘tirmoq va so‘kish ma’nolarida keladi. Shularni e’tiborga olgan holda A.Abduazizov: “Paralingvistika uchun nimani aytish emas, balki qanday aytish ahamiyatlidir”, – deb aytib o‘tadi [1, 158].

O‘zbeklardagi “duo qilmoq” (yuziga fotiha tortmoq) harakati kommunikatsiyada ishora ma’nosida ham ishlatib kelinadi va ishoradan anglashilgan ma’no uning o‘z ma’nosidan o‘sib chiqishi asosida hosil bo‘lgan. “Duo qilish”ning denotativ ma’nosi Qur’on oyatlari o‘qilgach, qo‘l orqali amalga oshiriladigan harakat sanaladi. “Duo qilish”ning ommalashgan shakli marhum sha’niga o‘qilgan Qur’on oyatlaridan keyin amalga oshirilgani sababli unda “o‘lmoq”, “umri tugamoq”, “yo‘q bo‘lmoq” semalari mavjud bo‘lib, ushbu sema “duo qilmoq” leksemasining ko‘chma ma’noda kelishiga asos bo‘ladi.

Chol uyga kira solib kampiridan “ovqat bormi” deb so‘ragan edi, kampir yuziga fotiha tortdi. (ovqat yo‘q, tugadi, qolmadi.)

Ushbu ishora milliy xarakter kasb etib, boshqa xalqlar uchun tushunarsiz harakat sanaladi. Bu esa imo-ishoralarning izohli, tarjima lug‘atlarini yaratish zarur ekanidan dalolatdir. “Imo-ishoralar – tarjimasiz til” deyilsa-da, ushbu kommunikativ birliklarning izohli va ikki tilli (ko‘p tilli) lug‘atlarini yaratish maqsadga muvofiq.

Imo-ishoralar nutqiy aloqa-aralashuv jarayonining atributi bo‘lib, ular lisoniy vositani almashtirishi, unga yordam berishi, ta’kidlashi yoki kuzatib borishi mumkin. Ishoralarning ma’nolari kommunikativ kontekstda va holatda reallashadi. Shularni e’tiborga olgan holda o‘zbeklar muloqotida ishlatiladigan imo-ishoralar lug‘atini tuzish dolzarb masalalardan sanaladi. Ushbu lug‘at izohli va tarjima ko‘rinishida bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Imo-ishoralar izohli lug‘atida ishora so‘zlik sifatida olinib, quyidagi tartibda beriladi:

Qo‘lini bigiz qilmoq

1) ishoraning fizik-fiziologik ifodasi yoziladi, ya’ni ishora kishining qaysi organining qay holdagi harakati natijasida hosil bo‘lishi tasvirlanadi. Masalan: *o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘i suhbatdoshga qaratilib, boshqa barmoqlar yopiq holda bir necha bor silkitiladi.*

2) ishoraning tasviri rasm sifatida ko‘rsatiladi;

3) so‘zning (birikmaning) ishoraviy ma’nosining izohi beriladi: *Norozilik, bahslashish, o‘z fikrini asoslash, urishish, haqoratlash.*

Ishoraviy ma’no asosiy ma’nodan o‘sib chiqqan ma’no sanalib, bu o‘rinda qo‘l (barmoq)ning adresatga tomon silkitilishi uni *mensimaslik, o‘dag‘aylash* kabi semalar asosida hosil bo‘lgan. Albatta, ushbu harakat muayyan kontekst va holatda kommunikativ akt doirasida ishoraviy ma’no ifodalaydi. Boshqa holda barmoqni bigiz qilish biror narsani (tomonni) ko‘rsatishni bildirib kelishi mumkin. Masalan: *Yomg‘ir, bu - go‘zallik ! – Ko‘zoynak* **barmog‘ini bigiz qilib** *shiftni ko‘rsatdi. (Yu.Latipov.)* Bu holda ushbu birikma ishora fe’li sanalmaydi;

4) badiiy asar yoki so‘zlashuvdan misollar keltiriladi:

Oxunjon aka bilan Xolmirza yarim soat deganda qaytib kelishdi. Oxunjon aka ***qo‘lini bigiz qilib*** *Normatga o‘dag‘ayladi:*

- Atay qilgansan sen, yugurtirmoqchi bo‘lgansan meni! (M.Karim.)

- Ayb o‘zingizda! –dedi ***qo‘lini bigiz qilib****, odamlar bilan aymaqi bo‘lib, kattalarni betkachopar, beandisha, yoshlarni shapshaq qilib qo‘ydingiz. (A.Q.)*

Borliqdagi har qanday holat – u real yoki virtual (faqat ongda) bo‘lishidan qat’i nazar muayyan tushuncha ifodalaydi yoki sezgimizga ta’sir etadi. Bu holat til tizimida ma’lum til birligi (so‘z, so‘z birikmasi...) orqali ifodalanib muayyan nomga ega bo‘ladi. A.Nurmonov: “Konkret nutq vaziyatida ma’lum bir ma’no ifodalovchi imo-ishoralar shu nutq vaziyatini qayta hikoya qilib berish jarayonida ma’lum lingvistik birliklar yordamida ifoda etiladi. Bu fe’llar semantik tomondan **ishora fe’llari** deb yuritiladi”, - deb yozadi [5, 221]. O‘zbek tilida ishora fe’llari nomi ostida tadqiq etilayotgan birliklar fe’l semantik tizimida alohida o‘rinni egallaydi. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ishora fe’llari fe’llarning ma’no guruhlari ichida alohida guruh sifatida berilgan bo‘lib, **imo qildi, labini burdi, o‘zini qisdi** kabi fe’llar misolida keltirilgan [6, 248].

Ishora fe’llari va ishoraviy birikmalar ikkilamchi nomlash xususiyatiga ega bo‘lib, asosan, **kishi organi + uning harakati** ko‘rinishida bo‘ladi.

Imo-ishoralar lug‘ati lingvoo‘lkashunoslik va lingvomadaniy yo‘nalishdagi bir tilli izohli lug‘atlar sirasiga kirib, u muayyan hudud bilan bog‘liq bo‘lishidan tashqari milliy mental xususiyatga ega: urf-odat, an’ana va udumlar bilan aloqador bo‘ladi.

Ushbu xarakterdagi lug‘atda ishoralarning kommunikativ va lingvistik jihatlari ifodalanadi va izohlanadiki, bu aloqa-aralashuv yuzaga chiqishi lisoniy va nolisoniy vositalarning dialektik birligidan iborat ekanini bildiradi, ekstra- va intralingvistik vositalarni birlashtiradi [4: 65].

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдуазизов А.А. О статусе паралингвистических средств и о критерияхих установления // сб. научн. трудов ТашГУ. 1973. № 543.

2.Верещагин В.Н., Костомаров В.Г. Язык и култура. М.: Русский язик. 1971.

3.Коцолино М. Невербалная коммуникация. Харков: Гуманитарный сентр. 2009.

4.Накашидзе Н.В. Вербалная интерпретация паралингвистических средств в тексте // сб. научн. трудов МГПИИЯ. М., 1980, вып. 141.

5.Нурмонов А.Танланган асарлар. 1-жилд. Тошкент: Академнашр. 2012.

6.Нурмонов А., Собиров А., Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили.- Т.: Шарқ, 2002.

BADIIY TARJIMADA EVFEMIZM VA DIZFEMIZMNING ALMASHINUVI MUAMMOLARI

Kadirova Xurshida
ToshDO‘TAU, Amaliy filologiya fakulteti,
Amaliy filologiya kafedrasi dosenti v.b.,
filologiya fanlari nomzodi

Annotasiya. Evfemizm va disfemizmning o‘ziga xosligi, ularning ijtimoiy madaniy va axloqiy qadriyatlarni, dunyoqarash va tafakkur xususiyatlarini nafaqat alohida shaxslarning nutqida, balki umuman zamonaviy muayyan jamiyat nutqi portretida ko‘rinish xususiyatiga ega. Badiiy asarda qo‘llanilgan evfemizmlar va disfemizmlarni o‘girishda tarjimonning manba tilidagi jamiyatda qabul qilingan ba’zi hodisalarni to‘g‘ri baholashga, ular uchun nima yaxshi, maqbul va nima noo‘rin, axloqiy meyor bo‘lmasligini aniqlashga qaratilgan diqqat etibori katta ahamiyatga ega. Madaniy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq iks-femalarning tutqich bermasligi sababidan bu o‘zgarishlarni mantazam ravishda o‘rganish zarurati kelib chiqadi. Bunda qo‘yilgan masalaning o‘rganish ob’yekti sifatida adabiyot, xususan, badiiy tarjima maydonga chiqadi.

Kalit so‘zlar. Evfemizm, disfemizm, lison, tarjima, konnotativ modallik, Abdulla Qodiriy.

Аннотация. Специфика эвфемизмов и дисфемизмов состоит в том, что их социокультурные и нравственные ценности, мировоззренческие и мыслительные особенности отражаются не только в речи отдельных лиц, но и в речевом портрете конкретного современного общества в целом. При переводе

эвфемизмов и дисфемизмов, используемых в художественном произведении, переводчик уделяет большое внимание правильной оценке тех или иных явлений, принятых в обществе исходного языка, определению того, что является для них хорошей, приемлемой, а что неуместной этической нормой. важный. Отсутствие основы для культурных и социальных изменений делает необходимым изучение этих изменений на регулярной основе. Литература, особенно художественный перевод, является объектом изучения.

Ключевые слова. Эвфемизм, дисфемизм, язык, перевод, коннотативная модальность, Абдулла Кадири.

Abstract. The specificity of euphemisms and dysphemisms is that their socio-cultural and moral values, worldviews and thinking characteristics are reflected not only in the speech of individuals, but also in the speech portrait of a particular modern society as a whole. In translating the euphemisms and dysphemisms used in a work of art, the translator pays great attention to the correct assessment of certain phenomena accepted in the source language society, to determine what is good, acceptable, and what is inappropriate, ethical norm for them. important. The lack of support for cultural and social change makes it necessary to study these changes on a regular basis. Literature, especially literary translation, is the object of study.

Keywords. Euphemism, dysphemism, language, translation, connotative modality, Abdullah Qadiri.

Maqolada tarjima jarayonida ko‘chimlarning denotatning minus yoki plyus qutblarini o‘zgarishga uchrashi, xususan evfemik va disfemik birliklarning almashinuvi xususida so‘z boradi. Bu borada mulohaza yuritgan olimlarning fikri tahlilga tortiladi.

Evfemizasiya badiiy matnlarda tilning uslubiy vositalaridan biri sifatida ishlatiladi. Bu uslubda evfemizmlar nafaqat gapni yumshatish, balki estetik vazifasini ham bajaradi, degan edi Moskvin. Ammo disfemizm to‘g‘risida bunday deb bo‘lmaydi. Uning qo‘llanilish vaziyatiga nutq sohibining tabiati, milliy madaniyati, tarbiyasi kabi qirralari kashf etiladi. U evfemizm singari tilga badiiy shakl yoki yumoristik samara beradimi yoki yo‘qmi, yorqin badiiy obrazlarni yaratishda qahramon obrasizini beradimi yoki yo‘qmi, har qalay, disfemizm asar muallifi tomonidan qo‘llanilishga haqli usul bo‘lib, tarjimada manba tilini o‘girma tilda yetkazish uchun qo‘llanilishi munozarali masaladir. Zero, u evfemizmdek badiiy matnda dekorativ funksiyani bajarishi mumkin emas.

“*Shu daqiqa unda ham, birdan aybi ochilib, sharmanda bo‘lgan kishilarda yuz beradigan hodisa yuz berdi. U siri ochilgandan keyin xotini oldida* ***basharasiga*** *qanday tus berishini oldindan o‘ylab qo‘ymagan edi*.”

Tilshunoslikda nominativ birliklarni o‘rganishda semantikaning konnotativ jihatiga alohida e’tibor beriladi. V.N.Teliyaning fikriga ko‘ra “konnotasiya – til birliklari semantikasiga uzual yoki okazional ravishda kiradigan, nutq sub’yektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo‘lgan hissiy baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko‘ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyat”dir. Shunga ko‘ra, konnotasiya so‘zlovchining borliqni ifodalash vositalariga nisbatan munosabatiga bog‘liq bo‘lgan jihatdir. *Yuz, bet,*

chehra, ruxsor, aft, bashara, turq kabi so‘zlar qatorida tegishli nutq vaziyati va sub’yektiv nuqtai nazarga muvofig‘ini tanlash so‘zlovchining o‘ziga berilgan imkoniyat ekanligi ma’lum. Tarjimada esa konnotativ modallikni yo‘qotish mumkindir, ammo qo‘shish, va eng asosiy, salbiy tomonga o‘zgartirish tarjima tili o‘quvchisi uchun manba tilidagi mental madaniyat to‘g‘risida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otishiga olib keladi. Bu jumla asliyatda quyidagicha:

“*С ним случилось в эту минуту то, что случается с людьми, когда они неожиданно уличены в чем-нибудь слишком постыдном. Он не сумел приготовить свое* ***лицо*** *к тому положению, в которое он становился перед женой после открытия его вины*.”

Har qanday lisoniy birliklarni qo‘llash yozuvchining o‘ziga xos uslubi bo‘lib, bunda uning shu birlikka bo‘lgan munosabati, so‘z tanlash va uni qo‘llashdagi o‘ziga xosligi muhim o‘rin tutadi. Bunda tarjimon asliyat bilan “kim o‘zar” o‘ynashdan o‘zini tiyishi, neytral vazifadagi birlikka hosila ma’no berishdan o‘zini olib qochishi, eng asosiysi, disfemik kayfiyat uyg‘otishdan saqlanishi kerak.

Yuz, aft, bet, bashara, turq, chehra, jamol leksik paradigmasida barcha a’zolarning denotativ semalari bir xil: «inson a’zosi», «boshining old qismi». *Yuz* sememasida konnotativ sema mavjud emas. Lekin *bet, aft, bashara, turq* sememalarida «salbiy munosabat» konnotativ semasi mavjud bulsa, *chehra, jamol* leksemalari sememasida «ijobiy munosabat» konnotativ semasi mavjud.

A.Hojiyev *bet* so‘zini izohlar ekan, uning *yuz* so‘ziga juda yaqinligini, ammo unga nisbatan sal salbiy ottenkaga egaligini aytadi. Graduonimik jihatdan *bashara* leksemasi *bet* leksemasidanda quyiroq pozisiyani egallashi esa kundek ravshan. Sinonimik qatorda evfemik va disfemik birliklar ortofemik ifodali birlikka nisbatan musbat va manfiy qutblarni egallab, o‘zaro ifoda bo‘yog‘i, sub’yektiv munosabat darajasi bilan farqlanadi. Shuning uchun, bu birliklar sirasiga denotativ darajalanishni aks ettiruvchi graduonimiyadan ko‘ra gradasiya (uslubiy darajalanish)ni qidirish maqsadga muvofiq. Demak, uslubiy jihatdan tarjimon to‘la ma’noda neytral ifodaga salbiy ottenka berib, xatoga yo‘l qo‘ygan. Quyidagi misolda esa u evfemik ifodani disfemik ifodaga almashtirganini ko‘ramiz:

“*Она, это вечно озабоченная, хлопотливая, и* ***недалекая****, какою он считал ее, Долли, неподвижно сидела с запиской в руке и с выражением ужаса, отчаяния и гнева смотрела на него*”.

“*Hamisha nimaningdir g‘amini yeb urinib yuradigan, erining fikricha* ***kaltafahm*** *hisoblangan Dolli xatni ushlaganicha qimir etmay o‘tirar, dahshat, umidsizlik va g‘azab ifoda etgan ko‘zlari bilan eriga tikilib qarar edi*”

Ikkala birliklarning o‘z tarkibiy darajalanishda disfemiklik/ evfemiklik qiymati yuqori va past birliklar ajratiladi. Xususan, *kaltafahm* ifodasi asar muallifining *недалёкий* ifodasi bilan ekvivalentlik nuqtai nazardan bir qatorda bo‘lsada, undan salbiyroq munosabatni ifodalash darajasi yuqori ekanligi bilan farqlanadi. Uning o‘rniga *kaltabin* ifodasi muayyan ma’noda mos kelishi mumkin edi.

Qiyoslaymiz:

Калтафаҳм	Калтабин
[*ф.* + *а.* مهفهتلک - фаҳми калта, тушунчаси тор] дарров тушуниб уқиб олмайдиган, ақли, фаҳми етмайдиган; фаҳми калта.	[*ф.* نییهتلک - яқин, қисқа масофани кўрувчи; узоқни кўрмайдиган] Ҳозир кўзига кўриниб турган нарсалар асосида ҳукм чиқариб, унинг оқибатини кўрмайдиган.

Demak, *kaltafahm* va *kaltabin* birliklari darajalanish qatori “salbiy bo‘yoqning o‘sib borishi” belgisi asosida tuzilgan bo‘lib, ularning iks-femiklik xususiyati ana shu pozisiyadan kelib chiqib aniqlanadi. “*Kaltalik”* “axmoqlik” belgisi ekan, uning qo‘llanilish doirasi ko‘pincha disfemizasiyani, biroq ortofemik *ahmoq* ifodasidan ko‘ra nutq vaziyatida evfemizasiyani tashkil etishi bilan ham ahamiyatlidir. Bu birliklar Abdulla Qodiriy ijodida qo‘llanilgan boshqa birliklar bilan darajalanish o‘qida quyidagi pozisiyani egallaydi:

Shuni aytib o‘tish kerakki, Abdulla Qodriyning “O‘tkan kunlar” asarining tarjimasida ham O‘zbek oyimga nisbatan *nedalekiy* birligi nisbatan o‘rinli qo‘lanilgan:

“*Юсуфбек-хаджи, хорошо зная* ***взбалмошный*** *характер своей* ***недалёкой*** *жены, решил не рассказывать ей ничего о том, что произошло с Атабеком, не раскрывать его тайн, но счел необходимым предупредить Узбек-аим о приезде маргиланской невестки и ее родителей*.”

“*Yusufbek hoji* ***chala-dumbul tabiatlik*** *xotinining* ***fe’li xo‘yi****ni yaxshi bilgani uchun o‘tkan voqi’larni, ya’ni Otabek sirlarini unga ochmasliqqa qaror bergan bo‘lsa ham, ammo marg‘ilonliq kelin va qudalarning kelishlaridan xabar berishni lozim deb topdi*.”

Asliyatda “dumbullik” ko‘chma ma’noda “hayot tajribasiga ega bo‘lmagan”, “g‘o‘rlik” mazmunida kelib, aslida, uning “*chala”*ligi esa “*g‘o‘rlik”* emas, balki *aqllilik*ka yarim barobar yetmagan ma’nosini berishi kerak, ya’ni “*g‘o‘rlik”*dan biroz yuqori – “*aqillilik”*ka yaqinroq. Lekin “*chala”* so‘zining o‘zi salbiy ottenkaga ega bo‘lgani uchun nutq vaziyatida – xalq tushunchasida bu birikma salbiy birlik sifatida qabul qilinadi. Tarjima tilida shu hosila ma’no uzvlarining mavjudligini ko‘ramiz. Konnotasiya emotiv qiymatga ega bo‘lib, bu birlik manba tilidagi mental borliqni to‘g‘ri baholagan holda idrok etilish va aks ettirish mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Nutq progmatikasi bilan bevosita va uzviy bog‘liq bo‘lgan evfemizmning ta’sir etish vazifasidan samarali foydalanilgan.

взбалмошный va *fe’li xo‘yi* birliklari alohida olinganda noto‘liq (privativ) ziddiyat hosil qiladi. Mazkur birliklarning qo‘llanilishi har qaysi tilda idrok etilish darajasi (axloqiy, irim, nutq madaniyati, saviya, ijtimoiy soha) talabi bilan “yumshoq yoki yumshoq emas”ligi belgisiga ko‘ra *fe’li xo‘yi* majhul, *vzbalmoshnыy* manfiy munosabat kasb etadi. Demak, bu badiiy tarjimada ham muayyan miqdorda evfemik va disfemik vaziyat almashinuviga duchor bo‘ladi.

Paradoksal ravishda, aksariyat qo‘pol so‘zlar va iboralar (disfemizmlar) – avvallari tabulashtirilgan leksikaga tenglashtirilgan, keyin esa xalq tomonidan nozik hisoblangan kasallik, jinsiy aloqa, o‘lim kabi mavzularni tasvirlashda ataylab yumshatilgan sobiq evfemizmlardir. Darhaqiqat, tilning ichki resursida ham bunday almashinuv sodir bo‘lishi endilikda sir emas. Buni biz o‘zbek tilidagi “bokira” so‘zi bilan tahlil qilishimiz mumkin. “Anna Karenina”ning tarjimasida Levin nutqida qo‘llanilgan bu so‘zning muayyan miqdorda quyi stil ottenkasi sezilib turadi: “*Masalan, sen uylangansan, sen bu hisni bilasan... shunisi dahshatliki, biz anchagina yashagan, o‘tmishda... muhabbat emas, gunoh orttirgan odamlarmiz. Birdan pokiza,* ***bokira*** *bir vujudga yaqinlashamiz; bu jirkanch narsa, shuning uchun bunday odam o‘zini noloyiq deb his etolmay turolmaydi*.”

Bu tushunchaning tabu varianti tilimizda yo‘qolib ketgan bo‘lib, arabchadan olingan “dastlabki meva” ma’nosini beruvchi “bokira” leksemasi uni yumshatish uchun qo‘llanilgan. Endilikda bu so‘zni eshitgan odam uchun uning yashirin ma’nosi sir bo‘lmay evfemiklik xususiyatini yo‘qotib, “er ko‘rmagan”, “turmushga chiqmagan” ma’nolari ostida tabu o‘rnini sekin-sekin egallamoqda. Tabuning o‘zini qo‘llash esa disfemiyasiyani yuzaga keltiradi. Manba tilidagi ijobiy qahramon nutqida esa nozik mavzuga bo‘lgan munosabati, ichki madaniyati, istihola saqlanib qolingan: “*Вот ты женился, ты знаеш это чувство... Ужасно то, что мы – старые, уже с прошедшим... не любви, а грехов... вдруг сближаемся с существом чистым, невинным; это отвротительно, и потому нельзя не чувствовать себя недостойным”.*

Xuddi shunday “jonon”, “do‘ndiqcha” so‘zlarini ham olish mumkin. U fohishaga nisbatan – evfemik; tarbiyali, to‘g‘ri hayot kechiruvchi ayol uchun disfemizmdir. Levin

munosabati asosda qurilgan muallif nutqiga koʻchgan bu soʻz Levinga nisbatan salbiy sifat soya solgan: "*Xotinlar koʻpincha xunuk, oddiy odamlarni yaxshi koʻrishadi, deb eshitgan boʻlsa ham, bunga ishonmasdi, chunki u bu narsani oʻziga qarab yechar, oʻzi esa faqat chiroyli, sirli va* ***jonon*** *ayollarnigina yaxshi koʻrardi.*" Bu birlikoʻzbek tilida vaqt oʻtishi bilan oʻziga evfemik qobiq talab etib qolgan. Rus tilida esa bunday holatni koʻrmaymiz: "*Слыхал он, что женщины любят часто некрасивых, простых людей, но не верил этому, потому что судил по себе, так как сам он мог любить только красивых, таинственных и особых женщин*."

1988 yilda A.M.Kasev evfemizm bilan disfemizm oʻrtasidagi farqni keskin qoʻygan edi: *disfemizm ne yest evfemizm snijennogo stilya. Disfemizm yavlyayetsya antipodom, a ne raznovidnostyu evfemizma. Disfemizm protivopolojen evfemizmu, no ne v stilisticheskom, a v assosiativno-denotativnom plane*. Lekin bu xulosalarda ham jon bordek, nazarimizda. Har ikki hodisa ham okkazional xarakterga ega boʻlib, ular mudom oʻzgarib turadi, doimo yangi. Faqat disfemizmdan farqli oʻlaroq, evfemizm vaqt oʻtib, lisoniy birlikka aylananish xususiyatiga ega va, shu bilan birga, oʻz evfemik xususiyatini ham yoʻqota oladi. Bu tez-tez qoʻllanish sababidan amalga oshadi. O.D.Pastuxova aytganidek, vaqt oʻtishi bilan yoqimsiz narsalar evfemizasiyasi samarasiz boʻladi, chunki ular biron bir nozik mavzuni tasvirlashda kutilmaganda aytilganda oʻz maʼnosining ravshanligi va aniqligi bilan quloqqa yoqimsiz eshitila boshlaydi. Disfemizmlar esa ortofemaga aylanmay, salbiy kuchida qolish bilan xarakterlanadi.

Xulosa oʻrnida, birinchi navbatda, Sanjar Siddiqning tarjimada roʻy beradigan yanglishlarini uchga ajratishi esga olamiz:

"***Birinchi xil xatolar*** *— bilimsizlikdan, tilni yaxshi bilmaslik hamda soʻzlarning oʻrniga qarab turli maʼnoda kelishini anglab yetmaslik natijasidir.*

Ikkinchi xil xatolar *— tildagi sinonimlardan, tilning lugʻat boyligidan xabarsizlik, yaʼni har bir tilning oʻziga xos iboralarining ichki mazmunidan begonalik natijasida va nihoyat:*

Uchinchi xil xatolar *— jumla va tarkiblarni oʻgirishdagi loqaydlikdan kelib chiqadi*."

Bu xil xatolar evfemik va disfemik birliklarning amashinuviga olib kelishi, natijada manba tili ruhining tarjima tilida aks etmasligiga sabab boʻladi.

Ikkinchidan, muayyan tilning oʻzida biror tushuncha birdan ortiq nomga ega. Masalan, oʻzbek tilida «Aldab, chalgitib, har qanday ishni uz foydasiga hal kiladigan, makr-hiylaga usta» maʼnosi 15 ta leksemada ifodalangan: *ayyor, mugʻombir, xiylagar, quv, ustomon, makkor, dogʻuli, moʻltoni, qilvir(i), shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa, maston*. Bu ham maʼno va nom oʻrtasidagi bogʻliqlikning tabiiy emasligini koʻrsatadi. Tarjimada uning mosini tanlash yuksak tajriba, masʼuliyat va bilim zahirasini talab etadi. Zero, sinonimik qatorda nominativ – figural maʼnolar, asos va hosila maʼnolar, salbiy – ijobiy maʼnolar, monosemantik – polisemantik maʼnolar mavjud ekan, nutq vaziyatida uning evfemik va disfemik vazifa bajarishi mumkin boʻlgan jihatlariga badiiy tarjimada eʼtibor qaratilishi kerak.

Uchinchidan, har bir tilning oʻz nutqiy qoʻllanilish taraqqiyoti natijasida evfemik/disfemik vaziyat almashinuvi boʻlib, tarjimada ulardan foydalanishga

ehtiyotsizlik qilishga, o‘quvchi psixologik tasavvurida noto‘g‘ri kartina chizishga, milliy ruhni o‘zgartirishga haqi yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kadыri A. Minuvshiye dni. (perevod Muxammadnodыra Safarova). – Tashkent: Shark. 2009. 430 s.
2. Kasev, A. M. Yazыkovoye tabu i evfemiya / A. M. Kasev. – L.: Leningr. gos. ped. in-t im. A.I. Gersena, 1988. – 75 s
3. Moskvin V.P. Evfemizmы v leksicheskoy sisteme sovremennogo russkogo yazыka. – Volgograd: Lenand, 2010. – 264 s.
4. PASTUXOVA O.D. Ot evfemizma k disfemizmu. // Slovo, vыskazыvaniye, tekst v kognitivnыm, pragmaticheskom i kulturologicheskom aspektax. Materialы VIII Mejdunarodnoy nauchnoy konferensii, Chelyabinsk, 20-22 aprelya 2016 goda. Iz-vo: Ensiklopediya. S. 329-331
5. Teliya V.N. Konnotativnыy aspekt semantiki nominativnыx yedinis. – Moskva: Nauka, 1986. – 143 s.
6. Tolstoy L. Anna Karenina (Mirzakalon Ismoiliy tarjimasi). – Toshkent, G‘ofur G‘ulom. 1980.
7. Tolstoy L. Anna Karenina. «Eksmo», 1878 — (Biblioteka vsemirnoy literaturы). – 165 s.
8. O‘zbekistonda badiiy tarjima tarixi. S.Mamajonov taxriri ostida. – T., “Fan”, 1985. – 176 b.
9. Xadjimusayeva N.N., Ergashev O‘. “Orzigul”dagi yuz, bet, jamol, diydor, turk sinonimlarining stilistik xususiyatlari haqida.//Defektologiyaning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2016 yil 30 may. – Toshkent: TDPU. 2016. B. 217-219
10. Hakimova M. Semasiologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: XT «Xamidov N.X» matbaa korxonasi, 2008. – 100 b.
11. Cho‘lpon so‘zining sirlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002. Elektron resurs: http://myuldashev.blogspot.com/2015/03/blog-post_19.html
12. Kadirova X.B. Problemы peremenы evfemizmov i disfemizmov v xudojestvennom perevode. // ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal. AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASI, Baku. 2021, Volume: 15, Issue: 10. St: 17-22, DOI: https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22
13. Qodirova X. Badiiy tarjima masalalarining o‘rganilishi va tasnifi. // Sharqshunoslik, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021, - №2, 2021.

CULTURAL FACTORS AFFECTING ACCEPTANCE OF CHANGE IN LANGUAGE TEACHING

Nancy Ackles
PhD
University of Washington in Seattle, Washington, USA

Abstract. When new directions in language teaching are introduced in professional development programs but are not in the end successfully adopted, the tendency is to place blame on teachers. However, teachers must work within the constraints of their local culture and traditions of education. This paper discusses three factors which may limit adoption of innovation and offers four suggestions for overcoming resistance: gathering teacher input at the design phase, starting small, providing explanatory material for parents and administrators as well as for teachers, and providing support in implementation in addition to training in new methods. This paper is based on a talk and presented as part of conference proceedings.

Keywords: professisonal development programs, task-based approach, conservative educational culture, methods, Games.

I'm honored to be able to participate in this conference. Thank you for inviting me. I am delighted to be here. In the coming week, I will be able to visit Tashkent again as an attendee at the TESOL Regional Conference. These opportunities are very special. My most recent visit to Uzbekistan was through participation in the English Speaking Nation program, and all the information I have received from participants indicates that this project has been more successful than many others in the world. I congratulate you and your nation.

Observing and reading about some of the less successful projects in various places, causes one to become more and more convinced of something that should be said at the beginning of every webinar or teacher training course given by a visiting professional. Although visiting professionals may know much about language teaching and may have learned from teachers in many countries, they are not experts on teaching in Uzbekistan. You are the experts. You know your context, your students, your culture, and your communities. Cultural factors affect acceptance of change in language teaching, and as we look at some of these cultural factors, we see reasons why local expertise is very important and should always be taken into consideration when planning for the adoption of innovations in teaching.

A Brief Literature Review

The question of why innovations in language teaching are not implemented at the classroom level has been investigated in past years, often pointing to cultural factors which are frequently overlooked in training programs. Adamson and Davidson (2003) identified "a lack of real understanding of the established pedagogical cultures" (p27) as one factor limiting the implementation of reforms in English language education in primary schools in Hong Kong. Looking at a pedagogical culture, Chang (2008) undertook a study of parental opinions about English education in Taiwan, finding that parental support or lack thereof played an important role in the successful adoption of education reforms.

When task-based instruction was introduced as a further refinement of communicative language learning, studies of its implementation were undertaken. Meas (2010) noted early on that implementing a task-based approach at a Cambodian university was unlikely to be successful because students demanded grammar instruction, despite how their teachers might want to teach. Rui and Xiangyun (2013) found that cultural factors in Denmark, including a tradition of valuing student opinion and interaction, made the implementation of task-based learning of Chinese more acceptable than it would likely be in some other cultures. On the other hand, Saleh (2019) reported that among Libyan university instructors a conservative educational culture, patterns of expected parent/child interaction, and an exam-based system of evaluation limited their willingness and ability to implement approaches that encourage critical thinking among students.

The specific cultural factor of management style as an impediment to successful change was cited by Nur, S., & Short, M. (2019) in a study of in-service language teacher training in Bangladesh which found that among the factors limiting success were limited logistics support and coercive management of training.

Duong and Nguyen (2021) found that teachers who wanted to implement a task-based approach to learning faced difficulties because of a curriculum which focused on exams and the necessity of working with large size classes, particularly in respect to concerns in the school about noise levels,

Murray, et al, (2020) reported that the findings of their study of change in language teaching in the more rural areas of China “indicate the need for a change of culture if innovation is to be welcomed, both in principle and in practice.”(p1)

Recently, in a location not in Uzbekistan, a participant in a professional development program for teachers said, “I can use the activities I’m learning here in my classes at the American Corner, but not at school. If I try them at school, people will think I am a bad teacher, or maybe a crazy person.” Clearly there was not a good connection between the things he was learning and his teaching situation. We need to know more about why this happens.

When innovations are not adopted, there is a strong tendency to think that there was a lack of training. That is not the case with this man. He is a capable teacher, interested in new ways of teaching and willing to change his methods, and he is attending trainings. It is quite possible, however, that no one has truly listened to him to find out about the obstacles he faces when he tries to implement new ideas. Just as countries have cultures, so do communities and even schools within a country, and apparently, the teaching activities he has been introduced to in the course he is taking do not fit within the culture of the school where he teaches.

Here are a few factors, things that we might consider cultural factors, that can limit acceptance of change in language teaching.

Top-down authority:

Teachers, no matter how eager to try new ideas, can by greatly hindered by decisions made by their supervisors, if those supervisors are not familiar with current language teaching theory and willing to accept changes. If the school principal believes that students should be quietly working on textbook assignments, task-based learning

or even fairly simple conversation activities will be considered inappropriate. Games that involve moving rapidly around the room, such as relays, will definitely be frowned upon. Murray (2020) argues that "unless there are positive attitudes towards change among institutional policymakers and senior managers, innovation will not take root because without such attitudes the work and time required to implement innovation is often either not made available or not recognized as a particularly legitimate and valued activity." (p18) Change in language teaching involves training for administrators as well as for teachers, although professional development programs for language teachers frequently do not include this type of training.

A cultural resistance to questioning

There may be a broad consensus among community members that education should help young people develop respect for their elders and other community leaders. In such settings, activities that encourage language learning through argument and critiquing of ideas will not be viewed positively, no matter how much theorists may argue that this is a good way to develop language skills. Saleh's 2019 study of Libyan university students suggested that this issue arises because of "parents' treatment of their children at home which is based on the fixed principle of 'listen' and 'obey'. Culturally and socially, it is not acceptable for children to question their parents' opinions or decisions or to be engaged in discussions or in solving problems." (p8) Clearly there can be a mis-connect between the desires of these parents and the kinds of activities that are introduced in many contemporary language teaching programs. When such mis-connects exist, there will be resistance to change in language teaching.

Parental opinion on proper study methods

Parents may be a teacher or school's greatest supporters. They may also be quite resistant to certain changes. They may believe that the way they studied when in school or the way their children study for their other classes are the best or even only ways to learn a language. Chang (2008) found in his study of Taiwanese parents that of those who enrolled their children in "cram schools," over fifty per cent felt that "it can't hurt to study more." (p428) Many language teachers, on the other hand, would argue that if the study is a matter of learning grammar rules and completing worksheets, more study actually can hurt by making language study unpleasant and unproductive of communicative skills.

We might want to document other cultural factors that can produce resistance to change, but perhaps it will be more helpful to consider possible ways of overcoming such resistance.

Here are a few suggestions that may increase the effectiveness of teacher development programs.

1) Include teachers' input when organizing training. A needs assessment based on classroom observations but without an organized way of learning teachers' own opinions on their needs will miss important information and is likely to lead to lessened acceptance of change.

2) Start small. Changes in a very structured classroom can be difficult or even disruptive. Encourage classroom teachers to start small, with one simple change in the classroom patterns such as giving the class silent thinking time before accepting an

answer to a question. After students are comfortable with something simple, slowly add more active procedures. Train the students in how to do each new type of activity and practice it well before adding another creative form of interaction. Adopting small group or project work without first training students in the skills needed to do it will likely lead to problems that offend administrators or parents.

3) When providing teachers with training in new approaches, give them materials that they can share with administrators and parents explaining the research basis for these new approaches.

4) Provide support, not just training. Adopting new ways of teaching is hard. Knowing what the "experts" think one should do is not the same as being able to do it, especially when there is resistance from students, administrators, or parents. New ways take practice and there will be moments of failure. While teachers are trying to implement new methods, coaches and mentors can play a very significant role. Peer support groups in which teachers can share their successes and frustrations can give individuals the energy needed to keep trying in a difficult task.

These few thoughts are offered with the hope that they may in some way contribute to an approach to change in language teaching that does not blame teachers alone for all problems that may arise in making change. Teachers work within cultures. Teachers have valuable input to give on what will work or not work in the culture of their local situation. The ideas and suggestions provided here will not necessarily fit in any particular context, but they are factors which must at least be taken into consideration when teacher professional development programs are designed. The experts on local communities and the culture of the students and schools and in those communities, as well as the educational traditions and expectations therein, are the teachers who work daily in those communities. Their input is crucial to successful implementation of innovation in education.

REFERENCES

1. Adamson, B. & Davison, C. (2003). Innovation in English language teaching in Hong Kong primary schools: One step forward, two steps sideways? Prospect, 18(1), 27-41.

2. Chang, Y. F. (2008). Parents' attitudes toward the English education policy in Taiwan. Asia Pacific Education Review, 9(4), 423-435.

3. Duong T. M., Nguyen H. T. T. Implementing Task-Based Language Teaching in Vietnamese Secondary Schools: What Hinders EFL Teachers? //TESL-EJ. – 2021. – Т. 25. – №. 2. – С. n2.

4. Meas S. Investigating the feasibility of adopting task-based language teaching in a university setting in Cambodia : дис. – University of Hong Kong, 2010.

5. Murray, N., Liddicoat, A. J., Zhen, G., & Mosavian, P. (2020). Constraints on innovation in English language teaching in hinterland regions of China. Language Teaching Research, 1362168820979855.

6. Nur, S., & Short, M. (2019). Factors affecting the quality and efficacy of an ELT-INSET: A case study of Bangladesh. Waikato Journal of Education, 24(1), 55-66. https://doi.org/10.15663/wje.v24i1.600

7. Rui Bao & Xiangyun Du (2015) Implementation of task-based language teaching in Chinese as a foreign language: benefits and challenges, Language, Culture and Curriculum, 28:3, 291-310, DOI: 10.1080/07908318.2015.1058392

8. Saleh, Salamah Embark. "Critical thinking as a 21st century skill: conceptions, implementation and challenges in the EFL classroom." European Journal of Foreign Language Teaching (2019).

HARBIY TA'LIM MUTAXASSISLIK KURSANTLARINING LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Qalandarova Safiya Toxirovna
O'zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Tillar kafedrasi dosenti (PhD)
safiyaxonkalandarova@gmail.com

Annotasiya: Ushbu makolada harbiy soha vakillarining chet tili o'rganishda, kompetent yondashuv talablari va lingvomadaniy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy metodologiyasi masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, lingvomadaniy harbiy soha vakillari, ta'lim paradigmasi, zasonaviy yondashuv

Аннотация: В данной статье рассматриваются требования компетентностного подхода и теоретической методики развития лингвострановедческой компетенции при изучении иностранных языков военнослужащих.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, лингвокультурологический военный, образовательная парадигма, современный подход.

Abstract: This article discusses the requirements of the competency-based approach and the theoretical methodology for the development of linguistic and regional competence in the study of foreign languages of military personnel.

Keywords: competence, competence, linguocultural military, educational paradigm, modern approach.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi dunyo va milliy tajribani o'rganish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq tarzda o'zining sifat jihatidan yangi bosqichiga kirdiki, bu bosqich hozirgi kunda kadrlar tayyorlash tizimining yanada takomillashtirilishi bilan tavsiflanmoqda. U bugun yuqori malakali, umummadaniy va kasbiy kompetentlik, ijodiy va ijtimoiy faollik bilan ajralib turadigan, zamonaviy ijtimoiy-siyosiy hayotning murakkab sharoitlarida mustaqil ravishda harakat qila oladigan mutaxassislarning yangi avlodini dunyo standartlari darajasida tayyorlashga qaratilgan. Zamonaviy bosqichda respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida dolzarb muammolardan biri harbiy mutaxassislar tayyorlashga kompetent yondashuv talablariga mos keladigan davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish hamda joriy etish hisoblanadi.

Asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish va takomillashtirish oliy ta’lim tizimida ham asosiy talab sanaladi. Shu sababli, jamiyat va davlatning mutaxassislar tayyorlashga talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim muassasalarining bu toifasi uchun maxsus va gumanitar fanlar bo‘yicha ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari kompetent yondashuv asosida ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda ta’limning an’anaviy bilim, malaka va ko‘nikmalarga asoslangan namunasi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar realiyalari, sharoitlariga mos kelmaydi. Zamonaviy sharoitlarda olingan bilimlarni turli hayotiy, amaliy vazifalarni hal etishda mustaqil qo‘llay oladigan harbiy mutaxassislarga talab ortmoqda. Demak, shu yondashuv asosida oliy ta’lim tizimida gumanitar va maxsus fanlarni o‘qitishni modernizasiyalashning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb va zarurdir.

Qurolli Kuchlari Akademiyasida chet tili zamon talabi asosida o‘rganish boshqa madaniyatlar qadriyatlarini o‘zlashtirish uchun katta imkoniyatlarni taqdim qiladi. Chet tillarni bilishni ishonch bilan shaxsning umumiy madaniyati tarkibiy qismi sifatida tasniflash mumkinki, uning yordamida shaxs dunyo madaniyatiga oshno bo‘ladi.

Qurolli Kuchlari Akademiyasida chet tillarni tom ma’noda o‘rganish ijtimoiy-madaniy bilim va malakalarni egallashni nazarda tutadi, bu jarayonning lingvomadaniyatshunoslikka yo‘nalganligi esa nafaqat umumta’lim va tarbiyaviy, balki amaliy maqsadlarni ham amalga oshirishni ta’minlay oladi. XX asrning 60-yillarigacha chet tillarni o‘qitish ta’lim doirasida o‘rganilayotgan til mamlakati haqida mamlakatshunoslik bilimlarini egallash bilan kechadigan mustaqil element sifatida gavdalangan bo‘lsa, hozirda “madaniyat” tushunchasi chet tillarni o‘qitish mazmuniga kiradi, ta’lim oluvchilar shaxsini ular tomonidan o‘zi uchun begona voqeylikni bilish va o‘zga madaniyatni idrok etish asosida dolzarblashtirish zarurligi anglab yetilmoqda.

Bugungi kunda madaniyat umumlashma sivilizasiyalangan makon, ya’ni inson tafakkuri va faoliyati mahsuli sifatida tushunilmoqda. Shu sababli, hayotni belgilovchi va tartibga soluvchi tajriba va me’yorlar, insonlarning yangilikka va o‘zgachalikka nisbatan munosabati madaniyatga kiritilmoqda. Demak, yorqin ifodalangan madaniyatlararo dominantaga ega bo‘lgan chet tilini o‘qitish jarayonida faktologik va mamlakatshunoslik bilan bir qatorda urf-odat, qadriyatlar ham aks etmog‘i lozim. Zamonamizning texnologik innovasiyalari ta’lim paradigmasini tubdan o‘zgartirish, millatlararo muloqotni amaliy ehtiyojlarga yo‘naltirish va pedagogik konsepsiyalarni madaniyatlar dialogi qonuniyatlari bo‘yicha shakllantirishni nazarda tutadiki, buni amalga oshirishning birdan-bir vositasi chet tilining o‘zidir.

Demak, chet tilini o‘rganish kommunikativ kompetentlikni – madaniyatlararo muloqot uchun zarur bo‘lgan o‘zga tilli muloqot qobiliyatini yuzaga keltirishni nazarda tutadi. Shu sababli, u mutaxassislikdan mutaxassislik uchun tilga aylanadi.Bu chet tilini o‘qitish maqsadini amalga oshirish nafaqat globallashuv sharoitida turli milliy madaniyatlarishtirokchilari o‘rtasidagi muloqot sifatida tushuniladigan *madaniyatlararo muloqot* qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq ekani, uning nafaqat yangi dunyo miqyosidagi axborotlar oqimi sari vosita va kalit, balki ta’lim oluvchilarni boshqa xalqlarning ma’naviy qadriyatlari, madaniyatiga oshno qilishning asosiy yo‘li ham ekanini anglatadi.

Chet tili til va madaniyatni yaxlit hamda tizimli o‘rganishni nazarda tutadigan, *lingvomadaniyatshunoslik* konteksti bilan muhim pedagogik muammo xarakterini kasb etadiki, uning hal qilinishi madaniyatlararo kommunikat yoki madaniyatlar mediatori sifatida o‘zini namoyon qilishga qodir bo‘lgan mutaxassislarni kasbiy tayyorlash sifati va samaradorligini belgilovchi rol o‘ynaydi. Qolaversa, bugun dunyo ta’lim amaliyoti uchun qabul qilingan kompetent yondashuv g‘oyalari aynan shu talablar asosida qurilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tamomila “yangi tamoyillar, avvalo, milliy an’analar, g‘oyalar va ilg‘or xalqaro standartlar”ga asoslangan o‘z ta’lim tizimimizni joriy qilish zaruratini ko‘p bora ta’kidlagan.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi PQ-1875-sonli “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori respublikada o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o‘rgatish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo‘llagan holda ularni (chet tillarni) mukammal egallagan harbiy mutaxassislarni tayyorlash sohasida tub islohotlarni belgilab berdi. Bo‘lajak harbiy mutaxassislarning dunyo sivilizasiyasining yutuqlariga va dunyo axborot resurslariga erkin kirishi, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun sharoit va imkoniyatlarni yaratib berdi.

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni tarbiyalash, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini tubdan yaxshilash, chet tillarni chuqurlashtirib o‘qitish bo‘yicha ishlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Demak, ta’lim mazmunini qayta qurish mutaxassislar tayyorlashning “kasbiy faoliyatda o‘z shaxsiy salohiyatini tobora to‘liq amalga oshirish” imkonini beradigan samarali shakllarini izlashni taqozo etadi. Harbiy mutaxassislar tayyorlash mazmunining asosiy komponentlaridan biri shaxsning kognitiv tajribasi bo‘lib, uni shakllantirish asosini dunyoning umumiy manzarasini yaratish vositasi va bilish hamda amaliy faoliyat quroli sifatida bilimlar tashkil qiladi. Ta’lim insonning madaniyati va muloqot malakasi bilan birdek tushuniladi, ya’ni bu o‘rinda gap shunday shaxsga yo‘naltirilgan madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish haqida boradiki, u ham ona tilida, ham chet tilida muloqot sharoitida qo‘llanadigan umummadaniy va kasbga yo‘naltirilgan bilim, malaka va ko‘nikmalarga asoslanadi. Chet tilida muloqot til o‘qitishga lingvomadaniyatshunoslik yondashuvini, ya’ni til va madaniyatni yaxlit tizimli qarashni nazarda tutadi. Ta’lim paradigmasining bu kabi, til jarayonlarida namoyon bo‘ladigan madaniyatni o‘rganishni nazarda tutadigan, almashinuvi ta’lim maqsadlarini yangi mazmun bilan to‘ldirdi, uni millatlararo muloqotning amaliy ehtiyojlariga qayta yo‘naltirib, bu bilan pedagogik konsepsiyani madaniyatlar dialogi asosida qurishga olib keldi.

Chet tilini o‘qitish muammosiga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilini o‘qitishga turli yondashuvlar mavjud bo‘lgani holda bo‘lajak harbiy mutaxassislarning lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti. Qolaversa “soxa, tor” tillar,

ayniqsa, harbiy ilmiy-texnik terminologiyasi yetarlicha yoritilmagan va o‘rganilmagan muammolar sirasiga kiradi, terminologiyani lingvomadaniyatshunoslik aspektida o‘rganish haqida gapirmasa ham bo‘ladi, aynan ta’lim oluvchilarning faqat lingvistik va ensiklopedik emas, balki ijtimoiy-madaniy bilimlarini boyitishga qaratilgan bilish jarayonlariga yo‘naltirilgan kognitiv mexanizmlarning ishlab chiqilmaganligi e’tiborni alohida til hodisalarini o‘rganishdan ta’lim oluvchilarning kommunikativ faoliyati madaniyatshunoslik dominantalarini ajratishga ko‘chirish zaruratini belgilaydi. Tilni “madaniyat ko‘zgusi” sifatida tasavvur etish chet tilini o‘zlashtirishda madaniyatshunoslik komponentlariga e’tiborni uyg‘unlashtiradi.

Konsepsiyamizga muvofiq, texnika harbiy ta’lim muassasalarida chet tilini o‘rganilayotgan til leksikasi va grammatikasini milliy madaniyat bilan integrasiyalash asosida o‘rganish lingvomadaniyatshunoslik va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. *Lingvomadaniyatshunoslik* tilni ham madaniyat quroli, ham uning qismi va mavjudlik sharti sifatida baholasa, *madaniyatlararo kompetensiyani* biz boshqa milliy madaniyat vakillari bilan muloqot qobiliyati sifatida tushunamiz, bu boshqa ijtimoiy madaniyatning milliy madaniyat va tili o‘rganilayotgan mamlakatning madaniyati, shuningdek, madaniyat va kommunikasiya to‘g‘risidagi umumiy bilimlarni o‘z ichiga olgan dunyo manzarasi sifatida tushunamiz.

Bu holda lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasi (LMK), kommunikativ kompetentlikning tarkibiy qismi bo‘lib, madaniyat haqida bilimlar va tildan bu bilimlarni til birliklari mazmuniga singdirgan holda foydalanishdan iborat bo‘ladi.

Bu istalgan, jumladan, lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasi o‘rgatiladigan bo‘lishi lozimligini anglatadi. Hozirgi kommunikativ kompetensiya konsepti madaniyatlararo kompetensiya (interkulturelle Kompetenz, intercultural sompetence) bo‘lar ekan, bu holda lingvomadaniy konseptlar “u yoki bu halqqa xos dunyo manzarasini hosil qiladi, madaniyatlararo kommunikasiyaning turli sohalarida qo‘llana oladi”.

Demak, LMKni shakllantirish va rivojlantirish kognitiv-faoliyatli yondashuv asosiga quriladi, bu ikki muhim omil bilan belgilanadi. Birinchi tomondan, ushbu pedagogikt izim kursantlarning kognitiv, faol bilish jarayoniga yo‘naltirilgan bilishjarayoniga, ya’ni konseptlar (mazmunlar) tizimini yaratishga qaratilgan faoliyatiga tayanadi. Boshqacha qilib aytganda, tilni o‘rgatayotib, biz lingvokonseptlarning etnomadaniy belgilanganligini, ularning “yetakchi farqli belgisi” sanaladigan so‘zlar va *leksik, frazeologik, morfologik, sintaksik*deb farqlanadigan madaniy mazmunini aniqlaymiz.

Boshqa tomondan esa, chet tilini o‘rgatishda lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasi va ikkilamchi til shaxsini shakllantirish sifatidagi muhim pragmatikamaliy komponent birinchi o‘ringa chiqadiki, bu begona madaniyatni ta’lim oluvchining real hayotiy jarayoniga kiritilishi (inkulturasiya) va tildan madaniyatlararo bilish va o‘zaro ta’sir hamkorlik quroli sifatida amaliy foydalanishni (akkulturasiya)nazarda tutadi.

Bo‘lajak harbiy mutaxassislarni kasbiy yo‘nalishiga muvofiq tarzda tayyorlashning bunday qadriyatli-maqsadli yo‘nalganligi ta’lim oluvchi “madaniyatning ma’lum

shakli, jihati" bo‘lgan chet tilini egallashi lozimligini nazarda tutadi, ya’ni tilni muloqot vositasi sifatida egallashning asosiy sharti "til va madaniyatni birgalikda o‘rganish" dan iborat bo‘ladi, chunki Yu. Larssonning to‘g‘ri va haqli ta’kidlashicha, til bir paytning o‘zida "ham madaniyat mahsuli, ham uning muhim tarkibiy qismi, ham uning mavjudligini o‘ziga xos usuli, madaniy kodlar va konseptlar shakllanishining omili"dir. Shunga ko‘ra G.O.Vinokurdan keyin, "tilni har qanday o‘rganish muqarrar ravishda o‘z predmeti sifatida madaniyatga ega", deb ta’kidlagan Yu.A.Belchikovning fikriga qo‘shilmaslik mumkin emas, ya’ni bugungi kunda kursantlarning o‘zga tilli ta’limi unga konseptlar va ularning leksik (terminologik) reprezentantlarida aks etadigan lingvomadaniyatshunoslik konnotasiyasini nazarda tutadi.

Bundan ko‘rinadiki, bo‘lajak harbiy mutaxassisning "shaxsning u yoki bu faoliyatga qodirligi va tayyorligi" sifatida tushuniladigan kasbiy kompetensiyasini shakllantirish integrativ sifatni o‘zida namoyon qiladi.

Lingvomadaniyatshunoslik – bu sintezlashtirish tipidagi kompleks o‘quv fani bo‘lib, madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi hamda ta’sirini uning faoliyatida o‘rganadigan va bu jarayonni birliklarning ularning lisoniy, tildan tashqari (madaniy) mazmuni birligida tizimli metodlar, zamonaviy ustuvorliklar hamda madaniy ko‘rsatmalar (me’yorlar va umuminsoniy qadriyatlar tizimi)ga yo‘nalganlik bilan o‘rganadi.

"Til – maqsad, madaniyat – vosita"o‘qitish modeli "madaniyat – maqsad, til – vosita" yondashuvi bilan to‘ldiriladi. Madaniyatshunoslik yondashuvi XXI asr didaktikasini belgilab, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning muhim tarkibiy qismi sifatida faol e’lon qilinib, oliy kasbiy ta’limning davlat ta’lim standartlarida, chet tillarni egallash darajalarini ifodalagani holda takomillashtirilmoqda. Ularda lingvomadaniyatshunoslik va lingvomamlakatshunoslikka oid bilimlarni rivojlantirish, jumladan, tili o‘rganilayotgan mamlakat tarixining asosiy bosqichlari, uning hududida saqlanib qolgan madaniy yodgorliklar, eng muhim tarixiy hodisalar, madaniy-tarixiy va ijtimoiy assosiasiyalar bilan bog‘liq tilga oid realiyalar haqida tasavvurlarning muhimligi ta’kidlanadi.

Madaniyatshunoslikka oid tarkibiy qism madaniyatlararo muloqotning majburiy sharti bo‘lib, uni amalga oshirish uchun o‘z mamlakati va tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatining o‘xshashlikfarqlarini tushunish zarur.

Lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda qadriyat kategoriyasining yetakchi roli ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlanadi: madaniyat – qadriyatlar va "bilim hamda malakalar" emas, aynan ular barchasini belgilaydi, deb uqtiradi o‘z ishlarida Ye.I.Passov.

A.V.Xutorskoy "kompetensiya" va "kompetentlik"ni umumiy va xususiy (individual) prinsipiga ko‘ra farqlaydi. "*Kompetensiya* shaxsning predmet va jarayonlarning ma’lum doirasiga nisbatan beriladigan hamda ularga nisbatan sifatli mahsuldor faoliyat uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq sifatlari (bilimlari, malakalari, ko‘nikmalari, faoliyat usullari) yig‘indisini o‘z ichiga oladi. *Kompetentlik*– inson tomonidan uni tegishli, kompetensiyani egallashi, unga ega bo‘lishi, bu kompetensiya insonning unga va faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatini o‘z ichiga oladi". Muallif, *kompetensiya* deganda, allaqanday begonalashtirilgan, ta’lim oluvchining ta’limiy

tayyorgarligiga oldindan berilgan talabni, *kompetentlik* deganda esa uning shakllanib ulgurgan sifati (xarakteristikasi) ni tushunib, bu ikki tushunchani ajratadi.

“Kompetentlik”va“kompetensiya” tushunchalarini ijtimoiy va pedagogik reja asosida tahlil etgan A.S.Belkin ta’kidlashicha, bu narsa avvalo, inson ongi strukturasida bilimga oid komponentlarning yig‘indisi, ya’ni to‘laqonli ijtimoiy mavjudlikni ta’minlaydigan insonning hayoti va faoliyatining tobora muhim tomonlari, o‘z kompetensiyalarini amalga oshirish usullari haqidagi axborotlar tizimi tushuniladi. *Kompetensiyalar* deganda, inson jamiyat, ijtimoiy guruh, jamoa (kollektiv) a’zosining ahamiyatli huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda ega bo‘lgan ijtimoiy funksiyalar yig‘indisi tushuniladi. Bu nuqtai nazardan, shartli ravishda kompetensiyalarni inson egalik qiladigan narsalarining yig‘indisi, kompetentlikni esa, u ega bo‘lganlarining yig‘indisi sifatida ifodalash mumkin.

Tadqiqotimiz uchun “o‘zga tilli kommunikativ kompetentlik» tushunchasi xarakterli. Shuning uchun, avvalo, “kommunikativ kompetentlik” terminining mohiyatiga to‘xtalishni maqsadga muvofiq, deb bildik. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda kommunikativ kompetentlikasosiy kompetentlik sifatida ajratiladi. Pedagogikada u inson shaxsining xarakteristikasi (tavsifi), uning qobiliyati sanaladi, inson xalq-atvori, faoliyatida namoyon bo‘ladi, unga hayotiy, amaliy (jumladan, kommunikativ) vaziyatlarni hal etish imkonini beradi. Kompetent yondashuv doirasida kommunikativ kompetentlikni faoliyatli o‘rganish ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli, anglashilgan, uning doirasida ta’lim oluvchi kommunikativ malakalarni realizasiyalash, o‘zining kommunikativ xulqini refleksiya qilish va korreksiyalash tajribasini egallaydigan sharoitlarni yaratish zaruratini keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. М., 1986. С.353-354.
2. Митрофанова О.Д. Традиционное и новое в методике преподавания русского языка как иностранного. Язык и культура в филологическом вузе. Актуальные проблемы изучения и преподавания. М., 2006.-С.182.
3. Общеевропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка. М., 2003. С.105.
4. Пассов Е.И. Программа-концепция коммуникативного иноязычного образования. Концепция развития индивидуальности в диалоге культур. М., 2000.; Пассов Е.И., Кибирева Л.В., Колларова Э. Концепция коммуникативного иноязычного образования. М., 2007.-С.9.
5. С.Т.Қаландарова. Қуролли Кучлари Курсантлари Лингвомаданият-шунослиги/ Монография/Молдавия 2022 124 бет.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори “Чет тилларни ўргатиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”. Халқ сўзи. 2012 йил 10 декабрь.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”.

DETEKTIV ASARLARNING JAHON TILSHUNOSLIGIDA LINGVISTIK ASPEKTDA O‘RGANILISHI

Gulnoraxon Niyazova
A.Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
“Ingliz tili” kafedrasi katta o‘qituvchisi
niyazova@navoiy-uni.uz

Annotasiya: Maqolada jahon tilshunosligida detektiv alohida janr sifatida XIX - XX asrlarda e’tirof etilishi, uning tarixi insoniyatning yozma manbalarni qayd eta boshlashi, xususan, jinoyatlarning sodir bo‘lishi va ularga qarshi kurashlarning ifoda etila boshlashi bilan bog‘liqli, hamda detektiv asarlarni lingvistik aspektda tadqiq etish, sosiolingvistik, lingvokulturologik, psixolingvistik tarjima nazariyasiga doir tadqiqotlar haqida.

Kalit so‘zlar: tilshunoslik, detektiv, tanqidiy maqolalar, ta’sir vositalari, lisoniy tahlil, klassik detektiv.

Аннотация: В статье речь идет о признании детектива как отдельного жанра в мировом языкознании XIX-XX веков, а также об изучении детективных произведений в лингвистическом аспекте, социолингвистической, лингвокультурологической, психолингвистической теории перевода.

Ключевые слова: языкознание, детектив, критические очерки, средства воздействия, лингвистический анализ, классический детектив.

Abstract: The article recognizes the recognition of detective as a separate genre in world linguistics in the XIX-XX centuries, its history is associated with the beginning of human recording of written sources, in particular, the occurrence of crimes and the struggle against them, as well as linguistic detective works. research in the field of sociolinguistic, linguoculturological, psycholinguistic translation theory.

Keywords: linguistics, detective, critical essays, means of influence, linguistic analysis, classical detective.

Jahon tilshunosligida detektiv asarlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilish tendensiyalari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zining yangi bosqichiga ko‘tarildi, qamrovi va ilmiylik nuqtai nazaridan kengaydi.

Detektiv fantastika XX asrning eng mashhur janrlaridan biridir. Adabiyotning boshqa janrlari bilan solishtirganda detektiv hikoyaning paydo bo‘lganiga ko‘p vaqt bo‘lmagan. U XIX-asrning birinchi yarmida paydo bo‘lgan va 1841 yilda E.Poning “Morg ko‘chasidagi qotillik” birinchi detektiv hikoyasi nashr etilishi bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi[]. Olimlarning fikriga ko‘ra, dyetektivning elementlari Bibliyada, arab ertaklarida, o‘rta asr Xitoy qissalarida, qadimgi yunon faylasuflarining asarlarida (masalan, Sofokl) va keyingi Yevropa adabiyotida Shekspir, Volter nomlari bilan aloqador. Bomarshe, Dikkens, Balьzak, Xoffmanlar barcha detektiv asarlarning asosini insoniyat sivilizasiyasi paydo bo‘lganidan beri ta’qib qilib kelgan jinoyatga qarshi kurashning abadiy muammosi va uning yechimi sifatida talqin qilishgan. Ushbu janrdagi asarlarda jinoyatlarni ochishning murakkab jarayoni va adolat tantanasi

tasvirlangan. Detektiv har doim jumboq bo‘lib, uni o‘quvchi muallifga ergashib, o‘zi hal qiladi, unda u nafaqat mantiqiy fikrlash, detektiv qobiliyatlarni namoyon etish, balki odamlarning psixologiyasini ham tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, yaxshi detektivning o‘ziga xos xususiyati – unda mujassamlangan axloqiy g‘oya, jinoyatchini fosh qilish va jazolashga bog‘liqligi bilan xarakterlanadi. Detektiv janri uzoq vaqt davomida jiddiy tanqidlar e’tiboridan chetda qolgan adabiyot turiga tegishli bo‘lgani holda mazkur janrdagi asarlarning g‘ayrioddiy umumiy mavjudligi va ularning badiiy-estetik jihatlarga ega ekanligini inkor qilib kelgan. Biroq, 20-asrning boshidan boshlab, toki hozirga qadar o‘tgan davr mobaynida detektiv asarlar tadqiqotchilarning eng faol tadqiqot ob’yektlaridan biriga aylanib ulgurdi. Ushbu izlanishlarda tadqiqotchilar birinchi navbatda, detektiv janrining bir yarim asrlik mashhurligi sirini ochishga harakat qildilar. Mavjud ishlar tahlili turli mamlakatlar filologiya fanida detektiv asarlarni tadqiq etishning shartli ravishda 5 davrini (bosqichini) ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Detektivni o‘rganish bo‘yicha birinchi tadqiqotlar XX asr boshlarida paydo bo‘lgan. Keng adabiy materiallar (E.Po, G.Chesterton, A.Konan Doyl, U.Kollinz, A.K.Grin, Ye.Wallacye, Ye.Gaborio, S.Van Dayne, D.Hammet, J.Chese detektiv asarlari) asosida Angliya va Amerikada detektiv nazariyasi bo‘yicha ko‘plab maqolalar nashr etilgan. Shunday qilib, 1902 yildan boshlab ingliz essenavisi, faylasuf va yozuvchi G.Chesterton o‘zining bir qancha tanqidiy maqolalarini detektiv janrga bag‘ishladi, u nafaqat detektiv asar yaratish tamoyillari va qonuniyatlarini ko‘rib chiqadi (“Detektiv hikoya qanday yoziladi?”, 1925), balki detektiv hikoyaning tuzilishi jiddiy tarkibga ega bo‘lishi kerakligini asoslaydi (“Ideal detektiv”, 1930). Shuningdek, u detektiv adabiyot mashhurligining yashirin psixologik sababini ham ochib beradi (“Mudofaada”, 1902). 1924 yilda ingliz detektiv hikoyasining yetakchi ustalari Frimanning “Detektiv san’ati” maqolasini nashr ettirishadi. Muallif tomonidan qo‘llangan barcha mulohaza va dalillar “detektiv hikoya yaxshi adabiyot bo‘lishi mumkin va detektivni chuqur anglovchilar buni ijobiy qabul qiladilar, chunki bu ularga aqlning intellektual gimnastikasida qatnashish va undan zavqlanish imkonini beradi. O‘qish qanchalik qizg‘in bo‘lsa, mos keladigan o‘quvchilarning ehtiyojlari shunchalik to‘liq qondiriladi”[], – degan fikrlarni isbotlashga qaratilgan. Amerikalik jurnalist, san’atshunos va yozuvchi U.Raytning (S.Van Dayn taxallusi bilan ham mashhur) “Buyuk detektivlar”, “Dyetektiv romanlar yozishning yigirma qoidasi” va boshqa bir qator asarlari paydo bo‘ldi. Ularda muallif bir qancha muhim muammolarni hal qiladi. U professor va jamiyatning ziyoli qatlami bunday romanlarni “yengil-yelpi” deya baho berishlarining sabablarini tushintirishga harakat qiladi. Rayt yana bir asarida detektiv janrining qonuniyatlarini ochib berib, yaxshi detektiv yozmoqchi bo‘lganlar uchun nazariy ko‘rsatmalarni shakllantirdi. Bu, muallif ta’kidlaganidek, “qisman detektiv janrining barcha buyuk ustalari amaliy tajribasiga va qisman halol yozuvchining vijdon ovoziga asoslangan o‘ziga xos detektiv e’tiqodidir”[]. Detektiv roman yozish bo‘yicha yana bir qo‘llanma 1929 yilda ingliz R.Noks tomonidan tuzilgan. Teologik va cherkov faoliyatini detektiv romanlar yozish bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirgan R.Noks tanqidiy maqolalar ham yozadi. Ular orasida “Detektiv fanning o‘n amri” kichik istehzoli maqola borki, uning boshida R.Noks: “Detektiv charchab qolish ehtimoli bilan tahdid qilmoqda. Syujetlar borgan

sari takomillashib, kitobxonlar ham murakkablashib bormoqda. Hozirgi kunda zukko kitobxonlar tomonidan tan olinmaydigan adabiy-detektiv asar yozish kerak emas", – deb ta'kidlaydi[]. R.Noksning fikricha, detektiv janri, bir tomondan, yangilanishni, ikkinchi tomondan, asosiy tamoyillarga qaytishni talab qiladi.

Detektiv – izlanuvchanlik va mantiqning ajoyib maktabi, u eng olijanob quvonchni – "mushaklarning bilim hissi" quvonchini beradi[]. Janrning o'ziga xosligi va detektiv tuzilishi masalalari mashhur rus rejissyori, csyenariynavis va o'qituvchisi S.M.Eyzenshteynning XX asrning 30-yillarida Kinematografiya instituti rejissyorlik bo'limi talabalariga o'qigan ma'ruzalarida yoritib berilgan. Ushbu janr kinematografik materiallarni jamlaydi. S.M.Eyzenshteyn detektiv qissani "adabiyotning eng samarali janri" va "odamni undan (detektivdan) uzib bo'lmaydi", deb ta'kidlaydi[]. U shunday vositalar va texnikalar bilan qurilganki, odamni o'qishga jalb etadi va bog'laydi. Detektiv hikoya boshqa qator adabiyotlardagi eng kuchli vosita, eng nafis qurilishdir. Bu ta'sir vositalari chegaralangan janrdir"[].

Detektiv adabiyotni o'rganishning keyingi bosqichi urushdan keyingi davrga to'g'ri keladi. 1948 yilda ingliz shoiri va faylasufi, detektiv U.Odenning ishtiyoqli muxlisi Uinks Robin U. (Winks, Robin W) "Vikar uyidagi jinoyat" essesida ushbu janrning jozibadorligini tushuntirishga harakat qiladi. "Men uchun boshqalar kabi, detektiv hikoyalarni o'qish tamaki yoki spirtli ichimliklar bilan bir xil giyohvandlikdir. Buning alomatlari ravshan: birinchidan, jozibadorlikning qaytarilmasligi, agar biror bir ishim bo'lsa, men ehtiyot bo'lishim kerak, detektiv mening qo'llarimga tushmasin, chunki uni ochishim bilanoq, men boshqa ishlamayman. Men uni o'qib tugatmagunimcha ishlash yoki uxlash imkoniyatiga ega bo'lmayman. Ikkinchidan, uning o'ziga xosligi: kitob ma'lum qoidalarga mos kelishi kerak. Uchinchidan, ta'sirning qisqaligi. Men detektiv hikoyani o'qib bo'lgach, mazmunini unutaman…"[]. Shuningdek, u detektiv hikoyani yaratishda muhim rol o'ynaydigan ba'zi fikrlarni izchil muhokama qiladi. V.Oden detektiv hikoyaning majburiy komponentlarini (sahna, qurbon, qotil, gumonlanuvchilar) va klassik detektiv hikoyaning Sherlok Xolms (Artur Konan Doyl), Inspektor Franwuz (Friman Uills Krofs) va Pater Braun (Chesterton) kabi eng muhim mualliflari hamda qahramonlarini nomlaydi. Shunga o'xshash masalalar Raymond Chandlerning "Oddiy o'ldirish san'ati" (1950), Jak Barzinning "Detektiv tergov va adabiy san'at" (1961), , fransuz tadqiqotchilar P. Boile va T. Narseyakning "Detektiv estetikasi" (1961) asarlarida yoritilgan.

Ingliz tadqiqotchilari D. Sayersning "Ingliz detektiv romani", V.Moyemning "Detektivning tanazzuli va qulashi" asarlarida detektiv janri aks ettirilgan bo'lib, uning adabiyot janri sifatida shakllanishi va rivojlanishi tarixi, milliy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ular detektiv janri haqida bildirilgan ba'zi e'tirozlarni ko'rib chiqishadi, ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilishadi. Rus shoiri va yozuvchisi, publisist va adabiyoshunos K.Chukovskiy ham shunday tanqidchi sifatida faoliyat yuritgan. "Trillerlar va chillers" (1969) maqolasida detektiv fantastikadagi bunday jadal rivojlanishga va miqdorning sifatdan ustunligiga qarshi chiqadi: "Bu, aslida, juda tor janrning ajoyib darajada keng, chinakam okeanik ko'lami kishida xavotir uyg'otadi. Bu adabiyot o'quvchining soddadil, ishonuvchan bo'lishiga yo'l qo'ymaydi"[]. Lekin, shu bilan birga, K.Chukovskiy klassik detektivning ahamiyati va

sifatini zarracha inkor etmaydi hamda “bu janrning eng zo‘r ustalari romanlari sahifalarida dunyoqarashni ochib beradigan mulohazali odamlar paydo bo‘ladi”, – deb ta’kidlaydi, “Yigirmanchi asr o‘rtalaridagi detektiv fantastikaning yildan-yilga keskinroq namoyon bo‘layotgan bu xususiyatlari uni yaratgan yozuvchilarga emas, balki uning fikri, didi va talablari ushbu kitoblarda ko‘zgudek aks etgan ommaviy iste’molchiga xosdir.”[], deb ta’kidlaydi.

Keyingi davrda, ya’ni 1970 yildan boshlab detektiv adabiyotga turli millatlar tanqidchilarining qiziqishi ortdi. Avvalgidek ingliz mualliflari (J.Fovlek, R.Bernard) bunga katta e’tibor berishadi, ular detektiv ustalari Konan Doyl, Agata Kristi, Uilki Kollinz va boshqalar ijodini tahlil qilishadi. Yozuvchi va publisist Jon Faulz 1974 yil “Konan Doyl” essesida birinchi marta (ilgari detektiv, asosan, adabiy pozisiyalardan hisoblangan) Konan Doyl asarlarining lingvistik, ya’ni stilistik tomoniga ishora qiladi. U detektiv hikoyalar matnlarida muallif tomonidan qo‘llanadigan nutqning asosiy turlarini (hikoya, tavsif, mulohaza yuritish) ko‘rib chiqadi, shuningdek, uning dialogni hikoya bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirishdagi o‘ziga xos qobiliyatini ochib beradi: “Doyl barcha romannavislarga tanish bo‘lgan muammoni hal qilishga muvaffaq bo‘ldi, ya’ni dialogning rivoyat bilan tabiiy mos kelmasligi muammosini hal qildi. Bundan tashqari, birinchi marta adabiy va lingvistik xususiyatga ega detektiv janrdagi asarlar materiallari bo‘yicha amalga oshirilgan alohida dissertasiyalar paydo bo‘ldi (Ye.F.Shcherbina “Detektiv hikoyadagi kirish paragrafining tarkibiy-semantik va funksional xususiyatlari” (1982), I.B.Prosenko “Edgar Allan Po romanistik nasrining estetikasi” (1981) va b.). Bu davrdagi rus (sovet) olimlarining filologik tadqiqotlari, asosan, detektiv janri poetikasiga (A.Vulis), uning milliy turlariga (Yu.V.Kovalyov), zamonaviy detektivning yozishmalarga mos kelmasligiga bag‘ishlangan edi. XX asrning 90-yillarida detektiv janrdagi adabiyotga qiziqish ortdi va ko‘plab yangi mualliflar paydo bo‘ldi, hozirda detektiv hikoya yozuvchilar va kitobxonlar orasida mashhur janrga aylanib bormoqda. Adolat uchun shuni ta’kidlash kerakki, bular, qoida tariqasida, kitoblar, qisqa maqolalar, insholar, eslatmalar va hatto felyetonlardagi alohida boblardir. Ammo ular mavjud, ularning ko‘plari hozir ham bor va ularning mavzulari juda xilma-xildir, bu esa tadqiqotchi va yozuvchilarning ushbu janrga qiziqishini tasdiqlaydi. Bu asarlarda mualliflar turli masalalarga murojaat qiladilar: detektivning janr sifatida paydo bo‘lishi tarixiga (S.Bavin “XX asr xorij detektivi” mashhur bibliografik ensiklopediyaga so‘zboshi” (1991), A.Goryanin “Piggi banki va detektivlar haqida” (1992), M.Tugusheva “Keling, detektiv haqida gapiraylik” (1991), M.Slavinskiy “Detektiv: janr anatomiyasi” (1997)) kabi g‘arb ustalarining alohida asarlari tahliliga (Yu.K.Shcheglov “Detektiv hikoya tuzilishini tavsiflash to‘g‘risida” (1992), A.A.Piruzyan “Agata Kristi detektivlari va Shekspir tragediyalari olami, V.M.Nazares va Artur Konan Doyl” (1999), janrni o‘rganish muammolariga (V.V.Melnik “Detektiv janr adabiyotining kognitiv-evristik ahamiyati” (1992), O.Yu.Ansiferova “Detektiv janr va romantik badiiy tizim”, M.Novikova va O.Drum “Detektiv ramzi”, N.Zorkaya “Detektivni o‘rganish muammolari: nemis adabiyoshunosligi tajribasi” (1996), N.Gorlanova “Covet detektivi” (1999).

Oldingi davrlarda bo‘lgani kabi xorijiy va mahalliy mualliflar ham klassik detektiv hikoya mavzusiga murojaat qilishadi. G.Chesterton, Ye.Po, K.Doyl va

boshqalar ijodiga bag‘ishlangan ko‘plab asarlar nashr etilgan (L.Romanchik “Chesterton romanistik sikli” (2002), A.Qo‘shtalov “Konan Doyl siri” (2006), K.Pittard “Viktoriya detektivi” (2003), A.Borisenko “Faqat Xolms emas” (2008), P.A.Moiseyev va N.N.Volskiy “Edgar Poning rus o‘tmishdoshlari: Chulkov, Baratiynskiy, Zagoskin” (2010), O.Ponomareva “XX asr boshidagi fransuz detektiv hazil romanining lingvistik va pragmatik xususiyatlari” (2007).

XXI asrda detektiv asarlar tadqiqot geografiyasi syezilarli darajada kengaydi: belorus, ozarbayjon, tatar, ispan, fransuz, ukrain, rus detektivlarini o‘rganishga oid asarlar mavjudki (S.Mir-Bagirova “Ozarbayjonda detektiv janr” (2002), Byazlepkin “Belorus detektiv hikoyasi: janrning o‘ziga xos xususiyatlari” (2003) va b.), bu tadqiqotchilarning taqdim etilgan janrga qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi. Bu davrda yuzaga kelgan detektiv asarlar tadqiqining yana bir muhim jihati uni ommaviy madaniyat kontekstida ko‘rib chiqishdir. Bunday maqola mualliflari detektiv asar zamonaviy o‘quvchiga nima berishini, uning vazifalari nimadan iboratligini, bunday asarlarni o‘quvchilar sonining ko‘payish sabablarini aniqlashga harakat qilmoqda. Xuddi shunday muammolar V.Vladimirovning “Detektiv - zamonaviy madaniyat hodisasi sifatida”, O.Kozarogning “Ommaviy adabiyotning oltin davri” maqolalarida, M.Skaliskiyning “Detektiv fenomeni”, M.Chernyakning “XX asr ommaviy adabiyoti fenomeni”, T.Tveritinovaning “Yengil madaniy jarayondagi detektiv” asarlarida tahlil etilgan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, so‘nggi o‘n yillikda detektiv asarlarni tekshirishning tematik doirasi tobora kengayib bormoqda. Shuningdek, bu davr detektiv asarlari yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlarning rivojlanishidagi yana bir muhim xususiyat sifatida filologiya sohasida bu masalaga jiddiy e’tibor qaratila boshlashidir. Mahalliy va xorijiy detektiv asarlarning materiallari turli aspektlarda va turli yo‘nalishlarda, jumladan, adabiyot nazariyasi va tarixi, lingvistika, xorijiy tillar, til nazariyasi, tarjimashunoslik va boshqa yo‘nalishlarda o‘rganilishidir. Bu haqdagi batafsil ma’lumotlar E.N. Gerasimenkoning “Zamonaviy tilshunoslar nazarida detektiv” maqolasida berilgan. Unda ukrain va rus filologlarining detektiv hikoyalarning lingvistik va stilistik xususiyatlari, ularning matn tuzilishi, diskursiv makon va konsepsiya sohasi, detektiv matnlarning semantikasi va pragmatikasiga bag‘ishlangan asarlari tahlili berilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dyetektiv asarlarni lingvistik aspektda tadqiq etish, sosiolingvistik, lingvokulturologik, psixolingvistik tarjima nazariyasi va bizning nazarimizdan chetda qolgan boshqa ko‘plab nazariy va amaliy masalalarning yechimi yuzasidan ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Анцыферова О. Ю. Детективный жанр и романтическая художественная система // Национальная специфика произведений зарубежной литературы 19-20 вв. Иваново, 1994. - С. 21-36.

2. Как сделать детектив / сост., пер. Г. Анджапаридзе. – Москва., 1990. – С. 32–78.

3. Эйзенштейн С. Литература в кино / С. Эйзенштейн // Вопросы литературы, 1968. – № 1. – С. 102.

4. Detective Fiction // A Collection of Critical Essays [ed. R.I. Winks]. – New Jersey: Prentice-Hall Englewood Cliffs, 1980. – P. 15-24.

5. Чуковский К. И. Триллеры и чиллеры / К. И. Чуковский // Книжное обозрение, 1997. – № 31. – С. 39–47.

6. Разин В. М. В лабиринтах детектива. Очерки истории советской и российской детективной литературы XX в. / режим доступа: http://www.rulit.net/author/razin-vladimir

7. Фрэй Дж. Как написать гениальный детектив / Дж. Фрэй [пер. с англ. Н. Буля]. – СПб.: Амфора, 2005. - С. 226.

8. Герасименко Э. Н. Детектив глазами современных лингвистов / Э. Н. Герасименко // Научн. журнал: Культура народов Причерноморья. – Тавр. нац. унив. им. В. И. Вернадского, 2011. – № 211 – т.1 – С. 120.

9. Khursanov N.I. (2022) Types of Semantic Transference in Dramatic Discourse (On The Example of Uzbek and English Texts) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 12, Issue 04, April 2022 SJIF 2022 = 8.252 A peer reviewed journal. DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00252.X

KONSEPT MILLIY MADANIY TUSHUNCHA SIFATIDA

Davletnazarova Laylo Baxtiyarovna
O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
O‘qituvchi,
davletnazarova@uzswlu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada konsept atamasi muayyan hodisaning barcha psixik belgilarini o‘z ichiga olgan, uning rivojlanishining ma’lum bir bosqichida odamlarning ongida aks ettirilgan va voqelikni idrok etishni ta’minlovchi xalq tafakkur birliklarining tartibli majmui ekanligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Konsept, konseptual maydon, dunyoning lingvistik manzarasi, lingvokultrologiya, metatil, paremiologik zona.

Annotation: In this article, the term concept refers to an orderly set of units of folk thinking that includes all the mental features of a particular event, reflected in the minds of people at a certain stage of its development, and provides an understanding of reality.

Keywords: Concept, conceptual field, linguistic landscape of the world, lingvocultrology, metatyl, paremiological zone.

Аннотация: В данной статье под понятием понимается упорядоченная совокупность единиц народного мышления, включающая в себя все психические особенности того или иного события, отраженные в сознании людей на определенном этапе его развития, и обеспечивающие понимание действительности.

Ключевые слова: Концепт, понятийное поле, языковой ландшафт мира, лингвокультурология, метатиль, паремиологическая зона.

“Konsept” atamasi so‘nggi o‘n yilliklar ichida tilshunoslikning eng ko‘p tadqiq qilinadigan obyektiga aylanib ulgurdi. Tilshunos olimlar tomonidan har bir so‘zni konsept sifatida o‘rganish, uning lingvomadaniy jihatlarini turli aspektlardan yoritib berish bo‘yicha ilmiy poyga boshlangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Konseptsiya lingvokulturologiya metatilining asosiy atamasi sifatida tan olingan, u dunyo tasvirining tarkibiy elementini belgilashga xizmat qilib til, ong va madaniyatni har tomonlama o‘rganishga yo‘naltiradi [9, 312]. S.X. Lyapin konseptsiya tuzilishiga shunday ta‘rif beradi: “Konseptning eng keng tarqalgan talqini - yadro va undagi periferiya o‘rtasidagi farq” [10, 79-99]. Ko‘pgina tilshunoslar konseptsiyani konseptual, majoziy va qiymat komponentlarini o'z ichiga olgan ko'p o'lchovli ideallashtirilgan shakllanish sifatida tan oladilar.

Kognitiv lingvistikada dunyoning lingvistik manzarasida konsept tuzilishini tavsiflashning turli usullari mavjud. Ulardan eng mashhurlari tilshunos olimlar A.Vejbitskaya, E.S.Kubryakova, V.A.Maslova tadqiqotlaridir. Kognitiv tadqiqotlarda taqqoslash uchun asos sifatida konseptual xususiyat tanlanadi. Konseptual xususiyatlar odamlar ongida tevarak-atrofdagi olam hodisalari va predmetlarining xossalarini aks ettiradi va til birliklarining ma’nolari orqali izohlanadi, deb ishoniladi. Konseptual xususiyatlardan kelib chiqib, turli tillarda qayd etilgan taqqoslanadigan voqelik obyektlarining xususiyatlarini aniqlash va o'rganilayotgan tillarning har birida obyektlar haqidagi u yoki bu ma'lumotlar qanday yangilanishini aniqlash mumkin.

“Konsept” tushunchasi lingvokulturologiyaning asosiy kategoriyalaridan biridir. Konseptsiya tushunchasi birinchi marta 1928-yilda S.A.Askoldov-Alekseev tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, u konseptsiyani quyidagicha ta’riflaydi: “Konseptsiya aqliy shakllanishdir. U bizni tafakkur jarayonida bir xil turdagi obyektlarning noaniq to‘plamini shakllantiradi” [1, 267-279]. Hozirgi rus tilining kesimi bo‘yicha konseptni Yu.S.Stepanov [2, 824], S.G. Vorkachev, L.O. Cherneiko, E.S.Kubryakova, N.D. Arutyunova, Z.D.Popova [3, 314], A.D.Shmelev, Yu.E.Proxolov, I.A.Sternin va boshqalar o‘rganishgan.

Konseptsiya madaniyatga xos bo‘lib, uni miliy mentalitetni ochib beruvchi bir yirik yo‘l sifatida ko‘rish mumkin. Yu.S.Stepanov konseptsiyani inson ongidagi madaniyat o‘chog‘i, uning shaklida madaniyat insonning ruhiy dunyosiga kiradigan narsa deb hisoblaydi [2, 824]. Konseptlar - bu inson xotirasida muhim ongli ravishda tipiklashtirilgan tajriba qismlarini saqlash uchun mo‘ljallangan aqliy shakllanishlar.

Keyingi yillarda konseptsiyani o‘rganishda konseptiv maydon usuli keng qo‘llanila boshlandi. “Konseptual maydon bu ma’lum bir iyerarxiyada belgilangan, shuningdek, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tushunchalar yig‘indisidir. Dunyoning lingvistik manzarasida turli nominatsiya usullari orqali repressiya qilingan o‘zaro kesishuvchi kognitiv tuzilmalardir”. Konseptual maydon dunyo manzarasining lingvistik birliklarida mustahkamlangan o‘z ichiga olgan kategoriyadir. Shunday qilib, konseptual maydon tizimli ravishda tashkil etilgan va dunyoning lisoniy manzarasi u orqali tadqiq etilishi mumkin bo‘lgan alohida bir jihat sifatida bahslashish mumkin [4, 230-232].

Konseptual soha murakkab kognitiv tuzilmadir. Paremiologik zona esa konseptual sohaning tarkibiy qismidir. U alohida-alohida tavsiflanadi va asosan konseptsiyaga munosabat va odamlarning ushbu tushunchaning turli tomonlarini tushunishi haqidagi

tarixiy g‘oyalarni aks ettiradi [5, 22]. Paremiologik zona - bu maqollar, matallar va aforizmlar bilan obyektivlashtirilgan tushunchaning kognitiv xususiyatlari to'plamidir [5, 22]. Maqollarni tahlil qilish milliy lingvomadaniy jamoaning bilish belgilari va xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi.

Jamiyatdagi ko‘pgina sohalar jadal rivojlanayotganligi sababli tilshunoslikda til, madaniyat va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlar masalasi juda dolzarb bo‘lib bormoqda. Odamlarning murakkab lingvistik ongining mazmunini o‘rganish uchun kognitiv fan dunyoning lingvistik manzarasini tashkil etuvchi tushunchalarga alohida o‘rin beradi. Konseptsiya deganda ideal obyektlarning psixik modeli, dunyoni lingvistik qarash kategoriyasi deb tushuniladi, u dunyoning obrazli modeli, milliy-madaniy mentalitetning ham “yaratuvchisi”ga, ham mahsuliga aylanadi. Konseptsiya lingvokognitiv hodisa sifatida “xotira, aqliy leksika, konseptual tizim va miya tilining operativ mazmunli birligi, inson psixikasida aks ettirilgan dunyoning butun tasviri”lar bilan tarkib topadi [6]. Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil va faol rivojlanayotgan sohasi bo‘lib, u tilda aks ettirilgan va mustahkamlangan xalq madaniyatining namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqish bilan shug‘ullanadi. Shu bilan birga, madaniyat deganda, qandaydir mavhum, umuminsoniy mazmunda bo‘lgani kabi, inson ongining chuqur tuzilmalari, inson voqeligini tashkil qilish usullarining xususiyatlari va xarakterli xususiyatlar mavjud bo‘lgan universalliklar tizimi tushuniladi, jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar ko‘lami birlashtiriladi.

Muayyan etnik-madaniy jamoa dunyoqarashining milliy o‘ziga xosligi xalqning turmush tarzi va psixologiyasidan kelib chiqib, tilda til belgilarining semantik tuzilishi bilan namoyon bo‘ladi. Har bir madaniyat o‘ziga xos tushunchalarga ega. Ular lingvistik ongda mavjud bo‘lib, shaxsning o‘z-o‘zini anglashi bilan bog‘liq. “Konsept” inson ongida o‘ziga xos madaniyat laxtasi ekanligi umume’tirof etilgan; uning ruhiy dunyosiga qaysi shaklda madaniyat kiradi. Konseptsiya - bu madaniyatga qandaydir “madaniy qadriyatlar yaratuvchisi” emas, balki oddiy odamning o‘zi kirib keladigan narsadir va ba’zi hollarda unga ta’sir qiladi. Ma’lumki, konseptsiya murakkab tuzilishga ega. Bir tomondan, konseptsiya tuzilishiga tegishli bo'lgan hamma narsa unga tegishli; boshqa tomondan, konseptsiya tarkibiga uni madaniyat faktiga aylantiradigan hamma narsa - tarix mazmunining asosiy xususiyatlariga siqilgan asl shakl (etimologiya), zamonaviy assotsiatsiyalar, baholar va boshqalar kiradi.

Lingvokulturologiyaning birligi konseptsiyadir (lotincha *conceptus* — tushuncha). Yuriy Stepanovning ta’kidlashicha, “Konseptsiya inson ongidagi madaniyat laxtasiga o‘xshaydi... va, ikkinchi tomondan, konseptsiya insonning o‘zi madaniyatga kirib boradigan narsadir” [7, 43]. Shunday qilib, tushunchalar madaniy dominantlar, noyob madaniy doimiylik sifatida namoyon bo‘ladi.

Lingvomadaniy tushuncha deganda til, ong va madaniyatni har tomonlama o‘rganishda qo‘llaniladigan shartli psixik birlik tushuniladi. Lingvomadaniy konseptsiyaning uchta nomli soha bilan o‘zaro bog‘liqligi quyidagicha ifodalanadi: ong - tushuncha sohasi; madaniyat tushunchani belgilaydi; til va/yoki nutq konseptsiya obyektivlashtiriladigan sohalardir. [8, 50-57]. Konseptsiyalar xalq hayotida muhim rol o'ynaydigan va tilda aks ettirilgan qadriyatlarni aks ettiradi. Odamlar uchun eng yorqin va eng muhim birlashmalar konseptsiyaning o‘zagini tashkil qiladi, unchalik muhim

bo‘lmagan uyushmalar esa atrofni tashkil qiladi. Inson ongining konseptual apparatining asosiy elementi bo‘lgan konseptsiya murakkab tabiatga ega universal hodisadir. Shubhasiz, shunday tushunchalar mavjudki, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning tushunchalari sohalari kesishishi, bir-birini konkretlashtirishi va to‘ldirishi mumkin. Bunday murakkab hodisalarni o‘zaro bog‘liq komponentlar orasidagi yaqin assotsiativ va differensial bog‘lanishlar tufayli giperkonseptsiya deb atash maqsadga muvofiqdir. Bunday hodisalar tadqiqotchilar uchun alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki ular konseptual apparatning chuqur universalligini ochib berish uchun keng istiqbollarni yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аскольдов А.С. Концепт и слово. // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология / под ред. проф. В. П. Нерознака. – М.: Academia, 1997. – С. 267-279.

2. Степанов Ю.С.Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. М.: Языки русской культуры, 1997. – 824с.

3. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314 с.

4. Ключевская А.Ю. Динамика концэптуального поля "Агрессия" в зеркале лексикографии // Вестник Орловского государственного университета. Серия. Новые гуманитарные исследования. – 2011. – No 2. – С. 230-232с.

5. Ломоносова Ю.Е. Концептуальное поле "Атмосферные явления“ во французской языковой картине мира: автореф. дис. ... канд. Филол. Наук. – Воронеж, 2008. – 22 с.

6. Маслова В. А., 2008, Введение в когнитивную лингвистику, Москва: Флинта: Наука.

7. Степанов Ю. С., 2001, Константы: Словарь русской культуры, Москва: Академический проект.

8. Карасик В, И., Слышкин Г. Г., 2003, Лингвокультурный концепт как элемент языкового сознания. Методология современной психолингвистики, Москва-Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, с. 50-57.

9. В. И. Постовалова. Язык и миропонимание: Опыт лингвофилософской интерпретации. – М.: ЛЕНАНД, 2017. – 312 с. (История лингвофилософской мысли). (19,5 п.л.). Формат 60 х 90 / 16. Тираж б/у. ББК 71 81.2 - 3 87. 21. ISBN 978-5-9710- 4268-6.

10. Ляпин С.Х. Концептология: к становлению подхода. Язык и этнос: Российская лингвокультурология. Тексты. — Сост. С. Г. Воркачев, В. И. Карасик. — 2012. — с. 73-99.

CHINGIZ AYTMATOV IJODIDA ODOROKOLOFONISTIK BIRLIKLARNING BADIIY-ESTETIK VAZIFALARI VA ULARNI O‘RGANISHNING DOLZARBLIGI HAQIDA

Abdusalamova Lobar Akbar Qizi
“Ipak yo’li” turizm va ma’daniy meros xalqaro universiteti
1-kurs tayanch doktoranti
e-mail: cool.abdusalamova@mail.ru

Annotatsiya. Chingiz Aytmatov ijodida odorokolofonistik birliklarning badiiy-estetik vazifalari va ularni o’rganishning dolzarbligi haqida. Maqola turkiy tilliy jahon adabiyotining yorqin vakili, buyuk qirg’iz yozuvchisi Ch.Aytmatov ijodining zamonaviy adabiyotshunoslikda hali o’rganilmagan qirralarini, xususan, odorokolofonistik detallarning badiiy matndagi badiiy-estetik vazifalari, ularning roli va matn poetikasidagi ahamiyatini o’rganishga va ilmiy asoslashga bag’ishlanadi.

Kalit so’zlar: badiiy matn, matn poetikasi, poetik tahlil, poetik-struktur tahlil metodi.

Аннотаця. О художественно-эстетических функциях и актуальности исследования одороколофонических деталей в творчестве Чингиза Айтматова. Статья посвящена исследованию и научному обосновании художественно-эстетических функций, роли и значений в поэтике текста одороколофонических деталей, неисследованных граней творчества Ч. Айтматова в современном литературоведении.

Ключевые слова: художественный текст, поэтика текста, поэтический анализ, метод поэтико-структурного анализа.

Abstract. The article is about the artistic and aesthetic functions and relevance of the study of odorocolophonic details in Chingiz Aitmatov`s works. It is devoted to the study and scientific substantiation of the artistic and aesthetic functions, role and meanings in the poetics of the text of odorocolophonic details, unexplored facets of Ch. Aitmatov's work in modern literary criticism.

Key words: literary text, text poetics, poetic analysis, method of poetic-structural analysis.

Bugungi kun jahon adabiyotshunosligi umumbashariy madaniyatshunoslikning ajralmas qismi sifatida o’ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Hozirda zamonaviy adabiyotshunoslikning asosiy vazifalaridan biri badiiy matnning asosiy xususiyatlaridan bo’lgan ichki tuzilishini tushuntirib berish va ilmiy idrok etishdan iboratdir. Bu jarayon an’anaviy va yangidan shakllangan lingvopoetik va adabiy-badiiy hodisalarni o’rganishda alohida yondashuvlardan foydalanishni taqozo qiladi.

Zamonaviy filologiyada yaxlitlik xususiyatiga ega badiiy matnga, ayniqsa, uni poetika nuqtai nazaridan tahlil qilishga qiziqish nihoyatda katta va bu ko’p qirrali o’rganish ob’ekti turli tadqiqot sohalari doirasida o’rganilayotgan asosiy muammoga aylangan. Poetik tahlilning zamonaviy yo’nalishlari, badiiy matnning mikro detallari, xususan, odorokolofonik birliklar tahliliga nisbatan qarashlar, hanuz shakllanish

bosqichida bo'lib, ular fanlararo, ayniqsa, poetik-struktur, pragmatik va kognitiv adabiyotshunoslik sohasidagi tadqiqotlar uchun dolzarb mavzudir. Dunyoning qator yetakchi ilmiy markazlarida hozirgi kunda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, jumladan, lingvopoetika, poetik struktur tahlil vositasida borliqning lingvistik va badiiy manzarasini o'rganish hamda madaniyatlararo aloqalar borasida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda alohida e'tibor yozuvchining ijodiy faoliyatida badiiy makonni idrok etish, asar mazmuni shakllanishi jarayonida kognitiv tuzilmalarning rolini aniqlash kabi muammolarga qaratilmoqda. Poetik tahlil usuli bevosita kognitiv modellashtirish usuli bilan bog'liq va uyg'un bo'lib, badiiy matnni nafaqat muallifni uning yaratuvchisi sifatida anglash, balki o'quvchi nuqtai nazaridan ham bu ijod mahsulini chuqur o'rganish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Kognitiv yondashuv esa matnning lingvopoetik tarkibi hamda matnda tasvirlangan badiiy mazmunni to'laqonliroq idrok etishni ta'minlovchi shakllar sathida, jumladan, odorizmlar, koloristik va fonologik detallar o'rtasidagi munosabatni ham aniqlash imkonini beradigan ikki va ko'p tomonlama dialogni nazarda tutadi hamda ularning tarjimada saqlanishini qiyoslashga va idrok etilishini baholashga yordam beradi.

XXI asrning birinchi choragida Mustaqil O'zbekiston xalqaro hamjamiyatda keng madaniy munosabatlarni o'rnatishga intilayotgan va bu borada dadil rivojlanayotgan har tomonlama ochiq jamiyatga aylandi. Chet tillari va chet el adabiyotini o'rganish xalqaro aloqalarni kengaytirish va o'zbek madaniyati namunalarini boshqa mamlakatlarda targ'ib etish hukumat darajasidagi jiddiy siyosat sifatida muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, jamiyatning zamonaviy taraqqiyot bosqichida, bir tomondan, chet ellik va milliy tadqiqotchilar diqqat markazida turgan, boshqa tomondan esa, O'zbekiston uchun ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy masalalarga e'tibor qaratish muhimdir. Bizning nazarimizda, turkiy tilli jahon adabiyotining so'zsiz ulkan vakili Chingiz Aytmatov ijodi poetikasi aynan ana shunday katta ilmiy ahamiyatga ega tadqiqot ob'ektidir. Adabiyotshunoslikda, xususan, qiyosiy adabiyotshunoslikda turli madaniy mintaqalarga mansub bo'lsada, o'zbek milliy adabiyoti va ma'naviyatiga katta ta'sir ko'rsatgan, alohida uslubi va badiiy ifoda tiliga hamda vositalariga ega ijodkorning so'z qo'llash borasidagi badiiy mahoratining o'ziga xos jihatlarini tadrijiy taraqqiyoti va badiiy poetikasini o'rganishga bag'ishlangan monografik plandagi ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Hozirgi qadar badiiy tili, so'z qo'llash mahorati va asarlarida tasvirlangan odorokolofonik detallar poetikasi va ularning o'zbek tiliga tarjimada berilishi, shuningdek mazkur muammoga ingliz adabiyotshunosligining munosabati deyarlik o'rganilmagan buyuk qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov asarlarini tadrijiy planda, asarlarining o'zbek tiliga tarjima matnlarini keng jalb etgan holda, qiyosiy o'rganish adabiyotshunoslar e'tiboridan chetda qolib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida Ch.Aytmatov asarlarining uslubi, xalqona manbalari, ijodiy o'ziga xosliklari to'g'risida qator yirik tadqiqotlar e'lon qilingan bo'lsa-da, uning asarlarida odorizm-hid, koloristika-rang-tus, fonika yoki fonologiya-tovushlarni ifodalovchi birliklarning poetikasi, ularning asarlar badiyatidagi vazifasi va badiiy-estetik roli, mazkur masalaga jahon adabiyotshunosligining, xususan, nihoyatda muhim bo'lishiga qaramasdan, hatto ingliz adabiyotshunosligining o'tgan asrning

oxirlaridagi faol munosabati ham, aksariyat munaqqidlar nazaridan chetda qolib ketmoqda,[3] ayniqsa, bu detallarning o'zbek tiliga tarjimada berilishi va saqlanishi, yuqorida ta'kidlanganidek, umuman o'rganilmagan soha bo'lib qolmoqda.

Holbuki, bu ijodkor asarlarida ko'tarilgan tabiat va inson, keng va tor ma'nodagi ekologik muammolar orqali uning asarlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilgani namoyon bo'ladi va buni tasvirlashda odorokolofonik detallar alohida rolь o'ynaydi.[3] Shu bois Ch. Aytmatov ijodida uning asarlarini umumbashariy va milliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi, muallif uslubining betakrorligini ta'minlovchi odorokolofonik birliklar poetikasi va ularning o'zbekcha tarjimasi, original matni bilan qiyosi hamda idrok etilishi, XX asr so'nggida ingliz adabiyotshunosligida ushbu masalaning ishlanishiga alohida e'tibor bergan holda ilmiy tahlilga tortish, zamonaviy adabiyotshunoslikning eng dolzarb masalalaridandir. Chunki Ch.Aytmatovning asarlarining tiliga xos odorokolofonik birliklar uning ijodini ilk boshidan turli badiiy-estetik vazifalarni, jumladan, shakl va janr yaratuvchanlik, xarakter va badiiy g'oyani yetkazuvchilik vazifalarini bajarganligi, agar rang, hid va tovush ifodalovchi lisoniy birliklarning motiv sifatidagi falsafiy mazmuniga e'tibor qaratsak ular zamirida juda katta ma'no yotganligini ko'ramiz.

Xususan, "Tog' va cho'llar qissasi" – yozuvchi aytib adabiyotga kirib kelgan davrda yaratilgan "Yuzma-yuz", "Jamila", "Bo'tako'z", "Sarvqomat dilbarim", "Birinchi muallim" asarlarining sarlavhasidayoq, odorokoloristik motivlar zoxarligi ko'zga tashlanadi. Masalan, "Sarvqomat dilbarim" – "Тополек мой в красной косынке" [2] qissasi nomlanishida "красной косынка" –"qizil ro'mol" iborasida rang-koloristik detalni kuzatsak, "Bo'tako'z" - "Верблюжий глаз", "Yuzma-yuz-"Лицом к лицу" asarlarida ham yashirin ifodalangan koloristik ohorni anglash mumkin. "Ona makon", "Alvido, Gulsari" qissalari sarlavhasida ham koloristik unsur mavjud. Ma'lumki, umumturkiy o'zakka ega Gulsari leksemasi zamirida (bu yerda otning laqabi) "sariq gul" lug'aviy ma'nosi yotibdi. Qirg'izchadan xabardor kitobxon buni darrov anglaydi. Shu bilan birga, omonimlik xususiyatiga ega sari-sariq tushunchasining sara-tanlangan ma'nosidagi variativi ham bo'lishi mumkinligini e'tiborga olish joiz. Ijodining gullagan davrida mavzuimiz nuqtai nazaridan o'ta qiziq bo'lgan "Oq kema" ("Ertakdan so'ng") qissasi, "Erta uchgan turnalar", "Dengiz bo'ylab chopayotgan Olapar", Kaltay Muxammedjanov hammuallifligida yozilgan "Fudziyamaga yo'l" pyesasi yaratiladi. Asarlar uslubi, mavzusi, g'oyasi va janri nuqtai nazaridan bir-biridan tubdan farqlanadi. Asarlar sarlavhasidagi ok, olapar kabi rang ifodalovchi tushunchalarning yozuvchining ijodiy yuksalishida alohida ahamiyat kasb etilganligiga e'tibor qaratish lozim. Bu davrda yozgan asarlarida yozuvchi insoniy borliqning ibtidosiga murojaat qiladi: shaxs vijdon iztirobiga uchraydi, jamiyat va uning tarixiy faoliyati – tabiiy ofatlar bilan yuzma-yuz keladi.

Any language unit can become a valuable instrument in a literary composition, serving the author's aesthetic aims while ignoring all original poetic laws. In truth, the richness of a particular language, the unrestrained scope of artistic possibilities, is exactly what happens in the literary text. An artist who is able to perceive the conceptual function of language, skillfully utilizes its rich expression capabilities, and skillfully implements them in the process of creation, is thus responsible for its own language. So, to conclude, according to the findings, onomastic units in literary texts perform not only nominative tasks, but also aesthetic and poetic functions, as well as several linguistic aspects.

REFERENCES

[1] Begmatov E.A. “O‘zbek tili antroponimikasi.” – Toshkent: Fan, 2013.

[2] Mirzaev I. “Onomastika tadqiqotlari haqida ba'zi fikrlar”. Onomastika. Ilmiy maqolalar to'plami. 1. – Samarqand, 2013.

[3] Деревяго А.Н. Текст текста недействителен. Москва, 2008.

[4] Oxunov N. Joy nomlari. - Toshkent: O'zbekiston, 1994 .

[5] Xudoyberdiyeva D. “Matnning antroposentrik tadqiqi” – Toshkent: Fan, 2013.

INGLIZ TILIDA SOMATIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Ergasheva Sojida
O‘zDJTU magistrant.
Reymov Beckenbauer Khodjametovich
Filologiya fanlari nomzodi (PhD), O‘zDJTU

Annotatsiya: Maqolada somatik frazeologik birliklarning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot berilgan. Mazkur maqolada ularning semantik-grammatik va funksional stilistik, strukturaviy xususiyatlarini ochib berish mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi. Ma’lumki, somatik frazeologik birliklar har bir xalqning ma’naviy madaniyati, kasbi, yashash sharoiti, urf-odati, voqelikka munosabati bilan uzviy bog’liqdir. Matnda somatik frazeologik birliklar obrazlilik va ekspressivlikni vujudga keltiruvchi muhim vositalar bo’lib, ular badiiy, siyosiy va publitsistik matnlarning ifodaviy ta’sirchanligini oshiradi.

Kalit so‘zlar: somatizm, ibora, frazeologiya, leksik-semantik, struktura, frazeologik birliklar, somatic frazologik birliklar,salbiy va ijobiy xarakter,pragmatik.

Annotation: The article provides information about the specifics of somatic phraseological units. The disclosure of their semantic-grammatical and functional-stylistic, structural features in these cases determines the relevance of this work. It is known that somatic phraseological units are inextricably linked with the spiritual culture of each nation, its profession, living conditions, traditions, attitude to action. In the text, somatic phraseological units are represented by significant means that create an image and virtuosity, they reflect the virtuosity of artistic, political and journalistic texts.

Keywords: somatism, word combination, phraseology, lexico-semantic, structure, phraseological units, somatic phraseological units, negative and positive character, pragmatic.

Аннотация: В статье представлена информация об особенностях соматических фразеологизмов. Раскрытие их семантико-грамматических и функционально-стилистических, структурных особенностей в данной статье определяет актуальность данной работы. Известно, что соматические фразеологизмы неразрывно связаны с духовной культурой, профессией, условиями жизни, обычаями и установками каждого народа. Соматические фразеологизмы в тексте являются важным средством создания образности и выразительности, повышают экспрессивную эффективность художественных, политических и публицистических текстов.

Ключевые слова: соматизм, словосочетание, фразеология, лексико-семантическая структура, фразеологические единицы, соматические фразеологические единицы, отрицательный и положительный характер, прагматика.

Nutq jarayonida inson oddiy so’zlardan tashqari turli xil barqaror frazeologik birliklardan foydalanadi. Bunday barqaror birliklar nutqimizni nafaqat boyitadi va ta’sirchan ham qilib yoritib beradi. Frazeologik birliklar har bir xalqning yil boyligi

hisoblanadi. Frazeologik birikmalar boshqa turlardan farqli o'laroq, nafaqat nutqda ishlatiladi, balki ular nutqda tayyor holda ishlatiladi. Frazeologik birliklarni biz Frazelogiya fani orqali o'rganamiz. *Frazeologiya* – bu shu fanning tarixiy holatidan hozirgi holatida o'zgarishlarni, uning rivojlanishini o'rganadigan fandir. Frazeologik birliklarni o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu paytgacha qanchadan qancha frazeologik birliklarning ustida ko'plab xulosalar amalga oshirilishiga qaramay, frazeologik birliklarni aniqlashda hali ham yagona yondashuv mavjud emas.

Ingliz tilida frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixi uzoq davrga borib taqaladi. Frazeologik birliklarni o'rganishda biz ularning etimologik tomoniga ahamiyat berish orqali ingliz xalqining boy madaniyati, turmush tarzini bilib olishimiz mumkin. Har qanday millat tili, uning tarixi, madaniyati bilan doimiy chambarchas bog'liqdir. Til inson hayotining tarixiy bir sharoitidagi serqirra faoliyati solnomasidir. Til insonning muloqat qurolidir. Tildagi frazeologik birliklar orqali ingliz xalqining sotsial, milliy xususiyatini, madaniy qadriyatlarini namayon qiladi.

Ingliz tilida Frazeologiyada somatik frazeologik birliklar alohida bir muhim tomonini qamrab oladi. Chunki somatik frazeologik birliklar eng ko'p uchraydigan frazeologik birliklar hisoblanadi. Somatik frazeologik birliklar tilda maqollar, matallar, afsonalar va ayniqsa tilning ichki imkoniyatlari orqali shakllanadi. Somatik frazeologiyaning eng ko'p ishlatiladigan sohalaridan bularga mahalliy va fantastika sohalari kiradi. Tilshunoslar somatik so'z birikmalariga 19- asrning oxiri va 21-asrning boshlarida diqqat bilan e'tibor qaratadigan bo'lishdi. So'z shakllanishida inson omili katta ro'l o'ynaydi. Frazeologik birliklarning aksariyati inson bilan bog'liqdir.

Somatizm komponenti – (yunon tilidan. soma – "tanasi") bu komponent inson va hayvon tanasining qismlarini ifodalovchi frazeologik birlik hisoblanadi. Inson tanasining qismlari aniq va ravshandir. Somatik frazeologik birliklar tarixan kam o'zgarishlarga uchragan. Somatik frazeologik birliklar konseptual g'oyalarni yangi faktlar bilan ifodalashda ishlatiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, somatizmlar, ayniqsa bosh, ko'z, tomoq, yurak, quloq, qo'l kabi tana qismlari bilan bog'liq bo'lganlar obrozli somatik frazeologik birliklarni shakllantirishda samaraliroqdir. bunday somatik frazeologik birikmalar nutqda asosan ekspressivlik va obrozlilik bilan barqaror so'z majmualarini yaratadi. Shuni ta'kidlash kerakki, somatik frazeologik birliklar har bir tilda so'zlashadigan xalqlarning madaniy va milliy dunyoqarashini o'z ichiga oladi. Somatik frazeologik birliklar rang barngliligi, obrozliligi, badiiy uslubiy xuxusiyati bilan ham keng qamrovga ega. Somatik frazeologik birikmalar insonning tafakkuri, harakati, nutqi, hissiyotlari, dunyoqarashi bilan bog'liqdir, Insonning o'z tanasini anglash, insonning o'z o'zini anglash jarayonini rag'batlantiradi. Somatik so'z boyligi bu leksik qatlamning shaxsning ongida shakllangan dunyo tasvirining tavsifinig muhimliginin ta'kidlaydi. Inson atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarni modellashtirish uchun somatic frazeologik birliklardan foydalanadi. Frazeologiyada faol bo'lgan somatik frazeologik birliklar dunyoni his qilish, uning o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lib, hayot, his tuyg'ular, jismoniy-aqliy mehnat, insonning tabiati bilan bog'liqdir.

Somatik frazeologik birliklarni biz virtual birliklar deb ko'rishimiz mumkin. Somatik frazeologik birliklar semantikasi ularning mantiqiy valentligini aniqlaydi, bu

sintaktik darajada amalga oshiriladi. Ko'plab somatik frazeologik birliklar kompozitsiyasi insonning turli hissiy reaksiyalarini ifodalaydi. Ularga ko'piga og'iz, yuz, ko'zlab kabi somatizmlarni o'z ichiga oladi. Inson tanasining bu orgonlari, ularning yuz ifodalari tufayli insonning his tuyg'ularini beradi.

Insonning aqliy faoliyati bosh bilan bog'liqdir. Chunki uning asosiy vazifalaridan biri bu uning fikrlash funksiyasi va bu miyaga bog'liqdir. Bu so'zning leksik semantik salohiyatini somatic frazeologik birliklarning asosiy komponenti sifatida belgilaydi. Somatik birliklardan **'bosh'** lekseminning bir qancha semantik tuzilishiga ega. Birinchisi bu tananing tepa qismi hisoblanadi. Ikkinchisi bu sizning miyangiz va o'y fikrlaringiz. Uchinchisi bu guruhlar boshi. Bundan ko'rinib turibdiki, bosh somatizmi aqliy faoliyat modelini amalga oshiradi.

Masalan: *If I can not find a job I will be able to get my head above water*.

bu misoldan ko'rinib turibdiki ' *get your head above water'* bosh bilan bog'liq somatik birlik orqali aqliy faoliyatni namayon etyapti.

● *Get your head above water*- ko'p qiyinchiliklarga qaramasdan hayotni davom etmoq.

Ba'zida 'bosh' bilan bog'liq somatic birliklarda salbiy ma'nolar ham uchraydi. Asosan hozirgi somatik birligimiz salbiy ma'noda ko'p ishlatiladi.

● *Get someone or something out of one's head*- hayolingizdan kimnidir yoki nimanidir chiqarib tashlash.

I am really upset that I can not get her out of my head.

Ma'lumki ko'z axborotning eng muhim manbai hisoblanadi. Ko'z somatizmida ko'plab birliklar border. Ko'z leksemasining bir qancha semantik tuzilishi mavjud. Birinchisi bu tananing ko'rish qismidir. Ikkinchisi kimningdir yuzini tasvirlash. Inson ko'zlari bilan atrofdagi dunyo haqida eng ko'p ma'lumot oladi. Ko'zlarning mavjudligi aqlning mavjudligi belgisidir.

Masalan: "*have eyes in the back of one's head' ; " eagle eye"*

"Luckily, Tom's eagle eye saw the discounted sweater I was looking for"

"My mom had eyes in the black of her head "

Boshingizni orqa tomonida ko'zlar bor – bu sizning atrofingizda va odamlarda sodir bo'lgan hamma narsani bilishdir. Agar biror kishi burgut kabi ko'zi bo'lsa ega bo'lsa, bu insonning eng kichik tafsilotlarini ko'rish qobilyatining belgisidir. Ochiq ko'zlar insonning sezuvchanligni, aql-idrokni anglatadi.

Ingliz tilida frazeologik birliklar fel, ot ,ravish ,sifat ,son ,olmosh ,boglovchiva predlogdan tashkil topgan strukturaviy xususiyatlari boyicha 2,3,4,5 va undan kop komponentli turlarga ajratiladi . Umumiy olganda shu paytgacha bo'lgan tadqiqotlar natijasida ingliz tilda frazeologik birliklarni hisoblaganda quyidagicha xulosaga kelingan:

● Fe'lli frazeologik birliklarning 142 ta 2 komponentli, 86 ta 3 komponentli, 34 ta 4 komponentli, 20 ta 5 komponentli va 50 ta 6 va undan ortiq komponentli, jami 332.

● Otli frazeologik birliklarning 96 ta 2 komponentli, 28 ta 3 komponentli, 17 ta 4 komponentli, 12 ta 5 komponentli va 34 ta 6 va undan ortiq komponentli, jami 187.

● Ravishli frazeologik birliklarning 2 ta 4 komponentli, 1 ta 6 va undan ortiq komponentli, jami 3.

● Sifatli frazeologik birliklarning 102 ta 2 komponentli, 65 ta 3 komponentli, 20 ta 4 komponentli, 15 ta 5 komponentli va 16 ta 6 va undan ortiq komponentli, jami 218.

● Sonli frazeologik birliklarning 1 ta 5 komponentli va 1 ta 6 va undan ortiq komponentli, jami 2.

● Olmosh frazeologik birliklarning 2 ta 3 komponentli, 5 ta 4 komponentli, 3 ta 5 komponentli va 17 ta 6 va undan ortiq komponentli, jami 27.

● Bog'lovchili frazeologik birliklarning 1 ta 3 komponentli, 1 ta 4 komponentli, 9 ta 6 va undan ortiq komponentli, jami 15.

● Predlogli frazeologik birliklarning 1 ta 2 komponentli, 5 ta 3 komponentli, 2 ta 4 komponentli, 3 ta 5 komponentli, jami 11.

Somatizmli frazeologik birliklarning strukturaviy va grammatik tasnifi quyidagi turlarini ajratishga imkon berdi: fe'l, substantiv, adverbial,adjektiv. Ingliz tilining somatizmlari bilan fe'lli frazeologik birliklar uchun strukturaviy turlar eng xarakterlilari.

V + N- make a fuss ; get a scare ; V + N + Prep- have the ballat one's feet

V + Adj + N- have a big heart ; V + Prep + N +N - hold at arm's length

V + prep + N- get in the neck ; V + n + prep + N- possess one's soul in patience.

Substantiv somatik frazeologik birliklar orasida ularning chastotasi tartibida quyidagi tarkibiy turlar mavjud:

Adj + N; n + prep + N; N + n; n + prep + mumkin bo'lgan pronoun + n; Adj + N + prep + N. N + conj + n; N + n-ed; Adj + N-ed; N + tayyorgarlik + V; Num + N.

Adverbial somatik frazeologik birliklar orasida quyidagi tarkibiy turlari mavjud:

Adv + conj + Adv; prep+ Adj + N; N + prep + N;

prep + N + prep; prep + N; Adv + prep + N.

Adjektiv somatik frazeologik birliklar orasida quydagi tarkibiy turlar mavjud

Adj + n-ed; N + Adj:

Somatik frazeologik birliklar badiiy adabiyotlarda ham ekspressivlikni oshirish va ta'sir o'tkazish uchun ishlatiladi. Somatik frazeologik birliklarning turli xil ma'nolari bor. Har biro odam bu so'zlarning ma'nosini har xil tushunadi.

Masalan: *Get a Black Eye, Get Stars in One's Eyes, Until You're Blue in the Face, All Mouth And No Trousers.*

"I got a black eye when I bumped into the door."

"I guess we got a black eye trying to compete with that big corporation."

"Some young people get stars in their eyes because they become obsessed about show business"

" I can talk with John until I'm blue in the face, but he still doesn't understand the procedure"

" He's all mouth and no trousers. If we put up a united front against him, he'll crumble."

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, biron bir xalning madaniyatini,tarixini an'analari va urf - odatlarini xabardor bo'lish uchun shu xalqning nutqida ishlatiladigan frazeologik birliklaridan, ayniqsa somatik frazeologik birliklaridan boxabar bo'lishimiz darkor. Har bir xalqning kundalik turmushidagi mushtarak tomonlarini yoritib beruvchi somatik frazeologik birliklar madaniyatlararo aloqada ham muhim ro'l

o’ynaydi. Demak, frazeologiyaning eng muhim qismlaridan bu Somatik frazeologik birliklardir. Nutqda eng faol somatik frazeologik birliklar ko’z va bosh somalari faol ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Batunova I. “Functioning of somatic phraseological units in the English language”, Norwegian Journal of Development of the International Science, 2020.
2. Харченко Ю.А. “Структурные особенности английских и русских фразеологических единиц с соматизмами", 2016
3. Ябжанова Л. “Фразеологические единицы английского языка с компонентом-соматизмом”, Вестник Бурятского государственного университета. Язык. Литература. Культура,2015.
4. Иевская М.С. “Соматические фразеологические единицы (СФЕ) английского языка, включающие личностные характеристики человека,2012.
5. Тихомирова Е.А. “Английские фразеологические единицы с соматизмами”, 2011.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA POLISEMANTIK SO‘ZLAR

Samatova Shaxzoda Ruzimurod qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Filologiya fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o’zbek tillrida ko’p ma’noli so’zlarning ta’rifiga, ularning turlariga, kelib chiqish usullariga va ularning shu tillar doirasida qo’llanilish usullariga bag’ishlangan. Maqolada ko’p ma’noli so’zlarning turli xil kontekstlarda turli xil ma’nolarda kelishi misollar yordamida ko’rsatib berilgan. Yozma va og’zaki nutqda so’zlarning ma’nodoshlarini qo’llash ma’no kasb etganidek, ko’p ma’noli so’;zlarning ham farqiga boorish muhim hisoblanadi. Bu maqolada ingliz va o’zbek tillaridagi ko’p ma’noli so’zlarning farqli jihatlari ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: polisemantika, polisemiya, diaxron metod, sinxron metod, leksikologiya, leksikografiya, lingvistika.

Аннотация: Данная статья посвящена определению многозначных слов в английском и узбекском языках, их видам, способам происхождения и способам употребления в этих языках. В статье на примерах показано, что многозначные слова имеют разное значение в разных контекстах. Так же, как использование синонимов в письменной и устной речи имеет смысл, важно различать многозначные слова. В данной статье рассматриваются различия между многозначными словами в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: полисемантика, многозначность, диахронический метод, синхронный метод, лексикология, лексикография, языкознание.

Abstract: This article is devoted to the definition of polysemous words in English and Uzbek, their types, methods of origin and methods of their use in these languages. The article uses examples to show that polysemous words have different meanings in different contexts. Just as it makes sense to use synonyms in written and oral speech,

it is important to distinguish between polysemous words. This article discusses the differences between polysemous words in English and Uzbek.

Keywords: polysemantics, polysemy, diachronic method, synchronous method, lexicology, lexicography, linguistics

Har bir so’z o’z yaratilishiga ko’ra monosemantik bo’ladi: biror predmet, belgi, munosabatning nomi sifatida yuzaga keladi. Keyinchalik u boshqa hodisalarga ham nom bo’lib xizmat qiladi, shu yo’l bilan o’z ma’nosi o’zgartiradi, taraqqiy ettiradi. Natijada so’z ma’nosida turli tuman siljishlar voqe bo’ladi, shuning oqibatlaridan biri sifatida monosemantik so’z polisemantik so’zga aylanadi.

Leksik polisemiya – ko’p qirrali va murakkab hodisa. Deyarli har bir so’zning leksik ma’no taraqqiyoti konkret, individual yondashishni talab qiladi. Shu sababli leksik ma’nolarni aniqlash va sistemalash juda qiyin. So’zning ko’p ma’noliligi haqida aytiladigan umumiy fikrlar odatda so’zning leksik ma’no taraqqiyoti haqida tasavvur hosil etish uchungina xizmat qiladi.

Polisemantik so’zlar leksik ma’nolarining boshqa turkum vazifasini bajara olish yoki bajara olmaslik xususiyatiga ko’ra ikki turga bo’linadi:

1) sodda polisemantik so’zlar

2) murakkab polisemantik so’zlar

Sodda polisemantik so’zlarning leksik ma’nolari faqat o’zi oid bo’lgan turkum vazifasini bajaradi. Ular o’zbek tilidagi fe’l, olmosh turkumiga oid barcha polisemantik so’zlarni o’z ichiga oladi. Ya’ni fe’l va olmosh turkumiga oid so’zlarning leksik ma’nolari boshqa turkum vazifasini bajarmaydi. Bu fikrni fe’l turkumiga oid polisemantik so’zlarda talqin qilinsa, tushunish uncha qiyin emas. Chunki fe’l turkumiga oid so’zlar umuman turkiy tillarda o’ziga xos shaklga ega bo’lib, ular sof holatda boshqa turkum shakllarini qabul qilmaydi, shuningdek boshqa turkum vazifasini bajarmaydi. Shuni ta’kidlash joizki, fe’l hech qanday xoslangan shaklga kirmagan, sof fe’l holatida biror leksik ma’nosi asosida boshqa turkum vazifasini o’tamaydi. Agar u fe’lning xoslangan shakllaridan biri: yo sifatdosh, yo ravishdosh, yo harakat nomi shakliga kirsa, boshqa turkum vazifasiga o’tishi muqarrar. Har holda bu fe’lning xoslangan shakliga xosdir. Olmosh turkumiga oid so’zlarning leksik ma’nolari boshqa turkum vazifasida kelmasligini boshqacha izohlash kerak. Chunki olmosh turkumiga oid so’zning o’zi boshqa so’z turkumining o’rnida almashib kelgan bo’ladi. Uning tarkibidagi leksik ma’nolar turlicha turkumga oid vazifani bajarib kelayotgan bo’lishi mumkin. Ammo ular o’zining mavhumligicha va tushunchalarni to’g’ridan-to’g’ri ifoda etmay, unga ishora qilayotganligi yoki uni ko’rsatayotganligi xususiyati bilan olmosh turkumiga xos bo’lib qolaveradi. Ko’rinib turibdiki, fe’l va olmosh turkunidagi barcha polisemantik so’zlar sodda polisemantik so’zlardir.

Murakkab polisemantik so’zlar sifat, son va ot turkumiga oid so’zlarda kuzatiladi. Sifat va ravish turkumiga oid polisemantik so’zlar ichida sodda polisemantik so’zlar deyarli uchramaydi. Chunki bu ikki turkumga oid so’zlar deyarli holda bir belgi bildirib, ular o’z vazifalarini o’zaro almashib keladi. Son turkumiga oid so’zlar nutqda deyarli sifat turkumiga xos vazifa bajarib keladi. Hosila ma’nolari ham deyarli sifat

turkumiga xos bo'ladi. Ular polisemantik so'zlar bo'lar ekan, faqat polifunksional holatda kuzatiladi.

Ot turkumiga oid so'zlar ichida sodda polisemantik so'zlar ham, murakkab polisemantik so'zlar ham birday uchraydi. Bu albatta, yasama otlarning yasovchi affikslari xarakteri bilan bog'liq. Masalan, -(i)m, -(i)ch, iston kabi affikslar bilan yasalgan otlar boshqa turkum vazifasida qo'llanmaydi. Ular hamma vaqt sodda polisemantik so'z bo'lib qolaveradi. Ot turkumi uchun sodda polisemantik so'zlar qanday holatda bo'lsa, murakkab polisemantik so'zlar ham shunday holatga ega.

Ingliz tilida ham polisemiya hodisasi keng qamrovli hodisa bo'lib, unga ikki jihatdan yondashiladi: diaxron va sinxron.

So'zning semantik tarkibidagi o'zgarish diaxron jihatdan o'rganilishini talab etadi. Diaxron jihatdan polisemiya so'z o'zining boshlang'ich ma'nosini saqlab qolishi va bir vaqtning o'zida bir yoki boshqa yangi ma'nolarga ega bo'lishiga ishora qiladi.

Ingliz tilidagi polisemantik xususiyatga ega bo'lgan "table" so'zini diaxron semantik jihatdan tahlil qilinganda uning boshlang'ich ma'nosi (a flat slab of stone or wood) qadimgi ingliz tilidagi ma'nosiga teng ekanligi ma'lum bo'ldi, qolgan ma'nolari esa hosila ma'nolar bo'lib, ular boshlang'ich ma'nodan kelib chiqqan.

Polisemiyaga sinxron jihatdan yondashish deganda ma'lum bir tarixiy davrda bir so'zning turli xil ma'nolarining birgalikda paydo bo'lishi va bu ma'nolarning so'zning semantik tarkibida belgilanishidir.

Ma'lumki, til birliklari orasida so'z eng ko'p o'zgarishlarga moyil birlik bo'lib hisoblanadi, vaqt o'tishi bilan uning ma'nolari rivojlanib, natijada bosh ma'no atrofida yangi hosila ma'nolar yuzaga keladi. Deyarli har bir so'z o'zining yasama ma'nolariga ega, ba'zi hollarda hosila ma'nolar yuzaga kelishi natijasida bosh ma'no o'z ahamiyatini yo'qotadi

So'z ma'nolarining o'zgarishi qizg'in muzokaralarga sabab bo'lgan mavzu bo'lib, juda ko'p tilshunoslarni o'ziga jalb qilgan. So'z ma'nolari muhokama qilinar ekan, so'zning doimiy, o'zgarmas hamda o'zgaruvchan ma'nolari deb nomlangan qarama qarshi tushunchalar yuzaga keladi. Ba'zi ma'nolar doimiyligi, o'zgarmasligi bilan xarakterlansa, ba'zi ma'nolar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi; ular faqat ba'zi kontekstlardagina paydo bo'ladi va bu ma'no lug'atlarda qayd etilmaydi. Bosh hamda hosila ma'nolar nisbatan o'zgarmasligi bilan farqlanadi va shuning uchun ham ular so'zning semantik tarkibini tashkil qilib, lug'atlarda qayd etiladi.

Ko'p ma'nolilik muammosi leksikologiyaning eng ko'p muhokamaga sabab bo'lgan muammolaridan biridir. Ba'zan ko'p ma'noli so'zning hosila ma'nosidan alohida, mustaqil so'zni farqlashning imkoni bo'lmaydi, ya'ni so'zning hosila ma'nosi bilan bosh ma'no o'rtasidagi semantik aloqa uzilgan va natijada u o'zi hosil bo'lgan so'zga nisbatan omonimga aylangan.

Polisemiya leksikologiyaning alohida kategoriyalaridan biridir. Har bir polisemantik so'z o'ziga xos stilistik xususiyatga ega va uning tarkibidagi leksik ma'nolarni tahlil qilish ko'plab izlanishlar va kuzatishlarni talab qiladi. Ma'lumki, polisemantik so'zlarning ma'nosi yuzaga chiqishi uchun kontekst muhim ahamiyatga ega. Chunki polisemantik so'zlar bir qancha leksik ma'nolarga ega bo'lib, kontekstda esa u faqat bir ma'nosi bilan qatnashadi.

1) kuchli; heavy rain (kuchli yomg'ir); heavy wind (kuchli shamol);
2) og'ir; heavy industry (og'ir sanoat); heavy artillery (og'ir artilleriya);
3) vazni katta; heavy weight (og'ir vazn); heavy table (og'ir stol);

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. The Presidential Decree №1875of Uzbekistan, on 10 December 2012.
2. Виноградов С.Н. Нечеткость терминологии и ее причины. 2002.
3. Muminov O.M. "Lexicology of the English Language". T- 2006.
4. http://www.bohemica.com
5. Abdullayev F. O'zbek tili leksikasining ba'zi bir masalalariga doir til va adabiyot instituti asarlari. – Tosh.: Fan , 1949.
6. Abduazizov A., Sodiqov A., Bashakov N. Umumiy tilshunoslik T., 1979.

BILINGVIZM VA INTERFERENSIYA

Axmedova Zamira Abdiraxmonovna
Navoiy viloyati Navbahor tumani
11-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada kommunikatsiya jarayonida ikki tillilik va uning namoyon bo'lish shakllari, bilingvizmning ijtimoiy hayotdagi o'rni, bilingvist nutqida fonetik, grammatik, leksik, sintaktik jihatdan o'zgarishlar, sotsiolekt, nutq jarayonida sleng, klishelardan foydalanib, muloqotning rang-barangligini ta'minlash haqida fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: bilingvizm, ikki tillilik, ko'p tillilik, ichki til, interferensiya, fonetik interferensiya, grammatik interferensiya, sintaktik interferensiya, leksik-semantik interferensiya, sotsiolekt, sleng, klishe.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы билингвизма и формы его проявления в процессе общения, роль билингвизма в социальной жизни, фонетические, грамматические, лексические, синтаксические изменения в речи билингвиста, социолекта, обеспечение многообразия общения с помощью сленга, клише в процессе речи.

Ключевые слова: билингвизм, двуязычие, многоязычие, внутренний язык, интерференция, фонетическая интерференция, грамматическая интерференция, синтаксическая интерференция, лексико-семантическая интерференция, социолект, сленг, клише.

Annotation. The article discusses bilingualism in the process of communication and its forms of manifestation, the role of bilingualism in social life, phonetic, grammatic, lexical, syntactic changes in the bilingualist speech, sociolect, slang in the process of speech, the use of cliches, the idea of ensuring the diversity of communication.

Keywords: bilingualism, bilingualism, multilingualism, internal language, interference, phonetic interference, grammatic interference, syntactic interference, lexical-semantic interference, sociolect, slang, cliché.

Ikkita mustaqil tilda gaplashadigan, fikrlaydigan shaxs (bilingv)larning nutqida u gaplashadigan o‘sha bir necha tillarning o‘zaro bir-biriga ta’siri kuzatiladi. Bu o‘zaro ta’sir nutq jarayonida, tilda, shuningdek, har qanday til osti tizimlarida: fonetikada, grammatikada, leksikada, gaplarning sintaktik qurilishida namoyon bo‘lishi mumkin.

Ana shunday kuzatiladigan nutq hodisalaridan biri interferensiya hisoblanadi. Interferensiya keng ma’noda ikki tillilik sharoitida til tizimlarining o‘zaro ta’sirini; ikki tilli shaxslar nutqida u yoki bu til me’yorining buzilishini ifodalaydi. Tor ma’noda ikki tilli shaxsning og‘zaki va yozma nutqida ona tili ta’sirida ikkinchi til me’yorlarining buzilishini anglatadi.

Umuman, ikki tilni biladigan shaxsning bir tilining ikkinchi tilga ko‘rsatgan har qanday ta’siri va bu ta’sirning natijasi interferensiya deb ataladi. Asosan, interferensiya deganda, faqat nazorat qilib bo‘lmaydigan jarayonlar tushuniladi, ongli ravishdagi o‘zlashgan tushunchalar unga taalluqli bo‘lmaydi.

Interferensiyaning yo‘nalishlari turlicha bo‘lishi mumkin. Ona tilining ikkinchi tilga nisbatan interferensiyasi ko‘rinishi ko‘proq kuzatiladi. Biroq ikkinchi til asosiy tilga aylanganida u ham ona tiliga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, o‘zbek oilasi Rossiya hududida yashaganida, ularning farzandlari rus maktabida o‘qiy boshlashadi. Asta-sekin rus tili uning ona tili – o‘zbek tiliga ta’sir qila boshlaydi va u ko‘proq rus tilida gapira boshlaydi. Masalan, uning nutqida “Mam, ujin qilamizmi?”, “Ponedelnik kuni fizkultura bor”. Yoki uzoq yillar davomida xorijda muhojir bo‘lib yashagan, tahsil olib qaytgan o‘zbek millatiga xos shaxslarning nutqida ham bunday holatni kuzatish mumkin. Masalan, “Hammasi OK bo‘ladi”, “O, yes! Zo‘r bo‘ldi”.

Rossiyadagi bozorlardan biridagi savdogarlar nutqida “Такой прайс только за лейбл что ли?” tarzidagi inglizcha leksik interferensiya asosida qurilgan ruscha jumlani kuzatish mumkin. Mazkur matnda ruscha цена leksemasining o‘rniga inglizcha price so‘zi individual qo‘llanilgan bo‘lib, unda yosh (yosh-молодой), mavzu (tijorat), holat (bozor) va maqom (“челнок”) singari ijtimoiy omillar ishtirok etgan. Interferensiya lisoniy aloqalar nazariyasida markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. U til darajasiga muvofiq ravishda quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

1) fonetik interferensiya;
2) grammatik interferensiya;
3) sintaktik interferensiya;
4) leksik-semantik interferensiya.

Lekin ommaviy ikki tillilik holatlarida bir turdagi interferension jarayonlar ko‘pchilikning nutqini tavsiflashi ham mumkin. Masalan, sobiq sho‘rolar davrida rus tili ommaviy ravishda turli til egalarining nutqiga ta’sir ko‘rsatgan.

1. Fonetik interferensiya ikki tilli shaxs nutqida aloqadagi tillarning fonetik tizimidagi o‘zaro ta’sir hodisasi bo‘lib, talaffuzdagi aksentda namoyon bo‘ladi. Masalan, koreyslarning o‘zbekcha nutqida <r> va <l> undoshlarining farqlanmasligi (karavot → kalavot, marta → malta), <z> undoshining <j> (Zuhra → Juhra, zo‘r → jo‘r, zirak → jirak), <f> undoshining <p> deb talaffuz qilinishi (hafta →hapta, fasl → pasl) yoki ruslarning o‘zbekcha nutqida <q> ning <k> (qiz → kiz, qara → kara), <g‘> ning <g> (tog‘ → tog, og‘rimoq → ogrimoq) deb talaffuz h.k.

2. Grammatik interferensiya – ikki tilli shaxs nutqida ona tili grammatik tuzilishining ta’siri. Bu kelishiklarni qorishtirish (uyga boradi → uyda boradi), fe’l zamonlarini nomuvofiq qo‘llash (ertaga keldi), son+ot+-lar qolipini qo‘llash (ikki kishilar) va h.k.

3. Sintaktik interferensiya – ikki tilli shaxs nutqida ona tili sintaksisi ta’sirida sintaktik qoidalarining buzilishi (Keldi u biznikiga kecha).

4. Leksik-semantik interferensiya – aloqadagi tillarning leksik-semantik darajadagi o‘zaro ta’siri, so‘zdagi ma’nolar farqliligi natijasida ikki tilli shaxs nutqida me’yorlarning buzilishi; so‘zlarning bog‘lanishidagi buzilish; parafaziya (nutqda biron so‘zni boshqa so‘z o‘rnida noto‘g‘ri qo‘llash) va h.k. Masalan, dugonam uylandi; og‘aynim turmushga chiqdi.

“Sleng” – muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhning og‘zaki nutqida qo‘llanadigan emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan so‘z va iboralar hisoblanib, “sleng” termini ilk bor yozma ravishda XVIII asrda Angliyada qayd qilingan va o‘sha davrda “haqorat” ma’nosini anglatgan. 1850-yildan esa “noqonuniy” oddiy leksikaning ifodasi sifatida keng qo‘llanila boshladi.

Sleng muayyan hududga xos so‘zlar bo‘lib, og‘zaki nutqda ham, yozma nutqda ham bunday so‘zlardan foydalanish kuzatiladi. Masalan:

awesome/cool (zo‘r) okay/ok (yaxshi)

check it out (o‘lmoq) in a nutshell (qisqa qilib aytganda)

Klishe og‘zaki nutqda qo‘llaniladigan nutqiy qoliplardir. Bunday qoliplardan formal yozma nutqda foydalanilmaydi. Masalan:

Time is money (Vaqt bu pul)

Don’t push your luck (Omadingni qo‘ldan boy berma)

Slenglar ko‘proq yoshlar nutqida uchraydi. Yoshlar nutqidagi sotsiolektlarni semantik jihatdan bir nechta turga bo‘lish mumkin:

1. Gapiruvchilarning yoshiga ko‘ra: “Bog‘chamizda Anvar 1-zo‘r, Sarvar 2-zo‘r” (4-5 yoshli bola) “Sen “sentr” bo‘lishing kerak!” (10-12 yoshli bolalar nutqidan)

— Dedushkang senlarga yangi babushka olib keldi! — dedi Lola asabiy kulib.

Orqasidan it ergashtirib yurganlarni qanjiq deydi!

Oyimlarning suvi to‘kilgan uydan ketmayman. Ikkinchidan, bolalarim bilan ko‘chama-ko‘cha tentirab yurmayman! [6. 85.]

— Nishtyakman! — Habiba sho‘x jilmayib “Baxtiyor akasi”ga yuzlandi. — Rustam aka bilan maktabdoshmiz... Kelinoyimizni tanishtirmaysizmi, mundoq, Rustam aka! [6. 128.]

2. Jinsiga ko‘ra: “Paxan” ularga “harip” deb murojaat etsa, demak, ularning tilidan ham bu so‘z tushmaydi” [5. 100.]; “E qizlar, u g‘irt “sirkach” ekan (qiz bolalar nutqidan. Bu yerda “sirkach” (циркач) so‘zi, “masxaraboz” ma’nosida kelgan). — Qaranglar, mujiklar! Marya sigirli bo‘pti! Har kuni qaymoq bilan siylarkan-da bizni! [6. 27.] Xayriddinga zug‘um qilayotganlardan ikkitasini chaqirib oldi-da, “tushuntirdi”: — Eshitib qo‘y, zemlyak! Men “blatnoy”lardanman. [6. 45.] ...Biron oylardan keyin “u yoq”dan telefon bo‘ldi. Otstavkaga chiqqan bo‘lsa ham tajribali xodim sifatida maslahatga va umuman... “ba’zi yumush”larga chaqirib turishardi. — Marsh bu yerdan itvachchalaring bilan! — dedi Komissar oyoq-qo‘llari asabiy qaltirab.

[6. 85.] 3.Ma’lumotiga ko‘ra: “Sezon o‘ldi, deganing issiq gapmi?” [5. 13.]; talabalar nutqida: “yopmoq” – sessiyani tugatmoq; “vozdux” – stipendiya; “yaxlamoq” – imtihondan qaytmoq; “stukach”, “zamdekanni qulog‘i”– chaqimchi. Qaysi go‘rdan kavlab chiqarding bu plebeyni, Larisa! [6. 27.] 4. Nutq vaziyatiga ko‘ra: “Telman onasidan ko‘z uzmagan holda aroqning yuqini ichib olgach, “Mamul nakaut”, deb kuldi” [5. 89.]; “Mirhosil gardanini silab turib, keyin birdan qo‘l siltadi: – Nastroeniya buzildi”. [5. 93.]. Qani, marsh “shtrafnoy”ga! Nemisning kuchini yaqindan ko‘rasan. Oldinga yursang, fashist otadi, orqaga chekinsang, o‘zimiznikilar. Bitta sen o‘lganing bilan askar kamayib qolarmidi! Xotining bir kun yig‘laydi. Ikki kun yig‘laydi. Cho‘loqmi, maymoqmi, topib oladi o‘ziga munosibini! [6. 33.] — Marsh! — dedi Soat. — Bizni kuch ishlatishga majbur qilma! [6. 33.] — Generallardek qaddini g‘oz tutib buyurdi. — Krugom marsh! O‘lganimning kunidan chest berdim. Akkumulyator toki odamni o‘ldirmaydi. Birpas “tansa” tushirishadi-da, “dux”ni sarandoylarga topshirib yuborishadi... [6. 47, 51.]

Slenglarni modal munosabatga ko‘ra quyidagilarga ajratish mumkin:

1.Ijobiy ma’nodagi slenglar: “Dahshat qiz ekan, jo‘ra!” (yoshlarning ko‘cha nutqidan. Bu yerda “dahshat” so‘zi “o‘ta darajada chiroyli” ma’nosida kelgan); “Qoyil, sindirding jo‘ra” (yoshlarning ko‘cha nutqidan. Bu yerda “sindirmoq” so‘zi “qoyil qilib bajarmoq” ma’nosida kelgan); “krutoy” (olifta, “ketvorgan”). —Zaharsan-da, Marya, zaharsan! Chaqib-chaqib eringni o‘ldirding! [6. 27.] 2. Salbiy ma’nodagi slenglar: “G‘isht ekansan-da” (yoshlarning ko‘cha nutqidan.

Bu yerda “g‘isht” so‘zi “xunuk” yoki “yuzsiz” ma’nosida); “uxlatib ketmoq” (aldamoq); “risovka” (ko‘z-ko‘z qilmoq). — Yasholmayman! — dedi Grisha yig‘lamsirab. — Turolmayman o‘sha uyda! Jonimga tegdi xotinim ham, qaynonam ham. Mana bunday jonimga tegdi.

— Isterika qilma xotinga o‘xshab! — Dima qaytadan sigaret oldi. [6. 30.]

— Kechagi qilig‘ing bilan bir emas, to‘rtta statya sotib olganingni bilasanmi? — U ipdek barmoqlarini bukib, sanay ketdi. — Birovning uyiga bostirib kirding — bir! Urib, mayib qilding — ikki! Millatchilik qilding — uch... Ispolkom-dagi majlisda ham millatchilikka oid gaplar aytgan eding... [6. 129.]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эрвин-Трипп С. М. Язык. Тема. Слушатель. Анализ взаимодействия // Новое в лингвистике. Вып. VII. Социолингвистика. – М., 1975. – С. 336.

2. Ferguson C.A. Diglossia // Word. –N. 15. 1959. – P 325-340.

3. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. – М., 2001. – С. 9.

4. Dittmar N. Soziolinguistik. Exemplarische und kritische Darstellung ihrer Theorie, Empiric und Anwendung. – Frankfurt: Main, 1973. – P. 389.

5. Tohir Malik, “Jinoyatning uzun yo‘li”

6. O‘.Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar”.

O‘ZBEK TILI LINGVOKULTUROLOGIYASIDA BELGI BILDIRUVCHI SO‘ZLARDAGI QAT’IYATNING IFODALANISHI

Jamoliddinova Iroda Bahodir qizi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
I kurs doktoranti
irodajamoliddinova93@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek lisoniy hamjamiyatida qat’iyat konsept sifatida inson ongida barqaror ma’nolarni aks ettiruvchi til tizimi shaklida namoyon bo‘la olishi haqida so‘z boradi. Xususan, “qat’iyat” konsepti va uning leksik sathdagi o‘zbek milliy-mental dunyoqarashida qay darajada ifodalanishi muallif nuqtayi nazaridan obyektiv baholanadi.

Kalit so‘zlar: Konsept, “qat’iyat” konsepti, lingvokulturologiya, leksik sath, maydon, yadro, periferiya.

Annotation: This article discusses the fact that in the Uzbek linguistic community, perseverance as a concept can be expressed in the form of a language system that reflects stable meanings in the human mind. In particular, the author's point of view is objectively assessed from the point of view of the concept of "determination" and its degree of expression in the Uzbek national-mental worldview at the lexical level.

Keywords: Concept, concept of determination, lexical level, field, core, periphery.

Аннотация: В данной статье рассматривается тот факт, что в узбекском языковом сообществе настойчивость как концепт может быть выражена в виде языковой системы, отражающей устойчивые значения в сознании человека. В частности, авторская точка зрения объективно оценивается с точки зрения понятия «детерминация» и степени его выраженности в узбекской национально-ментальной картине мира на лексическом уровне.

Ключевые слова: Концепт, концепт «детерминация», лингвокультурология, лексический уровень, поле, ядро, периферия.

Har bir millat o‘zida ma’lum bir milliy an’analarni aks ettiradi. Ya’ni har bir xalqning, millatning o‘z milliy an’analari, urf-odatlari mavjud. Bu ma’noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. Ma’lumki, til ijtimoiy hodisa bo‘lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog’liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati shakllanish barobarida har bir xalqning madaniyati, tilini o‘rganishga sabab bo‘lmoqda.

Hozirgi antroposentrik fanlar kesimida lingvokulturologiya alohida ahamiyat kasb etadi. Juda ko‘p falsafiy, milliy-mental, ilmiy-maishiy, ijtimoiy-siyosiy tushunchalar lingvokulturologik konsept sifatida tadqiq qilinmoqda. Jumladan,

R.S.Ibragimova o'zbek madaniyatshunosligida "Ayol" konsepti, T. Yondasheva "Go'zallik" konsepti bilan bog`liq va boshqa bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ta'kidlashimiz joizki, shu kunga qadar o'zbek tilshunosligida "qat'iyat" konsepti o'rganilmagan.

Qat'iyat ma'nosi belgi bildiruvchi so'zlar semantikasida ham namoyon bo'ladi. Qat'iyatga ega bo'lishlilik va uning turli darajalarini kuzatish mumkin. O'zbek tilidam sifat turkumi doirasida quyidagi so'zlar qat'iyatni ifodalashga xizmat qiladi: **birso'zli, barqaror, dasturiy, radikal, sabotli, shaddod, qat'iy, qat'iyatli, talabchan, keskin, vafodor.**

Barqaror leksemasida qat'iyat semasi yorqin aks etgan bo'lib, asosiy preferiydan joy olgan. Qat'iy mavjud bo'lgan belgini ifodalaydi. *Baxting barqaror bo'lsin. (*T. To'la). Bu gapda baxtning doimiy, qat'iy, mustahkam mavjud bo'lishi, hech qachon yo'q bo'lib qolmasligi haqida aytiladi. *Najmi Soniy shayboniyzodalarni bartaraf qilgandan keyin Boburni ham hokimiyatdan chetlatishi va Samarqand taxtiga boshqa ishonchli odamni o'tqazib, Movarounnahrda qizilboshlar hokimiyatini uzil-kesil barqaror qilishi kerak edi.* (P. Qodirov. Yulduzli tunlar). Keltirilgan misolda barqaror leksemasida "qat'iy qaror topish, qat'iy o'rnatish" semasi aks etgan. *Murodxon elga, mehnatkash xalqqa bo'lgan bu g'amxo'rlikda izchil va barqaror turadi.* "Murodxon". (O'TIL, I, 207). Gapda barqaror leksemasi har qanday holatda ham qat'iyat bilan ahdiga sodiqlikni ko'rsatishini ifodalagan.

Bir so'zli leksemasida ham qat'iyat oshkor sema hisoblanib, gapida, bergan va'dasida qat'iy turuvchi, va'dasidan qaytmaydigan ma'nolarini aks ettiradi. *Bir so'zlig'ingizni qo'ying, er; o'zi aslzoda, loaqal bir og'iz o'g'lingizga aytib o'tishka va'da bering-chi,— dedi. — Yaxshi. Va'da ham berayin, ammo san unashmay tur.* (A. Qodiriy. O'tgan kunlar).

Dasturiy leksemasi qat'iy reja asosida muayyan maqsadga qaratilgan xatti-harakat semasini anglatadi. Maqsadlashgan xatti-harakatni amalga oshirishda tartibsizlikka yo'l qo'yilmaydi, aniq, ketma-ketlikda bajariladigan ya'ni qat'iy harakat semasini ko'rishimiz mumkin. *Mening nazarimda, muxo-lifat aniq muqobil dasturga ega bo'lishi kerak.* Gazetadan. (O'TIL, I, 682)

Radikal so'zining uchinchi ma'nosida qat'iylik semasini uchratamiz. Qat'iy amalga oshirilgan chora-tadbir, mavjud vaziyat va boshqa holatlar bilan kelishmasdan ko'rilgan chora semalari mavjud. *Radikal choralar. Radikal o'zgarishlar.* (O'TIL, III, 361)

Sabotli leksemasi o'z so'zida qat'iy turuvchi, mustahkam irodali semalariga ega. Odatda insonlarga nisbatan qo'llanadi. Har qanday qiyinchiliklarga qaramay o'z maslagida turg'un qoluvchi ma'nolarini aks ettiradi. *Sabr va chidam yo'lini tutgan odam gunoh qilishdan qo'rqadi, yomon ishlardan yuz o'giradi, sabotli bo'ladi, g'aflatda qolmaydi, rizq bo'lmish noz-ne'matlar qadrini biladi, yaxshilik qilish, yomonlikdan uzoq bo'lish harakatiga tushib, tavba qilish baxtiga erishadi.* (Abduhalim To'xliyev. U qoqilmas ulovdir).

Shaddod leksemasining semasida o'z fikrini qat'iylik bilan aytadigan degan ma'nosi ham mavjud. O'zbek lingvomadaniyatida dadil ayollarga berilgan ta'riflarda ishlatiladi. *Shaddod, gapini birovga bermaydigan, erkakshoda Asrora zvenoga boshliq*

*bo'ldi***.** S. Ahmad, Ufq. (O'TIL, IV, 569). Shuningdek o'zbek lingvokulturologiyasida shaddod leksemasi ko'p holatlarda salbiy ottenkani ifodalaydi. Chunki milliy mentalitet nuqtayi nazaridan o'zbek ayollariga ibo-hayo sifati eng muhim xususiyat sanaladi. Shuning uchun ayollarning cho'rtkesar, tortinmas, o'jar bo'lishi ma'qullanmaydi. *Xushro'yga bolaliq chog'idayoq uy ichi va qo'ni-qo'shni "shaddod" deb ism berganlar, chunki ul kimdan bo'lsa-bo'lsin, aytkanini qildirmay qo'ymas, agar birarta ish uning tilagiga teskari ketsa shovqin-suronni xudda boshig'a kiyib olar edi*.(A. Qodiriy. O'tkan kunlar).

Qat'iy, qat'iyatli leksemalari maydon yadrosidan joy oladi. Ushbu so'zlarda qat'iyat sema emas, semema sifatida mavjud. Qat'iy so'zi holat, fikr, qaror kabilarga nisbatan qat'iylikni ifodalaydi. Har qanday vaziyatlarda o'zgarmaydigan, barqarorlikni anglatadi. — *Haqqim yo'q. Maxsus buyruq bo'lmaguncha ocholmayman, — deya qat'iy javob qildi u.* (S. Ahmad. Taqdir, taqdir). Qat'iyatli leksemasi azm-u qarorida qat'iyat bilan turadigan semani ifodalaydi. *Bir-kishining aniq maqsad sari yo'naltirilgan qat'iyatli mehnati, ko'pchilikning faqat istaklargagina asoslangan urinishidan nafliroqdir*. (Muhammad Toshboltoyev).

Talabchan so'zi amalga oshirishni qat'iy turib talab qiluvchi semasiga ega. Harakatda o'zi yoki o'zgalardan tartibga rioya qilishni talab qiluvchi insonlarga nisbatan qo'llanadi. Uning ijodkorlikning ushbu rang-barang sohalaridagi mas'uliyati va talabchanligi maqolga aylangan va katta- kichik adab ahliga yuksak ibrat bo'larlik edi. *U dekanning ish yuzasidan har qanday yaqinlikni yig'ishtirib qo'yishini, talabchan, qattiqqo'lligini, hech kimni ayab o'tirmasligini yaxshi bilardi. (*Ibrohim G'ofurov. Jahon adabiyoti).

Keskin leksemasi semasida ham qat'iylik mavjud. Mulohaza, fikr, chora-tadbir kabilarda ko'rilgan uzil-kesillik qat'iylikni ifodalaydi. *Sulton Ali Mirzo Xo'ja Yahyoga qarshi keskin chora ko'rolmaydi.* P. Qodirov, Yulduzli tunlar. (O'TIL, II, 416).

Vafodor leksemasida qat'iyat ma'nosi ikkinchi sema tarkibida mavjud. Yor, do'st, so'zga nisbatan berilgan va'da semasi asosiy ma'noda bo'lsa, mana shu ma'no tarkibida qat'iyat semasi ham o'zini namoyon qiladi. O'z axd-paymonini muqaddas tutuvchi, so'zida, va'dasida qat'iy turuvchi semalari mavjud. *Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim, Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim*.(Z.M.Bobur).

Ravishlar semantikasida ham qat'iyat ma'nosini uchratish mumkin. Jumladan, jazman, uzil-kesil, qat'iyan so'zlarida kuzatiladi.

Jazman so'zida ikkinchi sema tarkibida qat'iyat ma'nosi mavjud. Ishonch asosida qat'iyat bilan amalga oshirilgan qaror va boshqa tushunchalarni aks ettiradi. *Duch kelib u savdogar*

Yana so'radi gavhar.

Chol "bor" dedi, u bu bor

Edi jazman xaridor. (H.Olimjon).

Uzil-Kesil leksemasining ikkinchi ma'nosida qo'llanadi. Qat'iy qaror holiga kelgan holat, narsa kabilarga nisbatan foydalaniladi. *U shu topda bir narsani vaj qilib uzil-kesil janjal ko'tarmoqchi edi, hozirgina u haqorat qilgan bu kallavaram esa, dumini chotiga tortib uzr so'rab o'tiribdi. (*E. Xeminguey, Frensis Makomberning omonat baxti.) Keltirilgan gapda niyati qat'iy ekanligi, endi hech qanday o'zgarish

qabul qilinmasligini bilishimiz mumkin. *U endi uzil-kesil sulayib qoldi.* **(** Fozil Iskandar.“Yurak”).

Qat’iyan leksemasi qat’iy ravishda, batamom semalarini bildiradi va qat’iyat semasini yorqin aks ettiradi. Qat’iy ravishda amalga oshiriladigan harkatlarni ifodalaydi. *Ovrupa jahongirlari Sharkdan olg‘an mamlakatlarda taraqqiy va madaniyat degan narsani qat'iyan ko‘rguzmadilar, ko‘rguzmakka tirishmadilar(*A. Fitrat). Shuningdek, kam qo‘llanadigan “qat’iy” shakli ham mavjud. *Otinoyi bu safar o’z qoidasshi buzib, qat’iy tayinladi.. (*P. Tursun, O’qituvchi).

Biz o‘zbek tilida belgi bildiruvchi so‘zlarda qat’iyat konseptini ifodalanishinili ifodalanishini yoritishga harakat qildik. Bunda maydonning yadrosini “qat’iyan” semema sifatida mavjud so‘zlar tashkil etgan bo‘lsa, undan keyingi periferiya, ya’ni qurshovlarni “qat’iyat” semantikasi sema sifatida mavjud so‘zlar tashkil etgan. Ushbu semaning semantik strukturadagi o‘rni esa maydon periferilarida so‘zlarning joylashuvini belgilagan. Masalan, *barqaror* so‘zida “qat’iyat” semasi oshkor bo‘lsa, *vafodor* so‘zida u yashirin holatda mavjud. Shuning uchun *qat’iyan* markazga yaqin qurshovda, *vafodor* so‘zi esa maydondan uzoqroqdagi qurshovdan joy oladi.

Xullasi belgi bildiruvchi so‘zlar doirasida ham qat’iyat semantikasi turli darajalarda aks etar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘TIL: - T.: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006; I-V tomlar.

2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik: “Sangzor” nashriyoti, Jizzax – 2006

3. Волкова А.А. Языковая репрезентация гендерных и возрастных особенностей концепта "beauty" в англоязычных текстах рекламы косметики // Современные научные исследования и инновации. 2015. № 12.

4. Мещанинов И.И. Члены предложения и части речи. - М.-Л., 1978. –С.82-84.

INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA ENG KO‘P DUCH KELINADIGAN MUAMMOLAR

Halimova Sevara Ruslan qizi
Qarshi davlat universitetining
pedagogika instituti xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi
1- bosqich, 106-guruh talabasi
Ilmiy rahbar**: Qosimov Anvar**

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o‘rganishni boshlagan o‘quvchilar o‘rtasida duch kelinadigan ayrim muammolar hamda ularga beriladigan ba’zi tavsiyalarga to‘xtalib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: muammo, tavsiya , ingliz tili, yangi so‘zlarni yod olish , nutq.

Annotation: In this article, we will focus on some of the problems faced by students who are just starting to learn English, as well as some tips for them.

Keywords: problem, recommendation, English, memorization of new words, speech.

Аннотация: В этой статье мы остановимся на некоторых проблемах, с которыми сталкиваются студенты, которые только начинают изучать английский язык, а также на некоторых советах для них.

Ключевые слова: проблема, рекомендация, английский язык, запоминание новых слов, речь.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonimizda malakali hamda chet tilini yaxshi biladigan mutaxassis kadrlarga talab ortib bormoqda. Shu boisdan, chet tillarini, jumladan, ingliz tilini o‘rganish va o‘rgatishga bo‘lgan ehtiyoj va e‘tibor kuchayib bormoqda. Buning isboti sifatida, hatto bog‘cha yoshidan boshlab bolalarga chet tillarining , jumladan ingliz tilining o‘rgatib borilayotganini ko‘rsatish mumkin. Bilamizki, ingliz tili dunyodagi sakkizta xalqaro tillardan biri bo‘lib, bugungi kunda nafaqat yerli aholi vakillarining so‘zlashuv tili bo‘lib, qolaversa, mamlakatlararo o‘zaro aloqalarni ,diplomatik va boshqa munosabatlarni olib borishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, bu tilga bo‘lgan talab oshib borgan sayin, yangi-yangi metodlari , yangi-yangi til o‘rgatuvchi innovatsiyalar ishlab chiqilmoqda, shunga qaramasdan, ingliz tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar ayrim muammolarga duch kelishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Antropotsentrik paradigma doirasida zamonaviy tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari kognitiv tilshunoslik va lingvistik madaniyatshunoslik hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalari ma’lumot hamda uning inson ongida qayta ishlanishi, bilimlar manbai, ularning inson ongi va til shakllarida aks etishi hisoblanadi. Kognitiv lingvistika kognitiv psixologiya va kognitiv sotsiologiya bilan birgalikda kognitologiyani shakllantiradi va inson ongi qanday tashkil topgani, inson dunyoni qanday o'rganishi, dunyo haqidagi qanday ma'lumotlar bilimga aylanishi va aqliy bo'shliqlar qanday yaratilishi kabi savollarga javob topishga harakat qiladi. Lingvistik kulturologiya tilni madaniy hodisa, milliy til nuqtai nazaridan dunyoni tasvirlash vositasi sifatida o`rganadi, chunki til maxsus milliy mentalitet vakili vazifasini bajaradi. Darhaqiqat, kognitiv tilshunoslik (lingvistika) insonning tafakkuri, ongi, uning aqliy funksiyalari va faoliyatini o`rganuvchi kognitivizm bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning tadqiqot obyekti – bu odamlarning nazorat qilish, fikrlash tarzini shakllantiruvchi signallar, shuningdek, muayyan tizimga solingan bilimni o'z ichiga olgan bilish hamda idrok qilish sistemasidir. Har qanday shaxsning kognitiv dunyosi ularning aqliy harakatlar va hayotiy tajribalari orqali belgilanadi. Bu borada til yuqoridagilarning asosiy belgisidir.

Kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi muayyan usullar va vositalardan foydalangan holda shaxsning kognitiv qobiliyatlarni o'rganishdir. Turli tillarni tahlil qilish tilshunoslarga tillarning umumiy xususiyatlarini aniqlash, shuningdek umumiy qoidalarni shakllantirish imkonini beradi. Tilshunoslik lingvistik hodisalarni tizimli ravishda o'rganadi, bir yoki bir nechta tillar o'rtasidagi o'xshash jihatlarni o`rganadi. Kognitiv tilshunoslik lingvistik hodisalar orqali konseptual tizimni o'rganadi [9].

Tilning mohiyatini o'rganish har qanday millatning ma'naviy merosi, boy tarixi, milliy qadriyatlari, madaniy va ma'naviy boyliklarini chuqurroq anglash imkoniyatini beradi. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabat, milliy mentalitetni anglash tilning asl mohiyatini, uning kommunikativ vazifasini ochib beradi. Jahon tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi sohalarida shaxs omili tadqiqot markazi hisoblanadi (10].

Shuni unutmaslik lozimki, har bir inson tilning tuzilishiga hamda uning qo'llanish doirasiga o`ziga xos tarzda ta’sir qilishi mumkin va ushbu jarayon insonning ijtimoiy mavqeini lingvistik nuqtai nazardan tushunish uchun juda muhim. Birinchidan, ijtimoiy maqom jamiyatning umumiy xossasi sifatida u yoki bu tarzda odamlarning xulq-atvorini belgilaydi, va bu qator til birliklarining semantikasi orqali barqarorlashadi. Status - normativ kategoriya hisoblanadi. Status munosabatlarini tahlil qilish jarayonida tabiiy tilda aniq belgilangan holatida jamiyat tuzilishi tamoyillarini o`rganish mumkin. Ikkinchidan, ijtimoiy maqom pragmatik tushuncha bo'lib, u qiymat, modallik, hissiylik va stilistik o`ziga xoslik kabi xususiyatlarni qamrab oladi. Ularning tabiati, munosabatlari, variantlari qaysidir ma'noda tilning pragmatik o'ziga xosligi darajasini anglatadi. Shaxsning ijtimoiy mavqei eng mavhum tushunchalardan biri

bo`lib, pragmatikaga asoslangan sotsiolingvistika va lingvistik semantika tizimidagi tushunchalarini o`zida jamlaydi.

Zamonaviy tilshunoslik insonni va ularning xarakter xususiyatlarini eng mukammal shaklda tasvirlaydigan tilni o'rganadi. Inson va til muammosi so‘nggi paytlarda olimlarning e'tibor markazida paydo bo‘la boshladi, chunki hech qaysi tilni lingvistik sathda tahlil qilmasdan turib to'liq o'rganish mumkin emas. Har qanday tilni uning ona tilida so'zlashuvchilari (native speakers) va ular shakllantirgan jamiyat orqali o'rganish maqsadga muvofiqdir, chunki aynan shu til orqali ular boshqalardan farqlanib turadi va aynan shu tilning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi. Til birliklarining tabiati va o`ziga xos xususiyatlarini o'rganish kognitiv faoliyat sanaladi. Ular fikrlarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Kognitiv faoliyat informativ, denotativ va referent lingvistik faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, til shunchaki predmet va tushunchalarni nomlashgina emas, balki o`ziga xos tafakkur, yillar davomida to'plangan insoniyat tajribasining ifodasi sanaladi va u ijtimoiy jamoasiz mavjud bo`la olmaydi.

REFERENCES

1. Tolstoy NI (1997), Etnolingvistika v krugu gumanitarnykh distsiplin [Ethnolinguistics among the Humanities]. In: Russkaya slovesnost. Ot teorii slovesnosti k strukture teksta. Antologiya [Russian Philology. From the Theory of Philology to the Structure of Text. Anthology]. Moscow.

2. Weisgerber JL (1993), Rodnoi yazyk i formirovanie dukkha [Muttersprache und Geistesbildung] (Trans. from German). Moscow: Publishing House of the Moscow State University.

3. Vorobyov VV (1998), Yazykovaya lichnost i natsionalnaya ideya [The Linguistic Persona and the National Idea]. Narodnoe obrazovanie 5, 25-30.

4. Kubriakova, Y. S. (2004). Language and Knowledge. Moscow: Languages Slavic culture, 560 p. Kazarina, S. G. Tipologicheskie harakteristiki otraslevyh terminologij. - Krasnodar: Izdvo Kuban. gos. med. akademii, 1998. 272 s.

5. P.I. Kostomarov Article "Anthropocentrism as the most important feature of modern linguistics" - Bulletin of the Kemerovo State University, 2014.

6. Serebrennikov B.A., Kubryakova E.S., Postovalova V.K. - The role of the human factor in language: Language and picture of the world 1988. - P.125.

7. Maslova, V.A. Modern linguistic approaches. KSR. Methodical recommendation / V.A. Maslova. – 2003. –37 p.

8. Karaulov, Yu.N. Russian language and linguistic personality / Yu.N. Karaulov. – M.: Publishing House LKI, 2010. – 264 p.

9. Rastier, F., (1993). La semantique cognitive et l'espace, Images et Langages: Multimodalite et modelisation cognitive. Paris: CNRS, pp: 173-185.

10. Mamatov A. Anthropocentric study of phraseological units with an adjective component Jizzakh State Pedagogical Institute. Mental Enlightenment Scientific Methodological Journal. Volume 2020. Issue 1.

“FIRDAVS UL-IQBOL” ASARINING O ‘ZBEK OLIMLARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI

Borasulova Dilnoza Dilmurodjon qizi
O‘zDJTU o‘qituvchisi
E-mail: dilnozaborasulovauswlu@mail.ru
Ilmiy rahbar: f.f.n, dots. Teshaboyeva Ziyodaxon

Anotatsiya: Firdavs ul-iqbol asari mumtoz adabiyotimizning nodir namunalaridan biri bo‘lib, kopgina olimlarimiz bu asar mualliflari va asar ustida salmoqli ilmiy-amaliy ishlarni amalga oshirib kelishmoqda, bu bilan ular dunyo hamjamiyatida, manbashunoslik, tarjimashunoslik, adabiyotshunoslik sohalarining rivojiga hissa qo’shib kelishmoqda.

Kalit so’zlar: Firdavs ul-iqbol, Munis, Xorazm, Ogahiy, Muhammad Rahimxon I, Rav-zat us-safo, Qo‘ng‘irot, Eltuzarxon, yofas, Polvonov.

Anotation: Firdavs ul-Iqbal is one of the masterpiece of our classical literature, and many of our scientists are the authors of this work and carry out significant scientific and practical work on it, thereby contributing to the development of the world community, translation studies, and literature.

Keywords: Firdaws al-iqbal, Munis, Xorazm, Ogahiy, Muhammad Rahimxon I, Rav-zat us-safo, Eltuzarxon, yefes, kongirat, Polvonov, Kongirot.

Аннотация: Фирдавс уль-Икбал является одним из редких образцов нашей классической литературы и многие наши ученые являются авторами этого произведения и проводят над ним значительную научную и практическую работу, способствуя тем самым развитую мирового сообщества, источниковедению, переводоведение, литература.

Ключевые слова: Фирдавс ал-икбал, Мунис, Хорезм, Огахий, Мухаммад Рахимхон I, Рав-зат ус-сафо, Конгирот, Эльтузархон, йефес, конгират, Полвонов.

Shermuhammad o‘g‘li Munis tarixnavis olim sifatida Xorazm tarixiga oid qimmatli “Firdavs ul-iqbol” nomli muhim tarixiy asarini ijod etdi. Olim o‘z asarini sharq tarixchilarining an’anasiga muvofiq hamd va na‘t bo‘limlar bilan boshlagan. So‘ngra o‘z hayoti va asarining yozilishi haqida qisqacha ma‘lumot berib, Xorazm tarixini yozgan.

Asar muqaddima, besh bob va xotimadan iborat.

I bobda Odam Atodan to Nuh payg‘ambar avlodigacha bo‘lgan hodisalar bayon etilgan;

II bobda Yofasdan Qo‘ng‘irot sho‘basigacha bo‘lgan Mo‘g‘ul hukmdorlari davri xususida fikr yuritilgan;

III bobda Kurlos avlodiga mansub podshohlar davrida sodir bo‘lgan voqealar to‘g‘risida yozilgan;

IV bobda Eltuzorxonning ota-bobolari hayoti tasvirlangan.

V bobda Eltuzarxonning tug‘ilishidan bu asarning yozilib tamom bo‘lishiga qadar sodir bo‘lgan voqealar xususida yozilgan;

Xotima esa olimlar, avliyolar, amirlar, beklar, shoirlar, hunarmandlar haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Munis “Firdavs ul-iqbol” nomli asarini yozib tamomlay olmagan. U qadim zamonlardan boshlab Muhammad Rahimxon I hukmronliganing yettinchi yiligacha (1813) bo‘lgan voqealarni yozishga ulgurgan. Uning bu chala qolgan asarini shogirdi Ogahiy davom etdirgan. Ogahiy bu asarni qanday qilib davom etdirganligini quyidagicha bayon etadi. Eltuzarxon xonlik qilgan davrda Munisni chaqirib, Xorazm tarixini yozishni buyuradi. Munis o‘z asarini Sherg‘oziyxon davrigacha yozib yetkazganda Eltuzarxon vafot etadi.

Undan so‘ng davlat tepasiga uning birodari Muhammad Rahimxon I keladi.

Muhammad Rahimxon I Munisga o‘z asarini davom etdirishni buyuradi. Munis asarni davom ettirar ekan, Muhammad Rahimxon I hukmronligining yettinchi yilida sodir bo‘lgan voqealarni yozib tamomlaganda, xon 1819 yili Munisga Mirxondning mashhur “Rav-zat us-safo” nomli tarixiy asarini o‘zbek tiliga tarjima qilishni buyuradi. Munis bu asarning birinchi jildini o‘zbek tiliga tarjima qilib, ikkinchisini davom etdirayotganida Muhammad Rahimxon I vafot etadi. Uning o‘rniga o‘g‘li Ollohqulixon keladi. Bu ham Munisga tarjimani davom etdirishni buyuradi. Biroq Munis ikkinchi kitobni oxiriga yetkazaolmay, 1829 yili vafot etadi. Ollohqulixon taxtga o‘tirgandan keyin 1839–1840 yili Munisning shogirdi va uning tarbiyasini olgan Ogahiyni chaqirib, 1813 yil voqealarini bayon etish bilan uzilib qolgan “Firdavs ul-iqbol” asarini davom etdirishni buyuradi. Ogahiy 1813 yildan boshlab Xorazmda sodir bo‘lgan voqealarni yoza boshlaydi.

Tarixnavis olim Munisning “Firdavs ul-iqbol” nomli asari uzoq davrni qamrab olgan Markaziy Osiyo, ayniqsa Xiva xonligi tarixini o‘rganishda boy qimmatli tarixiy asardir. Asarda Xorazmning qadimiy davri bilan bir qatorda, Xiva xonligining 1825 yilgacha bo‘lgan siyosiy tarixi mufassal bayon etilgan, toj-taxt, boylik uchun olib borilgan kurashlar va shuningdek, Xiva xonlarining qo‘shni turkman va qoraqalpoq xalqlari bilan bo‘lgan munosabatlari haqida ham ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan.

Asarda Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganish bo‘yicha ham anchagina ma’lumotlar bor. Xiva xonligining Buxoro, Qo‘qon xonliklari, Rusiya bilan olib borgan diplomatik va savdo-sotiq munosabatlari, xonliqdagi sug‘orish, soliq, qurilish ishlari o‘sha davrda yashagan olimlar, shoirlar hayoti, ijodi qalamga olingan.

Shunday qilib, Shermuhammad Munis Xorazmiy o‘z davrining talantli shoiri, atoqli tarixnavis olimi, davlat arbobi va mohir tarjimoni bo‘lgan. Uning asarlari o‘zbek xalqi madaniyati tarixini o‘rganishda ajoyib manba bo‘lib xizmat qiladi. Taxminlarga ko‘ra uning tug‘ilgan joyi ham ayni yerda bo‘lgan Munis va Ogahiy qabrlari S.Dalimov, E.Samandar va O.Pirnazarovlarning hamkorlikdagi harakatlari natijasida Qiyot qishlog‘idan topilgan. Ogahiy uy-muzeyi ham shu qishloqda joylashgan. Ogahiy ekan tut daraxti ham mana Qiyotda o‘sayapti.

“Firdavs ul-iqbol” Xiva xonligi hududida yashovchi o‘zbeklar, turkmanlar, qozoq va qoraqalpoq xalqlari tarixini aks ettiradi. Asarni mukammal nusxasi Munis va Ogahiy qo’lyozmasiga mansub bo’lib 613 bet, asar Samarqand qog‘oziga, qora siyoh bilan nastaliq xatida yozilgan.

“Firdavs ul-iqbol” asarining yaralganidan salkam ikki asr o‘tgach, birinchi marta, 2010 yilda O‘zbekistondagi nashrlari amalga oshirildi va kitobxonlarga etkazildi. Ushbu nashrlar aynan Yu. Bregel tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn asosida amalga oshirilgan. Jumladan, Sh.Vohidov, I. Bekchonov, N.Polvonovlar birgalikda tayyorlagan asar tabdili so‘zboshisida mazkur tabdilga Yu. Bregel tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy nashri asos qilib olingani, tabdil matnini Yu. Bregel tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy nashri bilan taniqli olim Ismoil Bekjonov solishtirgani, matndagi arab tilidagi jumlalar, oyat va hadislarni to‘g‘ri o‘qish va tarjima etishga Nozimjon Iminjonov yaqindan yordam bergani ma’lum qilingan. Xivashunos olim Yu. Bregel tarjima asarlarning yillar ketma-ketligini aniqlashga qiynalgan edi. Ammo, ogahiyshunos olim N. Toshev bu xronologiyani shoir o‘z devonida ketma-ketlikda berganligini aniqlagan.

“Sharq” nashriyoti 2019 yilgi nashri atoqli o‘zbek adibi, shoir, tarjimon va muarrix Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to‘g‘risida”gi 238-sonli qarori 3-bandiga muvofiq amalga oshirilmoqda. Nashrga tayyorlovchi, kirish va izohlar mualliffari filologiya fanlar nomzodi Ismoil Bekchanov va tarix fanlar nomzodi Ne‘matjon Polvonov; Ko‘rsatkichlarni Sh.T. Polvonova va J.N.Polvonovlar tayyorlashgan. Tahrir hay‘ati: F.O‘.Ermanov (tahrir hay‘ati raisi), S.K.Salaev, B.A.Abduhalimov, B.I.Abdullaev, I.I.Abdullaev, N.M.Mahmudov, Sh.S.Sirojiddinov, A.A.Ahmedov (nashriyot bosh muharriri), H.J.Abdullaev, S.Ro'zimboev, Z.Do‘simov, G.Xollieva, M.S.Abdullaev, D.Q.G‘oipov, A.D.O‘rozboev (loyiha muvofiqlashtiruvchi ijrochisi) Mas’ul muharrir: filologiya fanlari doktori Abdulla O‘rozboevlarligini ko‘rishingiz mumkin. Bunda nashr uchun mas’ul: Ro‘zimboy Hasanov etib belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ma’naviyat yulduzlari” *(Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999)* kitobidan olindi.

2. Шермуҳаммад Мунис Хоразмий, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул–иқбол // нашрга тайёрловчилар: Жумахўжа, С.Рўзимбоев, А.Аҳмедов. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – 381 б.

3. Шермуҳаммад Мунис Хоразмий, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул–иқбол // нашрга тайёрловчилар: Ш.Воҳидов, И. Бекчонов, Н.Полвонов – Тошкент: Янги аср авлоди , 2010. –518 б.

4. Шермуҳаммад Мунис Хоразмий, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул–иқбол // нашрга тайёрловчилар: Ш.Воҳидов, И. Бекчонов, Н.Полвонов . –Б.17 .

5. Munis Shir Muhammad Mirab and Agahi Muhammad Riza Mirab, Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm/ Transl. from Chaghatay and annotated by Yu. Bregel. – Leiden, 1999. – P. xxiii.(Бундан кейин, Мунис-Огаҳий, таржима).

6. Muhammad Riza Mirab Agahi. Jami‘ al-vaqi‘at-i sultani/ Ed. in the original Central Asian Turki with an Introduction and Notes by Nouryaghdi Tashev. – Tashkent-Istanbul, 2012. – C. xiv.(Бундан кейин, Agahi, Jami‘ al-vaqi‘at-i sultani).

“FIRDAVS UL-IQBOL” ASARINING DUNYO OLIMLARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI VA Y.BREGEL TARJIMASI

Borasulova Dilnoza Dilmurodjon qizi
O’zDJTU o‘qituvchisi
E-mail: dilnozaborasulovauswlu@mail.ru

Anotatsiya: “Firdavs ul iqbol” asarining dunyo olimlari tomonidan o‘rganilishi va qimmatliligi yoritib berilgan bo‘lib, shu bilan birga mashhur Xorazmshunos olim, tarjimon Y.Bregel tomonida asarning ingliz tiliga tarjima qilinishi bayon qilingan.

Kalit so’zlar: nastaliq, Xiva, masnaviy, A.Kun, A. Amirxanyans, V.V.Bartold, Y.Bregel.

Annotation: The study and value of “Firdaws al Iqbal” by world scholars is highlighted, as well as the translation of the work into English under the supervision of the famous Khorezm scholar, translator Y. Bregel.

Key words: nastalik, Khiva, masnavi, A. Kun, A. Amirkhanyans, V. V. Bartold, Yu. Bregel.

Аннотация: Освещается изучение и ценность «Фирдавс ал Икбал» мировыми учеными, а также перевод произведения на английский язык под руководством известного хорезмского ученого, переводчика Ю. Брегеля.

Ключевые слова: насталик, Хива, маснавий, А.Кун, А.Амирханянс, В.В.Бартольд, Ю.Брегель.

“Firdavs ul-iqbol” asari Xiva xonligi hududida yashovchi o’zbeklar, turkmanlar, qozoq va qoraqalpoq xalqlari tarixini aks ettiradi. Asarni mukammal nusxasi Munis va Ogahiy qo‘lyozmasiga mansub bo’lib 613 bet, asar Samarqand qog’oziga, qora siyoh bilan nastaliq xatida yozilgan. Kitobning Munis qalamiga mansub qismida 219 masnaviy, 151 nazm, 113 qit‘a, 69 she‘r, 31 ruboiy, 110 bayt, 20 fard, 1 tarkibband, 1 abet, manzuma, 25 tarix kabi she‘riy shakllar jami 4936 misrani tashkil etadi. Bundan tashqari, Ogahiy qalamiga mansub qismda 58 ta masnaviy, 10 ta nazm, 7 ta bayt, 6 ta qit’a, 2 ta farz, 1 ta ruboiy, 1 ta tarix va 1 ta munojot bor. Ular 1082 misrani tashkil qiladi. Har ikki shoirga tegishli misralar soni 6018 misra.

“Firdavs ul iqbol”ning mzkur nusxasi Rossiya Fanlar Akademiyasining, Sankt-Peterburg bo‘limida KP-938 raqami bilan saqlanmokda, uni rus sharqshunosi A.Kun 1874 yilda topshirgan. Asar keyinchalik, 1856 yilda mulla Nurniyoz ibn mulla Muhammadniyoz tomonidan ko‘chirilgan. Asarga 1879 yilda Muhammad Rizo oxund ibn Muhammad Karim devon tartib bergan.

N.I.Vasilovskiy “Очерк историко-географический сведений в Хивинском ханстве с дневных времен до настоящего” asarida Kun ma’lumotidan foydalanib, Munis va Ogahiy asarlari bilan tanisha olmadim chunki ular hali ham A.Kunning qo’lida bo’lgan edi. Lekin, N.I.Vasilovskiy A.Amirxaniyansga yozgan xatida Munis va Ogahiy tomonidan yozilgan asarlarga “unchalik ahamiyatga ega emas” deb baho bergan. H.H.Howort ham 1880 yili o’z asarida Xiva solnomalarini eslatib o‘tgan. Xon saroyidan olingan 300 jild qo‘lyozmalarning ba‘zilari Peterburgdagi Osiyo Muzeyiga

berildi. Biroq A.Kun o‘z vafotigacha (1988 yili) Munis va Ogahiy asarlarini o’zi saqlagan. 1890 yil vorislari kitoblarni Osiyo muzeyiga sotib yuborgan. G.Zaleman esa A.Kun kolleksiyasini tavfsiflaganida Munis va Ogahiy asarlari haqida ma‘lumot beradi. 1890 yilda pastor A. Amirxanyans “Firdavs ul-iqbol” asarini o‘rganib, mufassal tavfsifini bergan. Uning bu tavsifi “Записки пастора Авр. Амирханянца об “Истории Хивы” asari hozir Sankt-Peterburgda saqlanadi

A.Amirxanyans o‘z davrining mashhur sharqshunoslari prof. Brezen, baron Demezon, akademik Fren va Ilminskiylarni chig‘atoy tilida yozilgan manbalarni bostirishda, “…qo‘llarida shunday bir mukammal qo‘lyozma asar bo‘lsa edi, o‘zlarini baxtli hisoblagan bo‘lur edilar” deb xulosa qilgan.

Munis va Ogahiy asarlarini V.V. Bartold ham jiddiy o‘rgangan va Munisshunoslikka asos slogan. Akademik V.V.Bartold barcha asarlarida Xiva yilnomalaridan yetarli darajada foydalanib, ularga yuqori baho bergan. U hatto 1914-1917 yillar davomida “Firdavs ul-iqbol” asari matnini ham tahrir etib, nashrga tayyorlagani ma‘lum. V.V.Bartold 1929-yili esa uni chop etilishi yaqinligi haqida xabar ham beradi. Biroq bu rejalar amalga oshirilmay qoladi.

Keyinchalik, P.P.Ivanov, A.L.Borovkov, Z.Aksarovlar asar xususida keng tadqiqotlar olib boradila.

Yuriy Enoxovich Bregel (1925-2016) – amerikalik tarixchi, sharqshunos olim, O‘rta Osiyo tarixi, madaniyati va adabiyotiga bag‘ishlangan bir qancha monografiyalar muallifi. Xorazm adabiy muhiti, jumladan, tarixiy adabiy asarlari borasida ham ahamiyatga molik ilmiy ishlari mavjud. Jumladan, Munis va Ogahiy birgalikda “Firdavs ul iqbol”, Bobojon Sanoyining – “Tavorixi Xorazmshohiya” asarlarini jiddiy o‘rgangan. 1988 yilda “Firdavs ul-iqbol” asarini izohlar bilan ilmiy-tanqidiy matnini nashr qildiradi va u 1222 sahifadan tashkil topadi. Oradan 10 yil o’tib, ingliz tiliga tarjimasini nashr etadi. Ingliz tiliga qilgan tarjimasi o‘z ichiga: Kirish qism, 5 bob, qaydlar, geografik nomlar, xaritani o‘z ichiga olib, 659 sahifadan iborat bo‘lib, hajman noan‘anaviy bo‘lgan so‘zboshi (60-bet) to‘rtta qismdan iborat bo‘lib: birinchi qismi asar mualliflari Munis va Ogahiy ijodiy faoliyatini, ikkinchi qismi “Firdavs ul-iqbol” asarining mohiyati, uchinchisi asarning o‘rganilishi va nihoyat to‘rtinchisi asarning qo‘lyozma nusxalari xususiyatlarini ochishga qaratilgan.

“Firdavs ul-iqbol”asarida mavjud 767 ta she‘riy parchadan ayrimlari Yu.Bregel tomonidan tarjima qilingan. Tarjimalarni asl matn bilan qiyoslash asosida, olimning original matndagi buyoqdorlik, istioraviylik, ritmni saqlashga

harakat qilgani aniqlandi. Qur’on oyatlarining tarjimasida olim britaniyalik sharqshunos Artur Djon Arberri tarjimasidan foydalangan.

Page 340 Cf. “How will my sincere counsel profit you” Hud surasi (11), 34-oyatdan: “…Nasihatim sizlarga manfaat bermas…” (To‘liq oyat: “Va agar Alloh sizlarni yo‘ldan ozdirishni istasa, men nasihat qilishni xohlaganim bilan, nasihatim sizlarga manfaat bermas. U sizning rabbingniz va unga qaytarilursiz”, dedi”) Page 349 “(Those who) struggles in God’s way” Baqara surasi (2), 218-oyatdan: “Albatta, iymon keltirganlar, hijrat qilganlar va Allohning yo’lida jiddu jahd qilganlar – ana o’shalar Allohning rahmatini umid qiladilar. Alloh mag’firatli va rahmli zotdir.” Page 362 “How often a little company has overcome a numerous company, by God’s leave!”

Baqara surasi (2), 249-oyatdan: “Tolut askar bilan chiqqanda: “Albatta, Alloh sizni daryo bilan sinovchidir, kim undan ichsa, u mendan emas. Va kim uni tanovul qilmasa, u, albatta mendandir. Magar birov qo’li bilan bir ho’plam ho’plasa, mayli”, dedi. Ozginalaridan boshqalari undan ichdilar. U va u bilan birga iymon keltirganlar u (daryo)dan o’tganlarida, ular ”Bugun bizda Jolut va uning askari bilan jang qilishga toqat yo’q”, dedilar. Allohga ro’baro’ bo’lishiga ishonganlar: “Qanchadan-qancha oz sonli guruhlar Allohning izni bilan ko‘p sonli guruhlarga g‘olib kelgan. Alloh sabrlilar bilandir”, - dedilar.” Page 375 “And he will return to his family foyfully” Inshiqoq surasi (84), 9-oyat: “Va ahli huzuriga xursand holda qaytib borur.” Page 376 “In retaliation there is life for you, oh men possessed of minds” Baqara surasi (2), 179-oyat: “Sizlarga qasos olishda hayot bor. Ey, aql egalari! Shoyadki, taqvodor bo’lsangiz.” Page 377 “(We turned) it uppermost nethermost” Hud surasi (11), 82-oyatdan: “Amrimiz kelgan paytda u o’kani ostin-ustun qildik va ustidan ketma-ket spool toshlarni yog’dirdik” Hijr surasi (15), 74-oyatdan: “…ostin-ustun qildik…” (To‘liq oyat: “Bas, Biz bu (shahar)ning ostini ustun qildik va ular ustiga loyi qotgan toshlar yog‘dirdik.”).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Munirov Q, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari.-B. 58, 60-61
2. Howort H.H. History of the Mongols from 9th to 19th century. Pt.II/2. London. 1880.-P.961.
3. Bregel Y. Introduction.-P. LII-LV
4. N. Adambayeva “Xorazm Turkiy manbalari” monografiyasi. “EFFECT-D”-2021. 3-Ilova
5. Шермуҳаммад Мунис Хоразмий, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул–иқбол // нашрга тайёрловчилар: Ш.Воҳидов, И. Бекчонов, Н.Полвонов – Тошкент: Янги аср авлоди. -B. 11-12

CHALLENGES IN GUIDING INTERPRETATION AND THEIR SOLUTION

Norbekova Farangiza Shuhrat qizi
Teacher,
Department “Practical English Translation”,
Uzbekistan State World Language University
Email: farangiza-norbekova@mail.ru

Annotation: The article considers the main difficulties of guiding interpretation and solving them. Tour guides always work under great pressure, they are required to have many competencies, personal, communication and negotiation skills as well as to be able to communicate information in an interesting and interpretive way, and one difficulty is that at the same time maintain good relations with employers and tourists, they have also to adhere to rules. Cultural diversity also brings some obstacles and some skills are required to be a professional. To solve such barriers many people are focusing on attentions by creating new methods.

Keywords: Guiding interpretation, pressure, competencies, tourists, negotiation skills, cultural diversity

Аннотация: В статье рассмотрены основные трудности гид- интерпретацией и их решение. Гиды всегда работают под большим давлением, от них требуется много компетенций, личных навыков, навыков общения и ведения переговоров, а также умение доносить информацию интересным и интерпретативным способом, и одна из трудностей заключается в том, чтобы в то же время поддерживать хорошие отношения с работодателями и туристами они также должны придерживаться правил. Культурное разнообразие также создает некоторые препятствия, и для того, чтобы быть профессионалом, требуются определенные навыки. Чтобы преодолеть такие барьеры, многие люди сосредотачиваются на внимании, создавая новые методы.

Ключевые слова: гид-перевод, давление, компетенции, туристы, навыки ведения переговоров, культурное разнообразие.

Annotatsiya: Maqolada gid-tarjimon faoliyatini talqin qilish va ularni hal qilishning asosiy qiyinchiliklari ko'rib chiqiladi. Sayyohlik gidlari har doim katta bosim ostida ishlaydilar, ulardan ko'plab malakalar, shaxsiy, muloqot va muzokaralar qobiliyatiga ega bo'lish, shuningdek, ma'lumotni qiziqarli va izohli tarzda etkazish qobiliyati talab qilinadi va bir qiyinchilik shundaki, bir vaqtning o'zida yaxshi munosabatlarni saqlab turadi. Ish beruvchilar va sayyohlar bilan ular ham qoidalarga rioya qilishlari kerak. Madaniy xilma-xillik ham ba'zi to'siqlarni keltirib chiqaradi va professional bo'lish uchun ba'zi ko'nikmalar talab etiladi. Bunday to'siqlarni hal qilish uchun ko'pchilik yangi usullarni yaratish orqali e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: Yo'naltiruvchi talqin, bosim, kompetensiyalar, sayyohlar, muzokaralar ko'nikmalari, madaniy xilma-xillik

Guide interpreters have essential roles in the tourism industry, but they face many problems and challenges that may adversely affect their performance and this might affect negatively the tourists` satisfaction and experience. Therefore it is vital to focus on actual solutions on them. Initially, tourism is a travel for recreational, leisure or business purposes and guides can enhance the impression or perception of destination to the tourists. They are expected to have good interpreting skills and great capabilities to satisfy their guests. In these days many people give their attention to improve tourism field and developing tour guides due to lack of experienced employees. Also many guides are struggling with some difficulties such as cultural diversity, interpreting jokes, idioms or proverbs, lack of language fluency, lack of training opportunities and other many challenges. And also one of the main problem is that some shortcomings of teaching system. Universities are focusing on creating new methods of being professional guides and finding new ways of teaching. In the study years, students are studying unnecessary subjects and spending their time. Instead of this they should gain more experience because of being a professional demands many efforts . Giving an example to one challenge such as cultural knowledge. Top interpreters have a responsibility to not only understand and able to fluently the target language, they must also have a deep-rooted sense of cultural awareness, regional slang and idioms. While giving specific information about historical places to tourists, if they

must express their ideas with idioms or proverb , they should know direct meaning in foreigner`s language. If it is not suitable they try to give definition or same meaning. However, culture is not expressed by words but by attitudes. This is another challenge for interpreters. For example, in Japan, one is not supposed to express their personal desires it there is no link of proximity. It is a sign of politeness. So if you go to someone`s place, you are not supposed to say that you would like a cup of tea or a glass of water. The host has to guess that. Interpreters have to be aware of these cultural differences because they serve as a bridge for intercultural communications. To tackle such barriers, firstly, universities should give their attentions to better education system by removing unnecessary subjects. For instance, students who will be a guide should practice more than learning theoretical knowledge. Because many people say that practice makes perfect. While academic year they should organize practicing not just one or two months, half year for studying another half for practicing. When they begin working as a tour guide, it can be a great way to meet new people, travel, share incredible experiences and learn more a culture or place. To plus this it demands some skills like being hospital, good listening, fluent speaking ability, punctuality and leadership. While study years, essential subjects such as oral translation, hospitality and narrator speech should be taught more and new subjects need to add to improve listening, speaking. Governments also play an important role to solve some difficulties by opening many new ways for younger guide generations, it is also beneficial for achieving socio-economic-political goals. By opening many opportunities it can help young future guides to be good at in their fields. Uzbekistan is rich and full of historical buildings, monuments and they attract a lot of tourists. Half academic year should be provided in appropriate locations to practice, then it will be memorable also will serve as a foundation for them to work on in the future. Government should open many ways to allowing by working in tour firms as a contract or freelance interpreter to gain job experience, another way is by doing volunteer work even it will be paid or unpaid. Another solution would be bringing magazines, newspapers and books are a great way to dive in learning cultural knowledge. Universities must offer for students such opportunities. Also nowadays they try to enhance guiding system by contracting with many tour firms, carrying students to historical places to see in a natural atmosphere. In new future, guiding will be one of the top jobs due to developing tourism field. Many specialist guides will grow and some difficulties will be tackled by improving teaching systems.

REFERENCES:

1. Sasha Abraham, Kunal Kulkarni, Rashmi madhu, Drew Provan,The Hands-on Guide to Data Interpretation, 1st Edition, ISBN-13:978-1405152563

2. Sam H.Ham Environmental Interpretation, 1st Edition, ISBN-13:978-1555919023

3. Steve Slack, Interpreting Heritage a Guide to Planning and Practice,Copyright year 2021,ISBN-9780367420157.

4. Khursanov N.I. Types of Semantic Transference in Dramatic Discourse (On The Example of Uzbek and English Texts) // ACADEMICIA: An International

Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137 Vol. 12, Issue 04, April 2022 SJIF 2022 = 8.252 A peer reviewed journal. DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00252.X.

ORAL TRANSLATION COMPETENCE OF A TOUR GUIDE

Norbekova Farangiza Shuhrat qizi
Teacher,
State World Languages University of Uzbekistan
E-mail: farangiza_norbekova@mail.ru

Annotation: The international relations of Uzbekistan, forums, meetings and symposiums which are held in Uzbekistan are increasing the need for training professional tour guides with a competence of oral translation. Tourism in Uzbekistan is also developing day by day, which means good opportunity for tour guides. Guides need some special abilities, qualities and qualification. What is more they need some competence of oral translation.

Key words: International, translation competence, tour guide, tourism, the opportunity for tour guides.

Аннотация: Международные связи Узбекистана, форумы, встречи и симпозиумы, которые проводятся в Узбекистане, увеличивают потребность в подготовке профессиональных гидов-экскурсоводов, владеющих компетенцией устного перевода. Туризм в Узбекистане также развивается день ото дня, что означает хорошие возможности для экскурсоводов. Гиды нуждаются в каких-то особых способностях, качествах и квалификации. Более того, им необходима определенная компетенция устного перевода.

Ключевые слова: Международный, переводческая компетенция, экскурсовод, туризм, возможности для экскурсоводов.

Annotatsiya: O‘zbekistonning xalqaro aloqalari, O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan forumlar, yig‘ilishlar va simpoziumlar og‘zaki tarjima malakasiga ega bo‘lgan professional ekskursiya gidlarini tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda. O‘zbekistonda turizm ham kundan-kunga rivojlanib bormoqda, bu esa gidlar uchun yaxshi imkoniyatdir. Gidlar ba'zi maxsus qobiliyat, fazilatlar va malakaga muhtoj. Qolaversa, ular og'zaki tarjimaning qandaydir malakasiga muhtoj.

Kalit so'zlar: Xalqaro, tarjima kompetensiyasi, gid, turizm, ekskursiya gidlari uchun imkoniyat.

A tour guide is a person who provides assistance, information on cultural, historical and contemporary heritage to people on organized sightseeing and individual clients at educational establishments, religious and historical sites. Guides are tourism professionals that lead their guests through the most interesting parts of their region. It is their task to entertain visitors to their region and to help them to interpret the sights that they are visiting. A quality tour guide should show accurate and significant knowledge, all while providing a simple and engaging experience for guests. There are some qualities a great tour guide should possess:

1. Awareness of the tour area - Tour guide must be prepared to take guests and tourists to some most unique places and travelers are educated during the trip by guide who knows the area inside and out. Tour guides must be able to explain facts, history, landmarks, figures, local customs and more. They should also be able to answer additional tour related questions that may come up during the trip. Enlighted guides make trip insightful and memorable.

2. Capacity to communicate effectively - communication is one of the most grounded qualities tour guides should have. They must be able to verbalize and project their voices and talk clearly, to assist anticipate any mistaken assumptions from their various tourists and groups. A great tour guide also needs to appropriately articulate words. An individual who knows how to command the consideration of different people at once, is a good candidate for a tour guide position.

3. Ability to improvise and adapt - Situations may change. Tour guides should be familiar with improvising and adapt to these changing circumstances. They should be able to grab the tourists attention when they lost it.

4. Ingratiating storyteller and actor - tour guides should have a compelling enthusiasm and energy for what they do. They do not have to be local people to be a guide in an area. They just need to sufficient enthusiasm to memorise the history of an area, normally tell the story and clarify their information with excitement

to eager guests. Tourists are keen on learning about various fun facts and little known secrets about the area they will be touring. Guides ought to reliably have the capacity to communicate energetically, act emphatically and tell diverse stories.

5. Flexibility - at times tour guides need to go with stream. They may have to utilize different approaches based on the group of visitors they will be engaging. A

flexible strategy to a situation can make a great trip indeed superior.

6. Punctuality - being punctual is one of the most essential characteristics your tour guide should possess because they need to have guests at designated areas at specific times. They often follow a schedule with different timeframes. It is basic that tour guide offer visitors get to where they have to be on time. The most prominent tour guides are punctual and organized. How to become a tour guide? What kind of qualification a tour guide need? Upcoming tour guides should have a minimum of a high school diploma or equivalent certificate. Required scholastic foundations shift by company, but regularly a bachelor’s degree in a field related to the subject of the tour is vital. Exhibition hall tour guides, for occurrence, as a rule must have a degree in history and eco-tour guides regularly major in preservation or natural instruction. In most cases, employers provide on-the-job education that includes safety training. Tour guides are cultural ambassadors of a country, their communication skills can make or break tourists experience with guided tours and memories of a destination. Tour guides are individuals who provide beneficial information and knowledge about a certain topic or location to tourists and other audience members. Tour guides often use their skills in historical landmarks, museums, parks, resorts and cities, helping travelers and guests learn more about the location and answer their questions. It means, oral translation competence of tour guide is important because mostly everything depends on guide's

speech and his translation. Oral translation involves any kind of document that can help a tourist make informed decisions while planning out their trip.

To be a good oral translator, you have to be highly proficient in two languages: the language you translate from and the language you translate to. Translators should strive to be simple, clear, and concise in formulating a question. Fewer words are better. Typically, a bachelor's degree and at least three years of experience is required to become a translator. However, the most important requirement is to become fluent in at least two languages. In Uzbekistan there is an exam called CEFR which is divided into three general levels : Level A - basic user, Level B - the independent user, Level C - the proficient user. And each of them is subdivided into two levels 1 and 2. For level B, level B1 users can understand the essential points of a clear and familiar language, B1 user can produce a simple speech. A level B2 users can communicate easily and spontaneously in a detailed way. B2 user is able to understand and be caught on in most circumstances. Additionally The B2 level is for the most required to work or do an internship overseas in most English- speaking countries. A B2 utilizer can express himself effectively, successfully and take the activity to speak. So, based on the above data, in Uzbekistan level B2 is sufficient for a guide to translate orally because tourism in our country is not so developed and we have guests not from all over the world. However for improvement yourself and self confidence, you may pass level C. But in comparison with European countries this degree level B2 is not enough. In these countries there are a huge number of visitors from all over the world which means a large number of native speakers whose vocabulary is great and fluent speech. In Europe there is also a rivalry between lots of tour guides, since there are 5 times more tourists than in Uzbekistan and naturally, people who wish to become a guide need to be the best in their field and know languages perfectly, that is, in Europe, level B 2 is not enough. They should differ in their knowledge, vocabulary and experience. They should speak naturally without an accent, understand, translate easily and be understandable. Based on this, it can be said that in Europe or in other developed countries, guides need a C2 level for oral translation. A C2 level of English is essentially a native level. C2 user in English will be able to discuss issues related to science and technology, talk about celebrities, utilize a variety of techniques for promoting creativity in speech, discuss financial planning and give and understand advice about personal finance, talk about stress in your life, discuss techniques for doing research on a wide range of topics. As you see, C2 utilizers will be the same as native speakers and have good opportunity to get high position in their field without difficulties with tourists. However, in Uzbekistan we have guests mostly from India, Russia and Pakistan, countries where people also have B1 - B2 level even lower, know simple words, so in Uzbekistan for guides B2 level is sufficiently, because our guests do not need difficult words or structures, otherwise they can not understand us.

In Uzbekistan there are a huge number of tour agencies and tour guides, but based on facts and statistics uzbek guides are not enough experienced. Most of them work as a guide because of money and just some of them are fond of their work. And others are striving to develop outward tourism, until today there are no such firms that would develop inward tourism. For example, most citizens of Uzbekistan do not know

anything about their country, except of the city where they live, and even then not completely. What is more, majority of them are lack of smile and sincere emotions. Clothing – they wear the latest fashion following Europe, however, it would be better if they met guests, conducted tours and said goodbye to them in clothes with elements of our traditional materials – adras or atlas for example. And also our guides need to organize a trip for tourists in such a way that it remains in their memory for a long time, not to show them large buildings that can be seen in all countries, not to take them to the boutiques that they have in their city at every turn, but to let them feel the atmosphere of Uzbekistan, take them to our bazaars, give a taste of our delicious naturally grown fruits, show them the subway, show them small houses, farms, ornaments and our folk arts. Our Uzbekistan is full of diversity for tourists that you can't meet and build everywhere, but unfortunately our tourism is still not very developed. And some of tour guides do not have enough competence of oral translating. There are some steps to improve translation competence of future tour guides in Uzbekistan: 1.reading in target language , which is extremely important as it helps grow your vocabulary and increase knowledge of language. Reading will help your word choice and sentences structure when translating. 2. Increase cultural awareness – one of the hardest difficulties when translating are the barriers of languages due to cultural differences. Languages are complicated when translating may not make a sense. The best way of improving this ability is observing and practicing with native speakers. 3. Practise daily – make time daily to hone translation. No one is ideal, all translators must make time to practice to improve. When you make a mistake, keep track of them and learn from them so that you just don't make the same botches once more. Try back-translation or translating documents vice-versa. If you are used to translating English to another language, practice the opposite way. Back translation will help you learn the other language better and increase your fluency.

REFERENCE

1. Amanjan Muminov. A GUIDE TO CONSECUTIVE TRANSLATION (Ketma-ket tarjima, Последовательный перевод) Toshkent - 2013

2. https://www.researchgate.net/publication/290454060_Evaluating_communication_competency_of_tour_guides_using_a_modified_importance-performance_analysis_MIPA

3. https://graylinelasvegas.com/blog/11-qualities-your-tour-guide-should-have/

4. https://www.efset.org/cefr/c2/

5. https://www.careerexplorer.com/careers/tour-guide/how-to-become/

6. https://www.samedaytranslations.com/blog/4-tips-for-improving-your-translation-skills/

7. Khursanov N.I. Semantic Groups of Behavioral Verbs in Uzbek and English // "Philological Research: Problem and Solution" international scientific conference. – Bukhara, November 22, 2021. – pp. 262-264.

AKRONIM VA ABBREVIATURALARNING TARJIMADA QO‘LLANILISHI

Xudoyqulova Dlafruz Kabildjanovna
Toshkent Farmasevtika Instituti
Khudoyqulova-1982@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada sohaga oid akronim va abbreviaturalarning yasalishi, o‘ziga xos xususiyatlari va matn tarjimasida berilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tarjima,soha, qisqartma, termin, tarjimashunoslik.

Annotation: The article analyzes the construction, specific features and text translation of acronyms and abbreviations related to the speciality.

Keywords: translation, specialization, acronym, term, translation studies.

Аннотация: В статье анализируются конструкция, особенности и текстовый перевод акронимов и аббревиатур, относящихся к специальности.

Ключевые слова: перевод, специализация, аббревиатура, термин, переводоведение.

Tarjima xususida gap borar ekan, bir tildan boshqa tilga alohida so‘zlarni, so‘z birikmalarini, butun bir asarni tarjima qilish nazarda tutiladi. Tarjima bir-biriga oilaviy jihatdan yaqin tillardan yoki tamoman boshqaboshqa oilaga mansub bo‘lgan tillardan amalga oshiriladi. Tarjima teng ma’nolilik (muqobillik)ni taqozo qiladi, boshqacha qilib aytganda, amalga oshirilgan tarjima asliyatga mazmun jihatdan muvofiq bo‘lishi lozim. Bu hodisa hamisha tarjima nazariyasi va amaliyotining asosiy muammosi bo‘lib kelmoqda. Hozirgi davrda tarjimaning teng ma’nolilik yoki asliyatga muvofiqlik tushunchasi haqida har xil qarashlar mavjud. Tilda acocan ko‘p bo‘g‘inli lekcyemalap va bip necha komponentdan tashkil topgan bapqapop co‘z bipikmalapi, shuningdek, nominativ funksiyani bajapuvchi lekcik bipliklap qicqaptipiladi va ulap acocan ot co‘z tupkumi doipacida amalga oshipiladi. Ingliz tilida co‘z yacalish japayoni iyepapxik bocqichlapidagi co‘nggi tup abbpyeviasiya va akponimlap bo‘lib, fapmasevtika tepminologiyacida ulapdan foydalanish o‘zbek tiliga nicbatan ancha keng tapqalgan.

Abbpyeviatupalap acocan co‘z bipikmalapi komponentlapining bosh hapflapini yoki ma’lum qicmlapini olib qo‘shish acocida vujudga kelgan qicqaptma co‘zlap hicoblanadi.

Akronim va abbreviaturalar, ya’ni qisqartma so‘zlar tarjimasi nutqda ixchamlikka erishish zarurati bilan dastlab yozma nutqda paydo bo‘ladi va faol qo‘llanishi natijasida keyinchalik og‘zaki nutqqa ham o‘tadi. Qisqartma terminlar inson vaqtini, kuchi-quvvatini tejaydigan til vositalari bo‘lsa-da, hamisha ham qisqartmalarni yaxlitligicha (shundayligicha) qo‘llash tarjimada o‘zini oqlamaydi. Ularni to‘g‘ri tushunishda tarkibiy qismlarini tasnif qilish, funksional-struktur tuzilmalarini ajratish, har bir elementi o‘ziga xos mustaqil leksik-semantik ma’no ifodalovchi so‘z bo‘lagi ekanligini anglash orqali ularni kengaytirish yo‘li orqali tarjima qilish lozim bo‘ladi. O‘rganilgan ayrim yozma manbalarda qisqartmalarni ifoda etish, tavsiflash va tasniflash, shuningdek, barcha turdagi murakkab, ya’ni ko‘p tarkibli termin yoki so‘zlarning bosh

harflarini olib qisqartirish yo‘li orqali soddalashtirish keng tarqalgan usul ekanligini ta’kidlash o‘rinlidir.

Farmasevtika sohasi amaliyoti doirasida ko‘zlangan maqsadga erishish uchun ingliz tilidagi farmasevtik akronim va abbreviatura terminlarini bir nechta leksik-semantik guruh (LSG)ga ajratib tasniflash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ular quyidagicha:

1.Farmasiya yo‘nalishiga doir terminlar
2.Biotexnologiya yo‘nalishiga oid terminlar
3.Farmakologiya yo‘nalishiga oid terminlar
4.Farmakognoziya yo‘nalishiga oid terminlar
5.Toksikologiya yo‘nalishiga oid terminlar
6.Farmasevtik kimyo yo‘nalishiga oid terminlar
